



JO'RAEV T.T., HALIMOV S.G'.

NUTQ MADANIYATI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

JO'RAEV T.T, HALIMOV S.G`.



NUTQ MADANIYATI

TIBBIYOT KO'ZGUSI

O'quv qo'llanma

O'quv qo'llanma Samarqand davlat tibbiyot instituti Ilmiy Kengashining 24-iyun 2020-yilda bo'lib o'tgan yig'ilishidagi "9"- son bayonnomasiga ko'ra tasdiqlanib, chop etishga ruxsat berilgan.



SAMARQAND 2021

UO‘K: 82-25(075.8)

KBK: 81

J 96

Jo‘raev T.T., Halimov S.G`.

Nutq madaniyati. O‘quv qo‘llanma.[matn]–Samarqand: Samarqand:
TIBBIYOT KO‘ZGUSI, 2021. - 108 b.

TAQRIZCHILAR:

Turniyozov N.Q. - filologiya fanlari doktori, prof.

Abdiev M.B. - filologiya fanlari doktori, prof.

MAS‘UL MUHARRIR:

Rizaev J.A. - tibbiyot fanlari doktori, prof.

Ushbu qo‘llanmada nutq madaniyati tushunchasi, tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida ushbu fanni o‘rganish zarurati va vazifalari, tibbiyot xodimi nutqi oldiga qo‘yiladigan talablar, nutqning turli ko‘rinishlarida madaniy nutqning aloqaviy sifatlari, og‘zaki va yozma nutqda qo‘llaniladigan ifoda-tasvir vositalari haqida fikr yuritilgan. Qo‘llanma tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarining “Davolash ishi”-5720100, “Stomatologiya”-5720400, “Pediatriya ishi”-5720200, “Tibbiy pedagogika ishi”-5720300, “Oliy hamshiralik ishi”-5720600 va boshqa bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlaridagi mutaxassisliklar o‘quv rejasi va dasturi asosida yozilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan fanlar tizimida “Nutq madaniyati” faning tutgan o‘rni, uni o‘rganish ehtiyoji, tarixi va bugungi kundagi muammolari to‘g‘risida kengroq ma‘lumotlar berilgan.

Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari talabalari ushbu qo‘llanmada berilgan o‘quv materialidan shifokor nutqi madaniyati oldida turgan vazifalar, uning asosiy muammolari haqida nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, bemor bilan muloqotda madaniy nutq, nutqning aloqaviy sifatlari bo‘yicha ko‘nikmalarni egallaydilar.

Ushbu qo‘llanma tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarining o‘zbek tili o‘qitiladigan yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, “Nutq madaniyati” kursini o‘qitishda qo‘shimcha o‘quv adabiyoti sifatida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Qo‘llanmadan o‘qituvchilar va talabalar, magistrlar hamda tibbiyot sohasi xodimlari foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-6978-4-3

© JO‘RAEV T.T, HALIMOV S.G`

© TIBBIYOT KO‘ZGUSI, 2021

SO'Z BOSHI

Keyingi yillarda mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi madaniyatimiz va ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lgan ona tilimiz taraqqiyotida ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq o'zbek tilining xalharo miqyosda obro'sini oshirish, uning aloqa vositasi sifatidagi mavqeini jahonning rivojlangan tillari darajasiga etkazish, mamlakatimiz ichki va tashqi hayotida faol muloqot vositasiga aylantirish eng dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Ayniqsa, mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi va tilimizga Davlat tili maqomining berilishi o'zbek tilining qo'llanish doirasini, funktsional-stilistik imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bu boradagi sa'y-harakatlar natijasida yurtimizda va xorijdagi turli rasmiy uchrashuvlar va muzokaralarda o'zbek tili rasman aloqa vositasi sifatida keng qo'llanila boshlandi.

Bugungi kunda jahonning Amerika qo'shma Shtatlari, Frantsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Ukraina, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Qozoqiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston kabi davlatlarning ko'zga ko'ringan universitetlari va umumta'lim maktablarida o'zbek tili o'rganilayotganligi, ilmiy muassasalarda o'zbek tili markazlarining tashkil etilayotganligi dunyo mamlakatlarida o'zbek tilini o'rganishga qiziquvchilar sonining tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ayni vaqtda yurtimizda o'zbek nutqi madaniyatini yanada yuqori bosqichga ko'tarish va bu sohadagi muammolarni bartaraf etish o'zbek tilshunosligi oldidagi dolzarb vazifalardan bo'lib turibdi. Shu bois bugungi kunda mamlakatimizdagi har bir oliy o'quv yurti ta'lim rejasiga "Nutq madaniyati" fani kiritilgan. Talabalarni kelajakda nutq madaniyatini mukammal egallagan soha mutaxassisi qilib etishtirish maqsadida oliy o'quv yurtlarida ushbu fan o'qitilmoqda. Nutq madaniyati bo'yicha shu vaqtga qadar ta'lim tizimining turli bosqichlariga mo'ljallangan darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy ishlar to'plamlari nashr qilingan.

Ushbu qo'llanma respublikamizda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilab berilgan vazifalarni amalga

oshirish, meditsina sohasida yuqori nutqiy madaniyatga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida yaratilgan.

Uzluksiz taraqqiyotda bo'lgan hayotimizda bo'ladigan har bir yangilik, o'zgarish dastlab xalqimizning tilida o'z ifodasini topadi. Shunday ekan, til inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Til jamiyat hayotiga bog'liq holda rivojlanadi, xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyati, turmush tarzida sodir bo'lgan yangiliklarni o'z lug'aviy tarkibida, grammatik qurilishida muhrlab boradi. Til doimiy ravishda e'tiborga muhtoj. Tilshunoslikda uslubiyat bo'yicha shu vaqtga qadar salmoqli ishlar amalga oshirilgan.

Mazkur tadqiqotlarda inson nutqiy madaniyatini oshirish, buning uchun talabalarga adabiy til me'yorlari, tildagi leksik, grammatik birliklarni o'rinli qo'llashni o'rgatish ko'zda tutiladi. Ushbu qo'llanmani yaratishda o'zbek tilshunosligida nutq madaniyatini o'qitish bo'yicha yaratilgan dasturlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yildagi "O'qituvchi nutqi madaniyati" fanining o'quv dasturi" hamda keyingi yillarda uslubiyat bo'yicha yaratilgan darslik va qo'llanmalarda bildirilgan fikrlarga tayanilgan. Qo'llanmada tanlangan mavzular mohiyatini yoritishda o'rni bilan mazkur ishlar materiallaridan ham foydalanildi.

Qo'llanma beshta mavzuni qamrab olgan. Unda mazkur kursni tibbiyot oily ta'lim muassasalarida o'rganilishining maqsad va vazifalari, nutq madaniyati tushunchasi, uning lingvistik soha ekanligi, nutq madaniyati tarixi, adabiy til me'yoriga munosabati, vazifaviy uslublar va nutq madaniyati, nutqning aloqaviy sifatleri, o'zbek tilining tasviriy vositalari, ta'lim jarayonida nutq madaniyati, ritorika, omma oldidagi chiqishlar va ma'ruzalarda nutq madaniyati kabi masalalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning yaratilishida tibbiyot oily ta'lim muassasalari davolash, pediatriya, stomatologiya, oliy hamshiralik ishi, tibbiy pedagogika va boshqa yo'nalishlari bo'yicha magistr va talabalarning nutq madaniyati haqidagi bilimlarini boyitish, ularda bemorlar bilan muloqot qilish jarayonida so'zlarni o'rinli qo'llash ko'nikmasini mustahkamlash ko'zda tutilgan.

Mazkur qo'llanmada kuzatishlar shifokor va bemor o'rtasida nutqiy muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi ta'sirchan jumlar,

xususan, munosabat ifodalovchi so'zlar misolida amalga oshirilgan. Talabalar va magistrantlarga nutq madaniyatini o'rganish uchun tahlil usullari tavsiya qilingan.

Qo'llanma tibbiyot oily ta'lim muassasalarining bakalavr mutaxassisligi o'quv rejasi soatlari asosida yozildi.

Qo'llanmadan tibbiyot oliy o'quv yurtlarida "Nutq madaniyati" va "Davlat tilida ish yuritish" kurslari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlaridan foydalanish maqsadiga muvofiq.

Rizaev J.A.

*Samarqand davlat tibbiyot
instituti rektori,
tibbiyot fanlari doktori, professor*



“NUTQ MADANIYATI” KURSINING MUNDARIJASI, MAQSADI VA VAZIFALARI.

O'quv maqsadi

Talabalarda “Nutqi madaniyati” kursining maqsadi va vazifalari, asosiy muammolari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Asosiy ma'lumotlar

Birlashgan millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti - YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda etti mingga yaqin til bo'lib, ularning faqat 200ga yaqini davlat tili maqomiga ega. Turkiy tillarga xos go'zal xususiyatlarni o'zida mujassam qilgan ona tilimizning ana shu tillar orasida o'rin egallaganligi ko'nglimizga cheksiz quvonch bag'ishlaydi. Respublikamizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi asrlar davomida sayqallangan, o'z nazokatu fasohatini davrlar osha saqlab kelgan tilimizning mamlakatimiz hududida Davlat tili sifatida amalda bo'lishi, yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Yurtimizda o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi tufayli tilimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi, bu borada olib borilgan sa'y-harakatlar ona tilimizning o'z mavqeini tiklab olishiga, qo'llanish doirasi va imkoniyatlarining kengayishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shunisi quvonarliki, endilikda respublikamizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida va mamlakatimizdan tashqarida ham turli rasmiy aloqalarda, uchrashuvlar va muzokaralarda o'zbek tilining Davlat tili sifatida qo'llanishi qonunchiligimizda rasmiy tarzda belgilab qo'yildi. Bu esa ma'naviyatimiz va madaniyatimiz timsoli bo'lgan o'zbek tilining vazifaviy-uslubiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish, uni jahonning eng rivojlangan tillari darajasiga ko'tarish zaruratini keltirib chiqardi.

O'zbek tilini yanada rivojlantirish, uning taraqqiy etishi uchun hamma imkoniyatlarni yaratib berish dolzarblik kasb etgan bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bug'inlarida o'zbek tilini o'qitish sifatini yaxshilash, o'quvchi va talabalarni o'zbek tilida to'g'ri va ravon so'zlashga o'rgatish, ularning nutqi madaniyatini takomillashtirish zarurligini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Shuning uchun nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida o'zbek tilini chuqur o'rganish, shu tilda so'zlash mahoratini oshirishga qaratilgan markazlarning tashkil etilishi, oliy ta'lim muassasalarida “Nutq madaniyati”, “O'zbek tili”,

“Davlat tilida ish yuritish” fanlarining kiritilishida tilimiz rolini yanada oshirish ko'zda tutilgan.

Keyingi yillarda o'zbek tilini zamonaviy talablar asosida har tomonlama puxta o'rganish, uning tovushlar tizimi, lug'aviy tarkibi, grammatik qurilishini, fanning boshqa sohalar bilan aloqadorligini o'rganishga bag'ishlangan qator ishlar yuzaga keldi.

Shular qatorida nutqiy savodxonlikni oshirish, nutq madaniyatini, notiqlik san'atini o'rganish bo'yicha ham ancha muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu yutuqlar filologik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari qoshida nutq madaniyati masalalarini o'rganuvchi alohida bo'limlarning tashkil qilinishi, alohida fan sifatida oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga kiritilishi, ommaviy-axborot vositalari - matbuot, radio va televidenie orqali tarqibot-tashviqot ishlarining yo'lga qo'yilishi, mehnat jamoalarida taniqli so'z ustalari, notiqalar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlarining o'tkazilishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, nutq madaniyatini o'rganishga qaratilgan har xil darslik va o'quv qo'llanmalarining yaratilishi, Sharq notiqlik san'atini tadqiq etish, ko'pchilikka sodda va ravon tilda tushuntirishga bag'ishlangan ommabop kitoblarning chop etilishi ham yuqorida qayd etilgan ishlar jumlasiga kiradi.

Bugungi kunda o'zbek tili o'zbek millatining fikr almashuv quroli sifatida xalqimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida - ish yuritishda, o'qish - o'qitishning turli pog'onalarida, radio va televideniya, matbuotda g'oyat mas'uliyatli muhim vazifani bajarmoqda. Bunda albatta, badiiy adabiyotimiz rivojiga hissa qo'shayotgan shoir va yozuvchilar, so'z san'atkorlari, tilimiz sofliqi uchun kurashayotgan tilshunos olimlarimiz va ommaviy axborot vositalari xodimlarining xizmatlari beqiyosdir.

Tilshunosligimizning katta yutuqlaridan biri shuki, o'tgan davr mobaynida adabiy tilni me'yorlashtirish, uning tozaligi, to'griligini ta'minlash, belgilab qo'yilgan me'yoriy qoidalariga og'zaki va yozma nutqda, nutqning turli ko'rinishlarida qat'iy amal qilinishi yo'lga qo'yildi. Yuqorida bayon qilingan fikrlar o'zbek tilshunosligida nutq madaniyati bilan bog'liq barcha muammolar o'z echimini topgan degani emas, albatta. Bugun mustaqillikni qo'lga kiritganimizga salkam o'ttiz yil to'lgan bo'lsa-da, nutq madaniyati bilan muammolar haligacha o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Biz o'z mustaqilligimizni qo'lga kiritmasdan oldingi davrdagi holat bilan tilimizning bugungi kundagi ahvolini qiyoslasak, muammoning sabablari oydinlashadi.

E'tirof etish kerakki, o'tgan deyarli bir asr davomida rus tilining kuchli ta'siri oqibatida o'zbek tili lug'aviy tarkibi tashqi ko'rinishdan ilmfan, ishlab chiqarish, texnikaga oid turli xil so'zlar bilan ancha boyigan bo'lsa-da, davlatning rasmiy tili sifatidagi maqomi unutilishi, o'z vazifaviy imkoniyatlarining chegaralab qo'yilishi hisobiga ma'lum darajada qashshoqlanib, ko'pgina so'zlar iste'moldan chiqib qoldi. Ularning o'rnini boshqa tillarga oid so'zlar egalladi. "Hatto yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalaridan tortib, ilmiy darajali va unvonli kishilarning nutqlari ham ta'sirsiz, g'aliz bo'lib qoldi. Ularning nutqida izchillik yetishmaydi, xorijiy so'zlar noo'rin ishlatiladi"¹.

Bu bor haqiqat. Ko'rinadiki, rus tili ta'siriga uzoq davr mobaynida berilib ketish natijasida bu til xalqimiz hayotimizga shu darajada singib ketgan ediki, hatto bu ahvol jiddiylashib, bugungi kunda o'z millatimiz vakillariga ham o'zbek tilini, o'z ona tilida tushunarli va ravon so'zlashni o'rgatishni vaziyat ko'rsatib turibdi. Insonning o'z ona tilini qay darajada bilishi, undagi so'zlarning ma'no nozikliklaridan xabardorligi avvalo, muomalada ko'rinadi. Muloqot jarayonidagi mavjud nutqiy kamchiliklar, kundalik nutqiy munosabatlarda so'zlarning noto'g'ri tanlanishi, shevaga xos so'zlar, boshqa tilga oid so'zlar, haqoratli so'zlarga keng o'rin berilishi nutqni g'alizlashtiradi, ta'sirchanligini yo'qotadi. Shu bois nutq madaniyati bilan bog'liq masalalarga umummilliy muammo sifatida jiddiy munosabatda bo'lish kerakligi bugungi kunda isbot talab qilmaydi. So'zlaganda adabiy til me'yorlariga amal qilmaslik nafaqat so'zlashuv nutqida, balki keyingi yillarda yaratilgan bir qator asarlarda, masalan, yozuvchi Tohir Malik qalamiga mansub "Shaytanat" romanidan olingan quyidagi parchada ham yaqqol ko'zga tashlanadi:

"To'satdan yangrab, magnitofondan taralayotgan musiqa tovushini bosib ketgan bu ovozdan to'rttovlari ham cho'chib tushishdi. Monika barmog'ida qistirqliq sigaretni shoshib kuldonga tashladi-da: - Oy, papul keldi, - deb o'rnidan turdi. Bunaqa baqirishlarga ko'nikib ketgan kuyov ham erinib, qo'zg'aldi. Monika tez-tez yurib kelib darg'azab otasini quchoqladi. Kesakpolvon jahli chiqqanini yana bir karra ta'kid etmoq maqsadida qizini odatdagiday o'pib, erkalamadi. - Papul bugun vne nastroeniyada, - dedi Monika arazlab. - Papanglar charchaganlar, - Kesakpolvonning xotini shunday deb unga yaqinlashdi: - ha, adasi, tinchlikmi? Kesakpolvon xotiniga o'qrayib harab, xonasi tomon yurdi. - hay, adajonisi, bir minutga to'xtang, u nas novosti. Leningradda parikmaxerlarning mejdunarodniy vistavkasi bo'layotgan ekan. - Vistavka

¹ ŷzbek nut? madaniyatining dolzarb muammolari.-Toshkent, 1990, B.36.

emas, konkurs, - deb izoh berdi sartarosh. - Nu da, konkurs. E shu konkursga Gogik borishi kerak. - Borsa ana katta ko'cha, qo'lidan ushlab turganim yo'q, - dedi Kesakpolvon ming'irlab. - Kak eto «katta ko'cha»? Bu prostoy konkurs emas, mejdunarodniy axir. Gogik pobeditel bo'lishi kerak. Monika ham borishi kerak Leningradga. -ha, qizing ham sartarosh bo'lib qoldimi? - Nu zachem, adajonisi, Gogik Monikaning sochini prichyoska qiladi''.

Birgina mazkur parcha ham tilimizning qanday hqvolga tushib qolganligi haqida muayyan tasavvur uyqotadi. Bu kabi nutqiy kamchiliklar mavjud ekan, ularni bartaraf etish nutqimiz madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammo sifatida kun tartibidagi eng muhim vazifalaridan bo'lib qolaveradi. Ko'rinadiki, fikr ifodalash jarayonida adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilish, nutqning aloqaviy sifatlariga putur etkazuvchi nuqsonlarni bartaraf etish, o'zbek tilida so'zlash va yozish madaniyatini har tomonlama taraqqiy ettirish, og'zaki va yozma nutqda uchraydigan har xil kamchiliklarga barham berish tilimizning milliy adabiy til sifatidagi nufuzini belgilab beruvchi ijtimoiy va siyosiy masala sifatida davlat ahamiyatiga egadir.

Xo'sh, nutq madaniyati deganda nimani tushunamiz? Tilshunoslikda bu tushunchaga ko'plab ta'riflar berilgan va haligacha o'zining mukammal izohini topmadi. Bu borada bildirilgan ta'riflarni bir maqrajga keltirib, aytishimiz mumkinki, tildagi mavjud birliklarining nutqiy vaziyat uchun eng kerakli, zarurini tanlay bilish, nutqning ifodali, ta'sirchan obrazli, qisqa, aniq, lo'nda, tushunarli bo'lishi, unda fikr takrori, ortiqchalikning bo'lmasligi, tinglovchi yoki o'quvchida ifodalanayotgan fikrga nisbatan ma'lum bir his-tuyqularning uyg'onishi - bularning hammasi yaxlit holda nutq madaniyati tushunchasida mujassamlashgan.

Demak, og'zaki va yozma nutq jarayonida tilda mavjud bo'lgan birliklarning to'g'ri kelganini emas, balki nutqiy vaziyat uchun mos bo'lgan ko'rinishini tanlab olib, qo'llash usullarini hamda tanlangan so'z va jumalarning adabiy til me'yorlariga qay darajada to'g'ri kelishi, shuningdek, ularning nutqda qanday vazifani bajarayotganligini nazorat va tahlil etish "nutq madaniyati"deb yuritiluvchi sohaning o'rganish ob'ekti va vazifasi hisoblanadi.

Nutq madaniyati degan tushuncha bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas. Uning paydo bo'lishi va shakllanishi olis davrlarga borib taqaladi. U til taraqqiyotiga bog'liq holat muntazam ravishda davrga moslashadi, o'zgarib turadi. U doimiy rivojlanishda bo'lgan mukammalashib boruvchi jarayon sifatida xalq ruhini o'zida aks ettiradi va milliy-ma'naviy

xususiyatlarni saqlab boradi. Insonning ma'naviy qiyofasini o'zida aks ettiruvchi bu jarayonga azal-azaldan har bir mamlakatda alohida jiddiy e'tibor berilganligi jahon xalqlari tarixidan ma'lum.

Manbalarda qayd etilishicha, bugungi kunga kelib alohida bir tarmoq sifatida tan olingan fanning bu sohasi paydo bo'lishi va shakllanishiga ko'ra qadimgi Rim va Afinaga bog'lansa, undan ham oldinroq qadimgi Misr, Assuriya, Vavilon va Hindistondan oziqlangan. Jahon xalqlari madaniyati tarixi haqida gap ketganda Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Demosfen, Esxil, Sitseron kabi o'nlab olimlar tilga olinsa, Sharq, Markaziy Osiyoda yyetishib chiqqan Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Farobiy, Alisher Navoiy kabi allomalar tomonidan yaratilgan asarlar jahon xalqlari madaniyatining umuminsoniy merosi ekanligi qayd etiladi.

Tarixda “so'z odobi”, “nutq odobi”, “til madaniyati” va keyinchalik “nutq madaniyati” degan nomda barharorlashgan ushbu soha muammolari doimo olimlar e'tiboridan tushmay kelayotir. O'tgan asr oxirgi choragidan bugungi kunga qadar nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan yirik hajmdagi “O'zbek tili stilistikasi” (Toshkent, 1983), “O'zbek nutqi madaniyati ocherklari” (Toshkent, 1988), “O'zbek nutqi madaniyati asoslari” (Toshkent, 1991.), “Nutq madaniyati va uslubiylati asoslari” (Toshkent, 1992.), “O'qituvchi nutqi madaniyati” (Toshkent, 2009) kabi qo'llanmalar, yuzlab ilmiy maqolalar to'plamlari, ilmiy-ommabop xarakterdagi maqolalar yaratildi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, o'tgan asrda o'zbek tilining qo'llanish imkoniyatlari ma'lum darajada cheklab qo'yilgan bo'lsa-da, uni rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Bu davrda o'zbek tilining vazifaviy –uslubiy imkoniyatlari keng tadqiq etildi. Olib borilgan kuzatishlar natijasi sifatida o'nlab doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Mamlakatimizda dastlab 1969 yildan boshlab Toshkentda va keyinchalik boshqa shaharlarda o'zbek nutqi madaniyatiga bag'ishlab o'tkazilgan bir qator respublika anjumanlarida alohida e'tibor haratildi bu sohaning yanada rivojlanishi uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilab olindi.

O'zbek tilshunos olimlari R.Qo'ng'urov, E.Begmatov va Yo. Tojievlar nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisaning tilning o'ziga xos jihatlari bilan aloqadorligidan kelib chiqib, uni til hodisasining nomi, aniq nutqiy ko'rinishning nomi, madaniy nutq haqida kishilar ongidagi aniq me'yoriy tasavvurlar nomi, tilshunoslikning o'rganish ob'ekti, ilmiy muammoning nomi, nutq madaniyati muammosi bilan shug'ullanadigan

tilshunoslik sohasining nomi sifatida talqin qiladilar. Tilshunoslikda nutq madaniyati tushunchasining aniq mohiyatini ochib beradigan puxta ta'rif bo'lmaganligi tufayli turli xil qarashlarni uchratamiz. Tilshunos olim U.Nosirovning ko'rsatishicha olimlar nutq madaniyatini bir tilda to'g'ri so'zlash va yozish, fikrni aniq va tushunarli ifodalash, tasviriy va obrazli vositalardan unumli, o'z o'rnida foydalana bilish, nutqning qishaligi, ixchamligi, aniqligi, milliyligi, nutqning sodda va barcha uchun tushunarli bo'lishi sifatida tushuntiradilar².

Yuqorida qayd etib o'tilgan ta'riflarning barchasi nutq madaniyati uchun xos. Ularning birortasini inkor qilib bo'lmaydi. Lekin shu o'rinda shuni qayd etish kerakki, olimlar nutq madaniyatiga ta'rif berishda nutqning u yoki bu xususiyatiga asoslanib, bir yoqlama fikr yuritadilar. Shuning uchun tilshunoslik hozirga qadar nutq madaniyati tushunchasining mohiyati, ta'rifi, tadqiqot ob'ekti masalasi o'z echimini topgan emas.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, nutq madaniyati sohasini rivojlantirish bo'yicha tilshunosligimiz oldida hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p.

Shu o'rinda yana bir masalaga oydinlik kiritib o'tishimiz lozim. Tilshunoslikda nutq madaniyatiga bag'ishlab yaratilgan ayrim ishlarda til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalari o'zaro farqlanmay, ularni aralash holda qo'llash hollari ham kuzatiladi. Vaholanki, ular orasida o'ziga xos farqlar mavjud. Til madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida ma'lum bir xalqning amalda bo'lgan, ko'pchilik tomonidan tan olingan adabiy tilini nazarda tutadi. Bunda til madaniyati shu tilning madaniylik uchun kurashi, taraqqiyot bosqichlari, shuningdek, o'rganilayotgan ma'lum bir davrdagi kamolot pog'onasini ham ko'rsatadi.

Nutq madaniyati sohasida esa ko'pchilik olimlar tomonidan tan olingan uch hodisa, ya'ni tildagi mavjud vositalarning madaniylik darajasi – til madaniyati, ikkinchidan, shu til birliklaridan adabiy til me'yorlariga mos holda nutq jarayonida foydalanish – so'zlash madaniyati, uchinchidan esa, mazkur hodisalarni tadqiq etuvchi tilshunoslikning maxsus bo'limi nomi farqlanishi lozim. Darsliklarda e'tirof etilishicha, til madaniyati tilning me'yorlashganlik darajasini, uning lug'at tarkibi, grammatik, semantik, stilistik jihatlaridan rivojlanganlik, boylik darajasini, ifoda imkoniyatlarining ko'lamdorligini bildiradi. Nutq madaniyati esa tildan bema'lol, maqsadga o'ta muvofiq va ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

² Nosirov U. Nutq madaniyati va davr. Nutq madaniyatiga oid masalalar. Toshkent: Fan, 1973, B.119-120.

Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potentsial mavjud bo'lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uyg'unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq tuza olish mahoratidir³.

Demak, nutq tilning amalda bo'lish shakli ekan, til madaniyati va nutq madaniyati o'zaro aloqador, biri ikkinchisini inkor qilmaydigan, birgalikda rivojlanadigan sohalar hisoblanadi.

Xuddi shuningdek fikrlarni “nutq odobi”, “so'z odobi” atamalari haqida ham bildirish mumkin. “So'z odobi” tushunchasiga nisbatan “nutq odobi” tushunchasi kengroq ma'noni ifoda etib, u fikr ifodalashning o'ziga xos bo'lgan hamma xususiyatlarini qamrab oladi. Shuning uchun “nutq odobi” atamasi kengroq qo'llaniladi.

Ma'lumki, qadimgi davrlardayoq tilga insonning xulqi, madanyatini ko'rsatuvchi belgi sifatida haraganlar. Inson faoliyatining hamma qirralari til bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun til birgina aloqa qilish vositasigina emas, balki odob, axloq ziynati ham hisoblangan. Ajdodlarimizning nutq odobi to'g'risidagi qarashlari, falsafiy mushoqadalari asrdan asrga o'tib puxtalanib, silliqlasha borgan, tildan foydalanib, o'z fikrlarini jozibador, go'zal tarzda ifodalash maxsus san'at darajasiga ko'tarilgan. Tildan foydalanishda qo'pol, beparda so'zlarni ishlatmaslik, manmanlik, g'iybat qilmaslik hamda yolg'on so'zlamaslik kabi bir qancha talablar qo'yilgan. Shuning uchun Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asarida “Erdam boshi til”, ya'ni odobning boshi tildir, deyilishi ham bejiz emas.

Nutq odobiga doir bildirilgan fikrlarni Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarlarida, shuningdek, Alisher Navoiyning deyarli hamma asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Insonni ma'naviy kamolga etkazish – komil inson qilib tarbiyalashga ajdodlarimiz ma'naviy merosining nodir xazinasini –mumtoz kitoblarda ham asosiy masala sifatida qaraladi. Shuning uchun insoniy g'oyalarini targ'ib etishga qaratilgan mumtoz adabiyotda so'z ulug'lanadi, barcha yaratilganlar ichidan eng ulug'i bo'lgan insonning so'zi, nutqi bilan bog'liq jihatlarga alohida e'tibor beriladi. Bu holatni Ahmad Yassaviy, Sulaymon Bog'rg'oniy, Mashrab singari shoirlar ijodida ham kuzatishimiz mumkin.

Demak, nutqiy tarbiya ma'naviy yetuk inson tarbiyasining asosi hisoblanadi. Bu tarbiyada kitob, oila, maktab va jamiyatning o'rni juda

³ Teshabaeva D.M., Kamalova M.N. Nutq madaniyati. Nofilologik o'quv yurtlari magistrantlari uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent.: Iqtisodiyot. 2018 yil, B.19.

katta. Bularning nutqiy tarbiyada tutgan o'rnini aniqlash bugungi kunda kishilik jamiyati oldida turgan muammolardan biridir. Birgina ta'lim sohasida nutq madaniyatining alohida fan sifatida o'qitilishi bilan ko'zlangan maqsadga erishish qiyin, albatta.

Bizningcha, nutqiy ko'nikma dastlab hosil bo'ladigan joy, ya'ni oilaga dastlabki e'tiborni haratish lozim. Bunda avvalo, oila a'zolaridan o'z nutqlarida adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishlari, boshqa tillarga oid til birliklarini keraksiz holda qo'llanmaslik, turli haqoratli, beparda so'zlardan qochish talab etiladi. Bunday tarbiya bolalar bog'chasiga ham tegishli bo'lib, u erda to'g'ri so'zlash, yolg'on gapirmaslik, ko'p gapirmaslik, o'ylab gapirish kabi nutq odobiga oid xususiyatlar bolalar ongiga singdirilishi lozim.

Kishining nutqi to'la shakllanib ulguradigan ikkinchi bosqich maktab ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, o'qituvchilik kasbining juda ma'suliyatli ekanligi seziladi. Bu davrda o'quvchi o'zbek tilining qonun – qoidalar bilan yaqindan tanishadi, adabiy til me'yorlari, milliy til adabiy til va shevalar, ular orasidagi farqlarni o'rganadi, badiiy adabiyot bilan yaqindan tanishadi. Bu davrda o'qituvchining zimmasiga katta vazifa yuklanib, avvalo, uning o'zi nutq madaniyatini egallagan bo'lishi lozim. Uning nutqi grammatik jihatdan to'g'ri, turli xil sheva unsurlaridan, varvarizmlardan xoli bo'lishi lozim. Bolalarga bo'hlang'ich sinflardayoq nutqning ikki shakli – og'zaki va yozma shakli haqida sodda tarzda tushuntirib berish yaxshi samara beradi. Bunda, birinchidan, dastlab bola to'g'ri talaffuz qilish va to'g'ri yozish orasidagi farqni tushunib oladi va yozganda xatolarga kam yo'l qo'yadi.

Shuning uchun o'qituvchi dastavval o'quvchi nutqidagi xatoliklarga barham berishga, uning nutqiy savodxonligi, og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirishga e'tiborini haratishi kerak. To'g'ri nutq qoidalarini yaxshi o'rganib olgan o'quvchining savodxonlik darajasi ham, nutqining rivojlanishi ham yaxshi bo'ladi. Ayniqsa, nutq o'stirishga qaratilgan tadbirlar, badiiy kechalarning tashkil qilinishi o'quvchini notiqlikning dastlabki bosqichlarini egallashiga ko'maklashadi.

Kishining til birliklaridan, tasviriy ifoda vositalaridan tushungan holda tanlab olib ishlatib, o'z nutqini jozibador, ta'sirchan, yoqimli tarzda shakllanishi uchinchi bosqich, ya'ni oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida kechadi. Bu o'quv yurtlarida o'quvchi yoki talaba madaniy nutqning mohiyati, qonun – qoidalar bilan tanishadi. Eng asosiysi, talaba kasb egasi bo'lib shakllanish barobarida kishilar bilan nutqiy muloqotga kirishishga, nutq madaniyati mezonlariga amal qilishga o'rganadi.

Ko'rinadiki, nutq madaniyati insonning nutqiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u barcha kasb egalarining, shu jumladan, shifokor nutqining ham adabiy til me'yorlariga mos kelish darajasini belgilovchi, tildagi me'yorlashtirish muammolarini ham qamrab oluvchi keng tushunchadir. Inson faoliyatining barcha sohalari bilan chambarchas aloqada bo'lgan shifokor nutqi madaniyatining boshqa fanlar bilan qay darajada aloqadorlikda ekanligini aniqlamay, ular orasida tutgan o'rnini belgilamay turib, bu sohaning rivoji, uning o'ziga xos qonuniyatlari to'g'risida so'zlab bo'lmaydi. Chunki sog'lom bo'lmagan insonning nutqi risoladagidek bo'lmashligi tabiiy. Inson nutqining talab darajasida bo'lishi uning qanday jamiyatda yashayotganligi, borliq, yon-atrofdagi kishilar bilan qay darajada munosabatga kirishishi, qanday kasb egasi ekanligi, sog'lig'i kabi bir qator jihatlar bilan bog'liqdir. Demak, til inson faoliyatining hamma sohasi bilan, shuningdek, tibbiyot bilan ham aloqada ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Jamiyat hayotining bardavomligi, inson jismoniy va nutqiy faoliyatining bir tekis, me'yoriy bo'lishi tibbiyot bilan bog'liq. Shunday ekan, insoniy munosabatlarning orasida til orqali amalga oshadigan aloqa eng muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham nutq madaniyati insoniyat tarixining deyarli hamma davrlarida o'ta dolzarb masalalaridan biri hisoblanib keldi.

Shifokor nutqi madaniyatining ham kengroq doirada tadqiq etilishi tilshunoslik fani uchun katta ahamiyatga ega. Shifokorning kasb madaniyati asosida u mansub bo'lgan jamoaning barcha a'zosi uchun birday tegishli bo'lgan umummilliy madaniyatning muhim qoidalari yotadi. Shifokorlik kasb madaniyati o'zida tibbiyotga xos mutaxassislik doirasida qo'llanuvchi andazalar qatorida ish jarayonida bemorlar va boshqa kishilar bilan munosabatlarda namoyon bo'luvchi chuqur bilimga egalik va me'yoriy va axloqiy sifatlarni qamrab oladi.

Madaniy fikrlar har bir xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlari asosi bo'lgan tilda o'z aksini topadi. Til shifokorning kasbiy faoliyatida uning shaxsiy layoqatini yuzaga chiqarish vositasi hisoblanadi. Shifokorning kasb madaniyati uning faoliyati ob'ekti bo'lgan tirik inson, uning hayoti va sog'ligi bo'lib, bu madaniyat o'zida bemor bilan bo'ladigan o'ziga xos muomala, ramzlar, an'ana va odatlarni qamrab oladi.

Shifokorning kasbiy madaniyati tuzilishiga ko'ra ko'p qirrali bo'lib, oiladan tortib davolash muassasasida hamkasblar bilan bo'ladigan muloqot, bemorlar bilan sodir bo'luvchi suhbatlarni o'z ichiga oladi hamda u maxsus kasbiy bilimlar, shifokorlikda asrlar davomida ardoqlab kelingan

ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy tushunchalar yig'indisini, mazkur sohaga taalluqli alohida o'ziga xos unsurlardan tashkil topadi.

Davolashda shifokorlik faoliyatining asosiy maqsadi nafaqat davolash, balki shifokor va bemor o'rtasidagi bir-birini tushunish hhamdir. Bu kasbiy madaniyatning mazkur turining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda shifokor kasbiy faoliyatining asosiy ob'ekti inson sog'ligi va hayoti hisoblanadi. Shifokorlik o'ta mas'uliyatli kasb. Og'ir ahvoldagi bemorning tuzalib, o'z oilasi bag'riga qaytishi davolovchining bilimiga, to'g'ri muolaja qilishiga bog'liq. Bu kasbning asosiy qoidasi bemor sog'ligi uchun qayg'urish bo'lib, bu uning davolashida emas, balki muomalasida, kasallangan kishi bilan lisoniy aloqaga kirishishida ham namoyon bo'ladi.

Shifokor va bemor o'rtasida yuzaga keluvchi muloqotda asosiy e'tibor shifokorning bemor uni to'liq tushunishini ta'minlashga qaratiladi va bu davolash hamda sog'liqni saqlashda zarur hisoblanadi. Buning uchun shifokordan o'z kasbida talab etiladigan va uning madaniyatini ko'rsatadigan omil - bemor bilan muloqotga kirishadigan tilni yuqori darajada bilishi talab etiladi. Shuning uchun shifokor kasbiy madaniyati asosida bir tomondan uning til birliklarini to'g'ri va o'rinli qo'llay olishi, ya'ni lisoniy layoqati va ikkinchi tomondan, shaxs madaniyati birligi yotadi. Bular ikkisi birgalikda tibbiyot sohasida ta'lim olish jarayonida talabalarning umumiy madaniyatini oshiradi, bo'lg'usi shifokorlarning tafakkur doiralarini kengaytirishga xizmat qiladi. Tibbiyot yo'nalishidagi yuqori kasbiy ta'limda nutq madaniyatini talabalarga puxta o'rgatish bo'lg'usi shifokorlarni tayyorlashning barcha bosqichlarida muhim o'rin tutadi.

Yirik tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning quyidagi fikrlari malakali mutaxassis kadrlarni, jumladan shifokorlarni ham tayyorlashda nutq madaniyati fanining muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi: "Jamiyatning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim. Ona tilining chinakam sohibi bo'lmoqning bosh sharti esa uning tunganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirishdan iborat. Zotan, nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir"⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda 5590-sonli «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan

⁴ Mahmudov N. Til. –Toshkent.: «Yozuvchi» nashriyoti, 1990.

takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturining 5-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2019 yilning 17 iyulida 161-sonli buyruqiga asosan, «Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi» tasdiqlandi.

Bu kodeksning 3 bobida “Tibbiyot xodimlari xushmuomala, odobli, e'tiborli, fuqoralar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo'lishi, ularni hurmat qilishi shart. Tibbiyot xodimlari o'z faoliyatida ularga bevosita murojaat qilgan har bir fuharoga nisbatan qo'pollik qilmasligi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi kerak.” deb, 7 bobda esa “Tibbiyot xodimi bemor harindoshlarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi va ularning ruhiy xolatini inobatga olgan holda muloqatda bo'lishi, bemorning sog'ligiga hamxo'rlik qilishga undashi, ularning shaxsiy hayoti ma'lumotlarining sir saqlanishiga bo'lgan huquqini hurmat qilishi lozim.” deb belgilab qo'yilgan. Bu ham bugungi kunda shifokor nutqi madaniyatiga e'tibor nechog'lik kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Yuqorida aytilganlardan nutq madaniyati tilshunoslikning maxsus bo'limi bo'lib, uning rivojlanishi va taraqqiy etishi adabiy til rivoji va taraqqiyoti bilan, uning me'yorlariga, uslubiy imkoniyatlari hamda qo'llanish qonuniyatlariga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi. Tilshunosligimizda bu sohani, xususan, shifokor nutqi madaniyati bilan bog'liq muammolarni o'rganish bo'yicha hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p bo'lib, bu sohani chuqur tadqiq etish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.



Tekshirish uchun savollar

Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz? “Til madaniyati”, “nutq madaniyati” tushunchalarini izohlang?

Muomala jarayonida qanday nutqiy kamchiliklar mavjud bo'ladi?

Nutq madaniyatini yuksaltirish bugungi kunda nima uchun umumilliy muammoga aylangan?

Ushbu kursning ob'ekti va vazifasi nimalardan iborat?

Adabiy til me'yorlari deganda nimani tushunasiz?

Til va nutq ma'daniyati qanaqa jarayon hisoblanadi?

O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati bilan shug'ullanuvchi qaysi olimlarni bilasiz?

O'zbek tilshunosligida shifokor nutqi madaniyatini oshirish bo'yicha qanday vazifalar turibdi?

Shifokor nutqi madaniyatini rivojlantirish uchun sizningcha, yana qanday ishlarni amalga oshirish lozim?

Adabiyotlar:

1.**Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B.** O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. -Toshkent: 1998.

2.**Iskandarova Sh.** O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –Samarqand.1993.-27 b.

3.**Yo'ldoshev M.** Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent: Fan, 2008. - 159 b.

4.**Karimov S.A.** O'zbek tilining badiiy uslubi, Samarqand, "Zarafshon" nashriyoti, 1992. – 140 b.

5.**Mahmudov N.** O'qituvchi nutq madaniyati.-Toshkent, 2009.-188 b.

6.**Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo.** Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, Toshkent, O'qituvchi, 1992. – 110 b.

7.**Qudratov T.** Nutq madaniyati asoslari. – T.: O'qituvchi, 1993.

NUTQ MADANIYATI TARIXIDAN

O'quv maqsadi

Talabalarning jahon notqlik san'ati, notqlik oldiga qo'yiladigan talablar, uning o'ziga xos mezonlari, madaniy nutq hosil bo'lishida notiqning til birliklaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

Asosiy ma'lumotlar

Ma'lumki, nutq madaniyati bevosita notqlik bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat azal-azaldan o'z fikrlarini tinglovchi yoki o'quvchiga etkazishda ifodali va ta'sirchan so'z va jumladan foydalanishga intilib keladi. Davrlar o'tishi bilan tildan foydalanish san'at darajasiga ko'tarildi va bu san'atning yorqin ko'rinishi bo'lgan notqlik yuzaga keldi. Kishilar o'zaro muloqot jarayonida tilning eng muhim ijtimoiy vazifalari o'z aksini topadi. So'zlovchi yoki yozuvchi aloqa jarayonida tildagi mavjud lisoniy vositalardan foydalanishda aniq bir kommunikativ maqsadni, ya'ni tinglovchi yoki o'quvchiga ma'lum bir voqea-hodisalar to'g'risida

O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati bilan shug'ullanuvchi qaysi olimlarni bilasiz?

O'zbek tilshunosligida shifokor nutqi madaniyatini oshirish bo'yicha qanday vazifalar turibdi?

Shifokor nutqi madaniyatini rivojlantirish uchun sizningcha, yana qanday ishlarni amalga oshirish lozim?

Adabiyotlar:

1. **Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B.** O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. -Toshkent: 1998.

2. **Iskandarova Sh.** O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –Samarqand.1993.-27 b.

3. **Yo'ldoshev M.** Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent: Fan, 2008. - 159 b.

4. **Karimov S.A.** O'zbek tilining badiiy uslubi, Samarqand, "Zarafshon" nashriyoti, 1992. – 140 b.

5. **Mahmudov N.** O'qituvchi nutq madaniyati.-Toshkent, 2009.-188 b.

6. **Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo.** Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, Toshkent, O'qituvchi, 1992. – 110 b.

7. **Qudratov T.** Nutq madaniyati asoslari. – T.: O'qituvchi, 1993.

NUTQ MADANIYATI TARIXIDAN

O'quv maqsadi

Talabalarning jahon notiqlik san'ati, notiqlik oldiga qo'yiladigan talablar, uning o'ziga xos mezonlari, madaniy nutq hosil bo'lishida notiqning til birliklaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

Asosiy ma'lumotlar

Ma'lumki, nutq madaniyati bevosita notiqlik bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat azal-azaldan o'z fikrlarini tinglovchi yoki o'quvchiga etkazishda ifodali va ta'sirchan so'z va jumladan foydalanishga intilib keladi. Davrlar o'tishi bilan tildan foydalanish san'at darajasiga ko'tarildi va bu san'atning yorqin ko'rinishi bo'lgan notiqlik yuzaga keldi. Kishilar o'zaro muloqot jarayonida tilning eng muhim ijtimoiy vazifalari o'z aksini topadi. So'zlovchi yoki yozuvchi aloqa jarayonida tildagi mavjud lisoniy vositalardan foydalanishda aniq bir kommunikativ maqsadni, ya'ni tinglovchi yoki o'quvchiga ma'lum bir voqea-hodisalar to'g'risida

axborot-resurs markazi

ma'lumot berish yoki olish, munosabat bildirish yoki fikr ifodalash orqali tinglovchi yoki o'quvchi ongiga, his-tuyqulariga ta'sir etishni ko'zda tutadi. Aynan mana shu maqsad nutqiy aloqa mundarijasini belgilab beradi.

Fikr ifodalashda nutqiy vaziyat uchun kerakli bo'lgan til birliklarini to'g'ri tanlay olgan va mahorat bilan qo'llab, uni san'at darajasiga ko'tara olgan kishilar azaldan notiq hisoblanadi. Shuning uchun falsafiy jihatdan kishining nutqiy mahoratini ko'rsatadigan notqlik va nutq madaniyati biri ikkinchisini taqozo etadigan, to'ldiradigan hamda o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. So'zlovchi yoki yozuvchining o'z fikrlarni tinglovchi yoki o'quvchiga etkazish jarayonida nutqiy vaziyat uchun mos keluvchi til birliklarini tanlay olishi hamda ularning ifodalanayotgan fikrlar g'oyaviy mazmuniga sindirib yuborishi nutq madaniyatining asosini tashkil qiladi. Shuning uchun kishining og'zaki yoki yozma savodxonlik darajasi, nutq madaniyatini qay darajada egallaganini kommunikatsiya jarayonida xususan, notqlikda o'z aksini topadi.

Tarixdan ma'lumki, notqlik insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida ham so'z san'ati sifatida birday e'zozlangan va hozirjavob, chechan, gapga usta kishilar alohida hurmatga sazovor bo'lganlar. Shu o'rinda jahon madaniyati tarixida notqlik san'atining tutgan o'rni haqida qisqacha to'xtalib o'tishimiz lozim.

Notqlikka eng qadimgi san'atning nutq orqali amalga oshadigan turlaridan biri sifatida dastlab Misr, Assuriya, Vavilon kabi davlatlarda ta'mal toshi qo'yilgan bo'lsa-da, u asosan Yunonistonda taraqqiy qildi. qadimda notqlik san'atining ilk ko'rinishlari dastlab Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'ldi. Keyinchalik esa qadimgi Yunoniston va Rimda notqlik, nutq madaniyati birmuncha taraqqiy etib, mamlakatning ichki va tashqi siyosatida muhim o'rin tutuvchi nazariya sifatida takomillashdi. qadimgi davrda Misr, Vavilon va Hindiston kabi davlatlarda tildan foydalanishga alohida e'tibor berganlar. Ular tilga insonning kamolot darajasini ko'rsatuvchi belgi, qolaversa, tinglovchilarni ishontirish vositasi sifatida munosabatda bo'lganlar. Keyinchalik esa arablar o'zlari kiyadigan kiyimlarni ham fikrni ifodalash usuli – uslubiga mos tarzda tushunadigan bo'lganligi tarixdan ma'lum. Notqlik san'atining inson ma'naviy kamolotini belgilovchi tur sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi to'g'ridan- to'g'ri qadimgi Yunoniston bilan bog'liq.

Qadimgi Yunonistonda kishilik jamiyatida ilk marotaba notiqlik sana'tining ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutishi asoslanib, uning nazariy masalalari, fikr ifodalashning o'ziga xos kommunikativ strukturasi, talab va mezonlari ishlab chiqildi. Manbalardan ma'lumki, qadimgi Yunonistonda notiqlik san'ati rivoji bevosita o'sha davrda hukm surgan quldorlik tuzumi, quldorlik demokratiyasi bilan bog'liqdir. Bu davrda qadimgi Afina boshqa quldorlik tuzumiga asoslangan davlatlar o'rtasidagi sinfiy ziddiyatning kuchayishi o'z ijtimoiy, sinfiy manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy notiqqlarning yetishib chiqishiga zamin yaratdi. Afina tarixida ma'lum o'rin tutuvchi tarixiy shaxslarning mamlakat hayotidagi siyosiy mavqei, davlat ijtimoiy sistemasida tutgan o'rni, davlat yalpi daromadidan oladigan ulushi bevosita ularning notiqlik mahoratiga, o'z sinfiy manfaatlarini davlat boshharuvida siyosiy oppozitsiyada turuvchi boshqa ijtimoiy guruqlar oldida qay darajada himoya qilishiga bog'liq edi. Ijtimoiy muhit, mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat notiqlikning bir qator turlari rivoji uchun imkoniyat yaratdi.

Bu davrda mamlakat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar siyosiy notiqlik bilan bir qatorda Yunon sud rasmiyatchiligi asosida yuzaga kelgan sud notiqligining ham shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Yunonistonning savdo davlati ekanligi, juda katta hududda joylashgan qo'shni davlatlar o'rtasida savdo bilan bog'liq masalalar echimini topishida gapga chechan huquqshunoslarga bo'lgan ehtiyoj siyosiy notiqlik qatori hayotning maishiy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan notiqlikning bir qator ko'rinishlarini vujudga keltirdi. Umuman olganda, Gretsiyada kishining gapga chechanligi, davralarda o'z fikrini silliq va ifodali tarzda tinglovchilar etkaza olish mahorati yuqori baholanar va qadrlanar edi. Shu bois yunonlar turli siyosiy davrlarda notiqqlar tomonidan ifodalangan faqat chiroyli nutqningina e'tirof etish bilan cheklanmay, uning mazmundorligiga ham alohida e'tibor qaratar edilar. Shu tufayli ular kishilarga notiqlik san'atini o'qitishni, o'rgatishni birdan bir vazifa deb bilardilar. Gretsiyada maxsus maktablar tashkil etilib ularda tajribali notiqqlar yoshlarga nutq so'zlash malakasini egallash bo'yicha dars berardilar. Gretsiyada notiqlik san'ati nazariyasi – ritorika yaratildi va bir qator taniqli notiqqlar paydo bo'ldiki, ularning tajribasi hozirga qadar ham o'rganilib kelinmoqda⁵.

Qadimgi Hindistonda nutq madaniyati rivoji bevosita “Mahobxorat”, “Ramayana” kabi afsonaviy dostonlar bilan bog'liqdir. Bu dostonlarda komil insonga xos xususiyatlar nihoyatda ulug'langan. Shuningdek,

⁵ O'rinboev B., Soliev A. Notiqlik mahorati. O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'qituvchi, 1984. –B

qadimgi vedalar davr o'tishi bilan tushunilishi qiyinlasha borgan. Natijada ularning tilini sodda tarzda tushunish va tushuntirish uchun lug'atlar tuzishgan, qiyin so'zlar izohini berishga, shuningdek, vedalar tili va uslubini tadqiq etishga ehtiyoj kuchaygan. Bu esa o'z navbatida hind notiqlik san'ati rivoji uchun sezilarli turtki bo'lgan. Bu izlanishlar samarasi o'laroq hind tilshunosligida bir qator asarlar yaratilgan.

Qadimgi Yunonistonda kishining notiqlik bilimlariga ega bo'lishi siyosiy ahamiyatiga ega bo'lgan. Mamlakatda quldorlik tuzumining hukm surishi o'z navbatida siyosiy notiqlikning rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Notiqlik sirlarini bilish birgina davlar raqbari, xalq etakchisidan tashqari bo'lgan kishilarga ham shart bo'lgan. Bu o'sha davrda sud notiqligining katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Chunki har bir kishi sud oldida o'zini chiroyli nutqi bilan himoya qilishi lozim bo'lgan. Bundan tashqari, yuqori doiralarga xizmat qiluvchi notiqalar ham bo'lgan. Ular asosan, tantanali yig'ilishlarda, turli rasmiy kechalarda davlatning yuqori tabaqa vakllarini madh etish bilan shug'ullanganlar. Natijada esa maqtov notiqligi ham vujudga kelgan. Davr talabi va hayotiy ehtiyoj bu davrda bir qator jahonga taniqli bo'lgan notiqalarni yetishtirib chiqargan. Bu haqidagi dastlabki ma'lumotlar homerning "Illiada" va "Odessiya" asarlari orqali yetib kelgan. Bu asarlarni o'rgangan Rim notiqi Kvintilian ta'sirchan, sodda va go'zal fikr ifodalash imkoniyatlari kengligiga shohid bo'ldi. U bu asarlarda fikr ifodalashda og'zaki nutq san'atining roli katta ekanligini va nutqning mukammal bo'lishini ta'minlovchi soddalik, aniqlik, ifodalilik kabi xususiyatlar notiq nutqining bezagi ekanligini e'tirof etadi.

Yunoniston tarixidagi buyuk siymolardan biri Demosfendir. Sudda o'zini himoya qiluvchi sud notig'i darajasidan katta siyosiy notiq darajasiga ko'tarilgan Demosfen o'z ustida tinimsiz mashq olib borgan. Past ovozi va titrab turadigan kiftini tuzatish uchun u og'ziga tosh solish, kiftiga qilich tirab turish kabi mashqlar bilan o'z jismoniy kamchiliklarini bartaraf etgan.

Uning nutqi siyosiy harakterga ega bo'lib, vaziyatga mos holda o'zgara borgan. Uning nutqlari auditoriyaga mos holda sodda, tushunarli, oddiy, tantanavor, jiddiy, aniq bo'lgan. U xalq orasida chuqur hurmat-e'tibor qozongan.

Demosfendan keyingi davr notiqligi Aristotel nomi bilan bog'liq. U o'zining notiqlik san'atiga bag'ishlangan "Ritorika" nomli asarida bu san'atning nozik jihatlari haqida fikr yuritadi. U avvalombor, notiqning o'z nutqini to'g'ri shakllantira bilishi, aniqligiga e'tibor beradi. Uning fikricha,

agar nutq aniq bo'lmasa, notiq o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmaydi. U, shuningdek, nutq jarayonida til birliklaridan, ifoda tasvir vositalaridan me'yorida ortiq foydalanishni qoralaydi. U o'z asarida bu san'atning asosini tashkil qiluvchi besh jihatga, ya'ni notiq tomonidan materialning o'zini xotirlab, nutq qurilishiga e'tibor berish, o'rganishga, so'z bilan ifodalashga, tasavvur qilish orqali talaffuz qilishga alohida e'tibor beradi.

Qadimgi Rimda yetishib chiqqan mashhur notiqlardan biri Sitserondir. Uning turli mazmundagi 58 ta nutqi, notqlik san'ati, siyosat va falsafaga bag'ishlangan 19 ta asari va 800 dan ziyod maktublari hozirga qadar saqlanib qolgan. Tsitseronning notqlik san'ati borasidagi faoliyatini o'rgangan tilshunos olimlar B. O'rinboev va A.Soliev uning quyidagi xususiyatlariga alohida e'tibor berganligini ta'kidlaydilar:

1. Notiqning o'ziga ishonchi mustaqkam bo'lishi kerak. Buning uchun esa notiq o'z nutqida olqa suriladigan fikrga to'la ishonch hosil qilish lozim.

2. Nutq to'liq isbotli dalillarga ega bo'lishi kerak.

3. Materialni to'plash nutqqa tayyorgarlikning asosidir.

4. Materialni to'g'ri joylashtirish – ekspozitsiyaga alohida e'tibor berish lozim. Joylashtirish shunday bo'lsinki, u materialni butunlay o'zlashtirib olishga yengillik yaratsin. Buning uchun esa nutqni aniq qismlarga bo'lish lozim.

5. Har qanday sohada ham nutqning muvaffaqiyatini bilish hal etadi. Agar notiq o'z nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilmasa, u qanchalik san'atkor bo'lmasin, o'z tinglovchisini jalb etolmaydi.

Tsitseron nutqning tuzilishiga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, har bir nutq talabga javob berarli darajada qurilgandagina yaxshi natija beradi. Sitseron tomonidan ishlab chiqilgan notqlik nutqi kompozitsiyasi quyidagicha bo'lgan:

1. Kirish.

2. Ishning mohiyatini bayon qilish.

3. Planning keyingi qismlarini ifodalash.

4. Dalillar (nutqning eng muhim qismi).

5. Asosiy mazmunni ta'kidlash.

6. Xulosa (yakun yasash)⁶.

Jahon ritorikasi tarixida tan olingan buyuk notiq Sitseronning harbiy sarkardalik va notqlikni insonni oliy darajaga ko'taruvchi san'at deb

⁶ O'rinboev B., Soliev A.. Notqlik mahorati. Toshkent: O'qituvchi, 1984. B.

baholashi ham notiqlikning o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotida nechog'lik muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi. Yunoniston tarixida Perikl, Demosfen, Sitseron, Lisiy kabi notiqlar siyosiy va sud notiqligining rivojlanishiga, ilmiy-nazariy tamoyillarining ishlab chiqilishiga munosib hissa qo'shdilar. O'sha davrning mashhur notiqalaridan bo'lgan Arastu o'zining "Ritorika" asarida notiqlik san'ati nazariyasi tamoyillarini ishlab chiqdi. U bu asarda notiqlikda amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillarni belgilab berdi, notiq uchun lozim hisoblangan qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarni ko'rsatdi hamda fikr ifodalash jarayonida qo'llaniladigan nutq texnikasi va usullarini belgilab berdi. Bu borada erishilgan yutuqlar notiqlik san'atining nafaqat Yunonistonda balki keyinchalik butun Evropa mamlakatlarida taraqqiy etishi va nazariy asoslarining ishlab chiqilishiga zamin yaratdi.

Nomlari yuqorida qayd etib o'tilgan allomalarning nutq madaniyati, notiqlik san'ati to'g'risidagi qarashlari o'sha davrda jahon madaniyati taraqqiyotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatib, Evropada nutq madaniyatining alohida fan sifatida vujudga kelishi uchun asos bo'ladi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida nutq madaniyatining o'ziga xos o'rni bor. Bu yurtida notiqlikning rivojlanishi va taraqqiy etishida ma'rifiy-irfoniy g'oyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, insonga nutq eng oliy tuhfa sifatida berilgan. Undan foydalanishdan esa u juda ehtiyotkor bo'lmoqligi, komil inson oldiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib foydalanmog'i kerak.

Yurtimizda yetishib chiqqan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abdulloh al Xorazmiy, Mahmud Koshhariy, Yusuf Xos Hojib, Zamaxshariy, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar ijodida ham nutq madaniyatiga oid qimmatli fikrlar mavjud. Notiqlik Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mazkur tarixning ajralmas qismi hisoblanadi. O'tmish Sharq notiqligi, ajdodlarimizning nutq odobi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida gapirganda uni Evropa xalqlari notiqligidan ajratib turadigan o'ziga xos belgi va xususiyatlari mavjudligini qayd etish kerak. Ma'lumki, qadimgi Yunoniston va Rimda, umuman Evropa notiqligida ma'lum bir siyosiy maqsad, ijtimoiy mavqe, davlat bosqaruviga intilish maqsadlari yotadi. Sharq notiqligi esa ulardan farqli ravishda diniy qobiqqa o'ralganligi, qur'on g'oyalari va Payhambar ko'rsatmalarini amaliy hayotga tadbiiq etishga qaratilganligi bilan ulardan farqlanib turadi. O'tmish Sharq notiqligining nazariy asoslari "Abvobul jinon" kitobi

muallifi Voiz Muhammad Vafil, “Zilolu maqol” muallifi Voiz Qazviniiy, “Aqsanulaqodis” muallifi Voiz Shirvoniiy, “Hidoyatul takvil” muallifi Muhammad Bobir Binniiy Muhammad Voiz, “Anisud voizin” muallifi Mullo Kalon Voiz Samarqandiiy, “Miftahun najjox” muallifi qozi O'shiylar tomonidan ishlab chiqilgan. Bundan tashqari notiqlik rivojiga Bahovuddin Valad, Jaloliddin Rumiiy, Abulfayz Zunnun, Shiblii, Ro'zbehon Nisaviiy, Sheroziy, Mavlano Irshod, Ibroqim Balxiy, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Muin Voiz, Xorazmiy, Farqoniiy, Farobiiy, Ibn Sino, Beruniiy, Koshg'ariy, Jomiiy, Navoiy kabi ulug' siymolar ham munosib hissa qo'shganlar.

Nutq madaniyati, inson nutqini kamol toptirish masalasi nafaqat tilshunoslik ilmining balki adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, mantiq, axloqshunoslik, nafosatshunoslik fanlarining ham tadqiq mundarijasida turuvchi asosiy mavzulardan hisoblanadi. Shu bois unga ham ruhiy, ham estetik hodisa sifatida qaraladi. O'tmishda nutq madaniyatiga yaratilgan asarlarda fikr ifodalashda notiq oldiga qo'yiladigan mezonlar ishlab chiqilgan. Bu mezonlarni belgilashda xalqning asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlari, og'zaki va yozma nutqda so'zlovchi yoki yozuvchi maqsadining nutq qaratilgan shaxsga yetib borishida nutqiy vaziyat, tinglovchi yoki o'quvchining yoshi, jinsi, jamiyatda egallab turgan mavqei, oilaviy yaqinligi kabilar ham hisobga olingan. Ajdodlarimiz asarlarida qayd etilgan mazkur mezonlar nutqning grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishini, so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan tanlangan so'zlarning fikr ifodalash uchun lozim bo'lgan ma'noni aniq ifodalashi, ifodali, mantiqiy bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan. Ular tomonidan belgilab berilgan qoidalar bugungi kunda ta'lim tizimida o'qitilayotgan “Nutq madaniyati” fanida nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi. Markaziy Osiyo ilmiy madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan mashhur mutafakkir Abu Nasr Farobiiy o'zining qator asarlarida notiqlikka oid kuzatishlarida nutq va aql tarbiyasiga e'tibor haratadi, fikr ifodalashda til haqidagi ilmlar, grammatika qatori mantiqning roliga alohida ahamiyat beradi. U bu haqida shunday yozadi: “Uchinchi ilm mantiq (logika)dir: ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarimizni bilib olamiz hamda nima to'g'ri nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz”⁷. Farobiiy notiqlikka axloqli kishilarning muhim sifatlaridan biri deb qaraydi va “so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon

⁷ Abu Nasr Farobiiy. Risolalar.-Toshkent: Fan, 1975.

va ravshan bayon eta olsin”, deydi⁸. Farobiyning o'z faoliyati davomida yunon falsafasi va ilmi bilan shug'ullanganligi hamda yunon olimlarining asarlariga sharqlar yozganligi xalqlar o'rtasidagi ilmiy aloqalarning mavjudligi qadimgi davrlarga borib taqalishidan, o'zaro ta'sir kuchli bo'lganligidan dalolat beradi. Abu Nasr Farobiy inson nutqining to'g'ri va ta'sirchan, ifodali va mantiqiylikida aqlning rolini ustun qo'yadi. U insonning nutq ifodalash jarayonida boshqalar bilan munosabatga kirishishda o'zini tutishi, muloqot samaradorligi nimalarga bog'liqligida asosan, til haqidagi ilmlar, grammatik va mantiq fanlarining o'zaro kuchli bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi. Uning fikricha, inson fikri mukammalligi asosida ana shu bog'liqlik yotadi.

Shunisi xarakterliki, o'tmishda madaniyatimiz va ma'naviyatimiz taraqqiyotiga, ilm-fan rivojiga o'z hissasini qo'shgan har bir alloma o'z navbatida nutq madaniyati, notiqlik oldiga qo'yiladigan talablar to'g'risida ham fikr yuritib o'tgan. O'rta asrlar Sharqining yana bir mutafakkiri Abu Ali ibn Sino(980-1037) ning axloqiy qarashlarini tadqiq etgan M.Barotovning ko'rsatishicha, alloma notiqlik mezonlarini quyidagicha belgilaydi:

- 1.Nasihat qo'pol ohangda berilishi kerak emas;
- 2.Suhbatdoshning ilm darajasini hisobga olish zarur;
- 3.Nasihatga (va'zxonlikka) ko'p berilmaslik kerak, uni o'rtoqlik suhbatida olib borish kerak;
- 4.Nasihatni muloyim ohangda, yolg'iz olib borish kerak;
- 5.Ta'na qilmoqchi bo'lsang, boshqalar kamchiligi bilan qiyoslab ta'na qil;
- 6.Agar o'z e'tiqodingga aytmoqchi bo'lsang, faqat bir faktga tayanma, balki ko'p masalalar bilan isbotla, suhbatdoshingni buni yuragiga yaqin olishga, shu narsa haqida o'ylashga va haqiqatni izlashga ishontir;
- 7.Agar suhbatdoshing sening gaplaringga e'tibor bilan quloq solayotgan bo'lsa, suhbatni oxirigacha davom ettir va qech nimani sir saqlama, lekin uning e'tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga bur.

Notiqlik san'ati tarixida buyuk alloma Kaykovusning “Qobusnoma” asari ham muhim o'rin tutadi. U bu asarida notiqqa nasihat tarzida bir qator fikrlarni bayon qiladi:

Kishi suxandon, suxango'y (notiq) bo'lishi kerak, ammo ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin duro'qgo'y (yolg'onchi) bo'lmagil. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozongil, yokim biror vaqt zarurat yuzidan

⁸ O'sha joyda

yolg'on so'z desang, qabul qilg'aylar. har so'z desang ham, rost degil va lekin yolg'onga o'xshagan rostni demagilkim, rostga o'xshagan duro'q duro'qqa o'xshagan rostdin yaxshidir, nedingkim ul duro'q ma'qul bo'lar, ammo ul rost bo'lmas... Suxango'y shu kishi bolgayki, u har so'zini desa, xalqqa ma'qul bo'lg'ay... Bilmag'on ilmdin dam urmag'il va undin non talab qilmag'il... Gar so'z demoqchi bo'lsang, shunday so'z degilki, so'zingning rostlig'iga guvohlik bersinlar... har so'zni andisha bilan boqlamaqil, toki aytqon so'zingdin pushaymon bo'lmag'aysan... Sovuq so'zlik bo'laqil. Sovuq so'z bir tuxumdir, undin dushmandlik hosil bo'lur... Ko'p bilib, oz so'zlag'il va kam bilib ko'p so'z demag'il. Nima uchunki aqlsiz shundoq kishi bo'ladur – u ko'p so'zlar⁹.

Insoniyat o'z tarixi davomida tildan foydalanishda hamda u vositasida badiiy ijod namunalarini yaratishga alohida san'at sifatida munosabatda bo'lganlar. Darhaqiqat, badiiy matn ma'lum bir xalqning til boyligini, uning ma'naviy-axloqiy tomonlarini, turmush darajasini, urf-odatlarini, qadriyatlarini to'g'risida ma'lumot beradi. O'quvchi badiiy matn mutola qilish orqali ma'lum bir ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bunda badiiy matn nafaqat ma'lumot etkazish bilan chegaralanadi, balki o'quvchi ongiga ta'sir etib, tildan foydalanish haqida muayyan ma'lumotlardan xabardor qiladi, uni turli xil ruhiy holatlarga soladi. Badiiy matnning ta'sirchanlik kuchi nafaqat unda qo'llanilgan lisoniy vositalarning anglatgan ma'nosiga, balki muallifning fikr ifodalash uslubiga ham bog'liqdir.

Tilning fazilati, foyda-zararlari haqida Yusuf Xos Hojibning “Qutadqu bilig” asarida ham qimmatli fikrlar bor. Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz:

Tildan foydalanishda ehtiyotkorlik haqida:

So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,

Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin...

Sening o'zing insonlik tilasang,

Tilingdan yaroqsiz so'zingni chiqarma...

Bilib so'zlasa, so'z donolik sanaladi,

Nodoning so'zi o'z boshini eydi...

Shoirning fikricha, tildan o'rinli foydalanish donolik belgisi hisoblanadi, so'zlarni noto'g'ri qo'llash esa uning hayotini xavf ostida qoldirishi ham mumkin. Shuning uchun ham so'zlarda ko'p ma'noni ifodalashga chaqiradi:

Sen o'zingga esonlik tilasang,

Tilingdan yaroqsiz so'zingni chiqarma.

⁹ Kaykovus.Qobusnoma.Toshkent: Istiqlol,1994.B.35-40.

Bilib so'zlagan so'z donolik sanaladi,
Nodoning so'zi o'z boshini eydi.
So'zni ko'p so'zlama, bir oz ozroq so'zla,
Tuman ming so'z tugunin bir so'zda ko'zla.
Ko'p so'zlashning zarari to'g'risida:
Ko'pni ko'p so'zlama, bir ozroq so'zla,
Tuman ming so'z tugunini (ya'ni jumbog'ini)
shu bir so'zda ech...

Kishi so'z tufayli ko'tariladi, malik bo'ladi,
Ko'p so'z boshni yerga egadi...

qisqa so'zlash to'g'risida:

Tilingni nihoyatda ehtiyot qilg'il, bosh saqlanadi,
So'zingni qisqa qilgin, yoshing uzaytiriladi.

yoki

Ko'p so'zlab kishi dono bo'lmaydi,
Ko'p eshitib, dono barchaga bosh bo'ladi.

“Qutadqu bilig” asari inson ma'naviyati bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi. Asarda insonning qadri, el orasida topgan obro'si uning nutqiga bog'liq ekanligi, muomalaning qudrati inson bilimi bilan ham belgilanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Yaxshi so'zlarni so'zlash haqida:

ikki narsa tufayli qarimaydi, Biri — ezgu xulqi, biri — ezgu so'zi.
Mendan senga kumush, oltin qolsa, Ularni sen bu so'zga teng tutmagil.

To'g'ri so'zlik haqida:

Ko'ngil va tilni to'g'ri tut, ey bilog'on dono, O'z vaqtida sening rizqing kamaymaydi. O'zing bu dunyoda boylik istasang, To'g'ri bo'l, so'zlaringni to'g'ri tut.

Sir saqlash, behuda so'zlamaslik haqida:

Sinalgan, tanilgan kishini mahkam tut. Undan senga tuman ming manfaat tegadi. har qanaqa so'zni ham tingla, lekin ishonma. Ko'nglingdagini ochma, qattiq va mahkam tut.

Kerakli so'zni qo'llash haqida:

Hamma so'zni yiqsa, aql sig'dira olmaydi.

Kerak so'zini so'zlaydi, kishi (ni) yashirmaydi.

Yusuf Xos Hojib tildan foydalanishda axloqiy mezonlarga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi. U kishining to'g'ri so'zlashi bevosita odob-hayo bilan bog'liqligini quyidagicha yozadi:

Uyatli kishi odamlarning sarasidir,
Uyatsiz kishi — kishilarning tubani,

Uyatsiz tili to'g'ri so'z so'zlamaydi.

Uyatsiz kishidan yiroq tur, yiroq,

Uyatsizning ko'zi qattiq bo'ladi.

Or-nomussiz kishining yuzi go'shtsiz so'ngakdir,

Or-nomussiz kishining o'zi bitmas marazdir.

Shoirning fikricha, insonning madaniyatli ekanligi, baxtli bo'lishi bir qator axloqiy xususiyatlarga bog'liq. Xushmuomalalik – insonlar bilan munosabatga kirishishda so'zlovchi nutqiy vaziyatga mos keladigan so'z va jummalarni topa bilishi, shirinso'z, chiroyli muomalali bo'lish demakdir. Bunday fazilatga ega bo'lish kishini madaniyatli va chiroyli xulqqa ega ekanligidan dalolat beradi. Buning uchun kishi rostlik, sharmu hayo hamda go'zal xulqlarni egallashi kerak:

Sharm-hayo hamma yaramas ishlardan tiyadi, Uyatsizlik kishi uchun juda yaramas illatdir. Rostlik, sharmu hayo hamda go'zal xulq, Uchalasi biriksa, bu sevinch demakdir. Yana biri — soflik va rostfe'llik, bo'lar, Ikki olamda kishini baxtiyor qiladi.

Nutq madaniyatida notiq oldiga qo'yiladigan talablar Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" asarida ham bayon qilingan. Asarning ikkinchi bo'limi "Tilni tiyish va axloq-odob haqida" deb nomlangan. Asarda nutq oldiga qo'yiladigan talablar faqat Yugnakiy asarlarida emas, balki butun Sharq allomalari asarlarida ham uchrashi ularning notiqlik mezonini sifatida qat'iy lashib ulgurganligidan dalolat beradi.

O'ylab gapirish haqida:

Oqil nimalarni so'zlar, quloq sol,

Odob boshi tildan, shuni bilib ol.

Tilingni nojo'ya so'zdan mahkam tut,

Tishlaring sinmasin, so'kishni unut.

O'ylab so'zlaganning so'zi to'g'ridur,

O'rinsiz so'z go'yo bosgan cho'qdirur.

Ezmalik qilmaslik haqida:

Ezma bo'lma, ne aytmas suyaksiz til,

Achchiq tiling bir kun boshing eydi, bil.

Xushmuomalalik haqida:

Tili achchiq, aqli etuk bo'lurmuq

Yo'qsa, til zahridan odam o'lurmuq

Kishini o'chashtirma,.. tilini bil,

O'q yarasi bitar, bitmas yara dil.

Tilni tiyish haqida:

Axmoq kishi tili o'ziga dushman,

Til tufayli suv kabi to'kildi qon.
Ko'p so'zlab qanchalar ko'pdur o'kingan,
Til tiyib o'ksuk qani, yo so'kingan?

yoki

Agar boshga tushsa nima ko'rgulik,
Tildan tushgandir, deb, kerak so'rgulik.
Kimlar xor bo'ldilar, qarg'ishga qoldi,
Kimlar ulug' bo'ldi, olqishlar oldi.

Tilni tiyish haqida:

Barchaga teng aytdik, nasihat budir,
Tilin tiygan kishi, oqil ham shudir
Tilni tiyib, so'zni oz qilgan kishi,
O'zi ham saqlanur, avj olur ishi.

To'g'ri so'zlash haqida:

Bir kishida ikki holat yuz bersa,
Unga muruvvatning yo'li berk ersa.
Ilk bor keraksiz so'z aytsa, yuz bursa,
So'ng yolg'on aytsa-da, qaytmayin tursa.
Yolg'onchi kishidan o'zni uzoq tut,
Umring barakotin to'g'rilikdan kut.
Odamimiz, bu tilning bezagi so'zdir,
So'zni to'g'ri aytgil, rostlikni sezdir.

Rost gapirish haqida:

To'g'ri so'z asaldur, sen asal egil,
Yolg'on so'z aytmayman, sarimsoq, degil.
Yolg'on so'z kasallik, tashvish keltirur,
To'g'ri so'z shifodur, darding ketirur.
Xaloyiq, haq, deya boshga ko'tarur,
To'g'ri so'zlaganlar bosh egmay o'tur.
To'g'rilik to'nin kiy, egrilik qilma,
Tozasi rostlik, hazil, deb bilma.

Sir saqlash haqida:

Siringni mahkam tut, birov bilmasin,
So'zingdan o'zingga o'kinch kelmasin.
Yashirgan ishlaring oshkora bo'lib,
Ko'rgan-eshitganlar senga kulmasin.
Qanchalik ishonchli bo'lsa ham do'sting,
Ishonib sir aytma, ochur kam-ko'sting.

Sirlaring o'zingda singib turmagach,
Do'sting ham saqlamas, qadri bo'lmagach¹⁰.

Xuddi shunday fikrlarni Abul qosim Mahmud az Zamaxshariyning asarlarida ham uchratamiz. Uning mashhur asarlaridan biri - "Nozik iboralar" da nutq madaniyatiga oid quyidagi fikrlar uchraydi:

O'z birodaringni yanchilgan mushkdan ko'ra ham xushbo'y so'zlar bilan maqtab yod et, garchand u sendan uzoq shaharda bo'lsa ham.

O'z birodaring so'zini sukut saqlab tinglab, uning hurmatini o'rniga qo'y, garchi uni eshitishga rag'batning va mayling yo'q bo'lsa ham.

Agar tilingni ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan.

Aqlli, g'ofil kishining (sukut saqlab) jim turish holati johil, parishon kishining uzridan afzaldir.

Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni pandu nasihatning va mav'izayu qasanang) ba'zan qo'lingdan (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko'ra xayrliroqdir.

Ko'pincha til bilan etkazilgan jarohat tiq bilan etkazilgan jarohatdan og'irroqdir.

O'zi sazovor bo'lmagan hamda sanoyu maqtovlarni talab qilish uyatsiz, telba odamlarning odatlaridandir.

Seni kasodu inkisorga uchrashdan ogoh qiluvchi kishiga lutf bilan muomalada bo'l, qo'rqma, zarari yo'q, ziyoni yo'q, deb yupatuvchilardan uzoqroqda bo'l.

Agar birovni ayblab xitob qilmoqchi bo'lsang, zinhor yozma tariqada (qog'oz, xat bilan) qil, chunki birov-birovga qarshi bo'lib, ayblash kam aqllilar va telbalar ishidir, shuningdek, bu holda ko'ngilni siyoq qilishga sabab bo'lguvchi so'zlar hisobsiz aytilishi muharrar, ammo xat yozilganda esa, emin-erkin o'ylab, fikr-mulohaza bilan yoziladi.

Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshituvchini ranjitar.

Tiliyu dili to'g'ri va haqgo'y bo'lgan odamning xatoyu nuqsoni kam bo'lur.

Ey bo'tam, tilagim yomon so'zlardan saqlan.

Alisher Navoiy ijodida ham nutq odobi to'g'risida g'oyat qimmatli fikrlar ko'p. Alisher Navoiy so'zining qadrini juda ulug'laydi va har bir holatda ham so'zdan foydalanishida ehtiyot bo'lishiga chaqiradi.

Alisher Navoiyning deyarli har bir asarida nutq madaniyatiga oid fikrlarni uchratish mumkin. Uning bu boradagi bebaho fikrlarini o'zbek tilining nozik imkoniyatlarini ko'rsatishga bag'ishlangan "Muhokamatul-

¹⁰ Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq www.ziyouz.com kutubxonasi.

lug'atayn" nomli asarida uchramiz. "Xamsa", "Munshaot", "Majolis un-nafois" kabi asarlarida esa so'z qo'llash bilan bog'liq fikrlar bayon qilingan.

Alisher Navoiy "Xamsa"ning birinchi dostoni bo'lgan "Hayratul-abror"ning 14-bobini "Odamzod vujudi osmonning jahon yoritar yulduzlari va inson zotiga xos bo'lgan konning behisob javog'rlari bo'lgan so'z ta'rifida..." deb boshlagan va bu bob to'lig'icha so'z ta'rifiga bag'ishlangan.

Alisher Navoiy o'z ijodida so'zni ta'riflashga, uning inson hayotida tutgan o'rnini ko'rsatishga ko'plab o'rin bergan. U so'zning ahamiyati, uning inson nutqiy faoliyatidagi o'rni haqida shunday fikrlaydi: "So'z gavharining sharofati shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi. To'rt sadaf (suv, havo, o't, tufroq) ichidagi gavharga quti ham shu so'z, etti osmon yulduzlarining burji ham shu suv". Navoiyning so'zni bu qadar ulug'lashi, so'zga berilgan bu mohirona ta'rif nutq madaniyati uchun ahamiyatlidir.

So'zdirki nishon berur o'likka jondin,
So'zdirki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin...
So'zni ko'ngulda pishqormaguncha tilga kelturma,
har nekim ko'ngulda bor-tilga surma.

"Mahbub ul-qulub"

Til bilan dilning bir bo'lishi lozimligi haqida:

Tili fasiz va dilpazir bo'lgay-xubroq bo'lg'ay,
Agar ko'ngul birla bir bo'lg'ay.

"Mahbub ul-qulub"

Xush muomalalik, shirinso'zlik haqida:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har neki ahyor durur yor aylar,
So'z qatig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

"Nazmul javohir"

Tilni tiymoq to'g'risida:

Befoyda so'zni ko'p aytma va foydaliq so'zni ko'p eshiturdin qaytma.

Oz degan yanchilur, oz egan yiqilur.

"Mahbubul-qulub"

Alisher Navoiy o'zining "Mahbubul qulub" falsafiy asarining 24 faslini notiqlik san'atiga bag'ishlagan. "Nasihah aqli va voizlar zikrida" deb nomlanuvchi bu fasl Navoiy davri notiqligining o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi¹¹.

Navoiy "Mahbubul qulub" asarida o'n beshinchi faslni "Atibbo zikrida" deb nomlagan. Navoiyning bu bobda tabib nutqi oldiga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritadi. Uning bu borada aytgan fikrlari bugungi kunda tibbiyot ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar, sog'liqni saqlash sohasi xizmati xodimlari uchun ham ahamiyatlidir:

Tabibga o'z fanida nazorat kerak va bemorlar holiga shafqat va marhamat kerak. Va nafs-i tibga tab'i muloyim va xukamo qavliga payrav va mulozim. So'zida rifqu diljo'yluq va o'zida ozarmu xushxo'yluq. nozik tabibki shafqati bo'lg'ay - Insoi Ruqulloqqa nisbati bo'lg'ay. Iso ishi chiqqon jonni tanga kivurmak duo bila, munung tandin chiqadurg'on jong'a mone' bo'lmoq davo bila. Mundoq tabibning yuzi mariz ko'nglig'a mahbubdur va so'zi bemor jonig'a marg'ubdur. Dami alillarg'a davo va qadami xastalarqa shifo. Xizri najot aning tal'ati va obi hayot aning sharbati. Agar fanida mog'r bo'lsa, ammo badxo'y va beparvo va durushtgo'y, marizga, agarchi, bir jonibdin iloj etkurur, ammo necha jonibdin taqyiri mijoz etkurur va lekin omiy tabibkim, erur shogirdi jallod, ul tig' bila, bu zaqr bila qilg'uvchi bedod.

Ul mundin yaxshiroqdur. Beishtiboqkim, aning qatili gunaqqordur va munung - begunohki, qech gunahkor, anga zalil bo'lmasun va hech begunax munga alil bo'lmasun. Bayt: hozir tabibi xushgo'y tan ranjiqa shifodur, Omiyyu tundu badxo'y el joniqa balodur¹².

Navoiy notiqning so'zi bilan ishi bir bo'lmog'i lozimligini uqtiradi. Aks xolda nutqning ta'siri bo'lmaydi. Darhaqiqat, «Ulki buyurib o'zi qilmag'ay, qech kimga foyda va asar aning so'zi qilmaqay».

Alisher Navoiy notiqlikda kam va rost so'zlashni ulug'laydi. Bu jihatdan uning «Mahbubul qulub»idagi 60 tanbehi o'rinlidir. «Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar. Ko'p deguvchi mumil, muharrar deguvchi loya'qil» (Ya'ni: Chin so'z e'tiborli, yaxshi so'z qisqa bo'ladi. Ko'p so'zlovchi zeriktiruvchi, qayta gapiradigan – aqldan ozgan), - deydi.

Alisher Navoiy inson nutqi haqida quyidagilarni yozadi:

So'z gavharining sharafi shunchalik yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi.

¹¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub www.ziyouz.com kutubxonasi 12

¹² Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub www.ziyouz.com kutubxonasi 12

Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz. So'zni ko'ngilda pishhar-maguncha tilga keltirma va har nekim, ko'ngilda bor tilga surma. Ma'dani inson gavhari so'z durur, gulshani odam samari so'z durur. Ko'p demak so'zga maqrurlik. Va ko'p emak nafsga ma'murlik. Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, gar nopisand zahir bo'lsa, tilning ofatidir.

Navoiy insoniy munosabatlarda nutqning faoliyatiga baho berar ekan, islom ta'limotiga asoslangan holda insonga til Alloh tomonidan berilganligini, fikr ifodalash faqat insongagina tegishli ekanligini alohida uqtiradi. Shu bois uning asarlarida so'z masalasiga alohida urqu beriladi.

Navoiy so'z haqida fikr yuritar ekan, avvalo, so'zning vazifasi faqat tushuncha anglatishgina emas, balki turli ma'no qirralarini namoyon qilishida ekanligiga katta e'tibor haratadi. Shu bois Navoiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalarining mazmun-mohiyati, hayotning ibtidosi, moddiy asosi so'z ekanligi u tomonidan yaratilgan asarlarda o'z aksini topgan.

Navoiy o'zining ilmiy asarlari, xususan, ikki til muqoyasasiga bag'ishlangan “Muhokamatul lug'atayn” asarida ham so'zga e'tibor qaratib, uning inson faolitining ajralmas qismi ekanligi, insonlar o'rtasida aloqani ta'minlash, xabar etkazish, ruhiy dunyosini ifodalash, o'zgalarga ta'sir qiluvchi kuchli vosita ekanligini misollar asosida isbotlab berishga harakat qiladi. U turkiy tilning o'ziga xosligi, bu esa uning lug'aviy tarkibida aks etishi haqida qimmatli fikrlar, ma'lumotlar keltiradi, uning ma'noviy-vazifaviy jihatdan forsiy tildan ustun turuvchi qator jihatlarini birma-bir sanaydi, ma'no jihatdan tahlil qiladi, turkiy tillar uchun xos bo'lgan 100 ta fe'lning nozik ma'no farqlarini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Turkiy tilning og'zaki va yozma nutqda so'z qo'llash bobida ham o'ziga xos jihatlariga, ustunliklarga egaligini asoslaydi.

Bu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiy o'z ijodi, nutq odobi to'g'risida bildirgan fikrlari bilan nutq madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.

Ajdodlarimiz tarixidan ma'lumki, notiqlik taraqqiyotida Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Mavlona Muin Voiz kabi notiqlarning faoliyati ham muhim o'rin tutadi. Mavlono Riyoziyning omma oldida va'z o'qiyotib “vajdiqol” (kuchli ekstaz holati)ga tushganligi to'g'risidagi Navoiyning «Va'z aytib, minbarda o'z ash'orin o'qub, yig'lab vajdi qol qilur» deb bergan ma'lumotlari o'tmishda notiqlarning o'z maqsadlariga erishishda turli holatlar, nolisoniy vositalardan ham moxirona foydalanganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, dinga itoat qiluvchi kishilar orasida diniy va'zlar o'qish jarayonida mavzu talabidan kelib chiqib, qur'on oyatlari va imom Buxoriy, at-Termiziy hadislaridan, payg'ambarlar va sahobalar hayotiga oid rivoyatlardan parchalar keltiriladi. Voiz fikr ifodalashda nutq madaniyatining asrlar davomida shakllangan, sayqal berilgan tartib-qoidalariga amal qilishi, tinglovchilarning e'tiqodiga bog'liq ta'sirchan jumalardan foydalanishi diniy notiqlikning o'ziga xos uslubga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun diniy madrasalarda talabalarning nutq madaniyatini egallashlari uchun xatoba ilmining ham maxsus fan sifatida o'qitiladi. Diniy notiqlikning muhim jihatlaridan biri tinglovchilarga ta'sir qilishning usullaridan biri voizning va'z jarayonidagi ruhiy holati hisoblanadi. Avvalo, va'z aytuvchining o'z fikrlaridan ta'sirlanishi unda turli xil kuchli ruhiy holatni keltirib chiqaradi. Bu esa tinglovchilar ruhiyatiga ta'sir qilishi, ularni ham voizning ta'sir doirasiga tushib qolishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Manbalarda bunga oid ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Fariduddin Attorning "Tazkiratul avliyo" kitobida keltirilishicha, o'sha davrning taniqli shayxlaridan bo'lgan Ahmad Qassordan xalq oldiga chiqib va'z aytishlarini iltimos qilishganda u inkor qilgan, sababini so'rashganda u o'z ko'nglining dunyoga bog'lanib qolganligi, so'z avvalo so'zlovchining o'ziga ta'sir qilishi kerakligi, shundan so'ng xaloyiqqa ta'sir qilishini aytgan ekan¹³.

Ko'rinadiki, voizning o'z kommunikativ maqsadiga erishishida uning kuchli ekstaz holatiga tushishi tinglovchilarga ta'sir etishining samarali usuli hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan bu holatlar o'tmishda voiz emotsional holati va fikrlarni tinglovchilarga etkazish usulining o'zaro uyg'unligi diniy notiqlikning ajralmas qismi bo'lganligidan dalolat beradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining ijtimoiy-tarixiy asoslari, tarixiy-etimologik qatlamlari, lug'aviy tarkibi, nutqning turli ko'rinishlarida til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tilshunoslikda bir qator tadqiqotlar olib borilgan. O'tgan asrda sobiq sho'rolar mafkurasiga zid deb hisoblangan diniy notiqlik, diniy-irfoniy ruhda yaratilgan asarlar tilini tadqiq etish ma'lum darajada chegaralab qo'yilgan bo'lsa, bugungi kunda milliy istiqlool sharofati bilan bunday izlanishlarga keng yo'l ochildi. «Mo'ysafid tarix oldida ko'z ochib – yumguncha bir muddat hisoblangan shu qisqa davrda mamlakatimizda o'z mundarija –

¹³ Attor Farududdin Tazkiratul avliyo. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2013. B.332.

miqyosiga ko'ra asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy-ma'naviy sohani, jumladan, fanni ham chetlab o'tmadi.

Davlat tili maqomini olgan tilimiz chinakam rivojlanishning katta yo'liga chiqib olgan bo'lsa, adabiyotimiz ham kommunistik mafkura tazyiqidan qutulib, so'z san'atining azaliy va abadiy qonuniyatlari asosida ish ko'ra boshladi. Olimlarimizning ilmiy asarlaridagi «mustaqillik tufayli», «istiqlol sharofati bilan» u yoki bu mavzuni ishlashga muyassar bo'ldik, muayyan olingan asarni haqqoniy baholash imkoniyati vujudga keldi qabilidagi e'tiroflardan ham Vatan mustaqilligining millat til va adabiyoti rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratib berganligi ma'lum bo'ladi¹⁴».

Sobiq sho'rolar davrida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda singari shoir va yozuvchilar nutq madaniyati rivoji uchun samarali mehnat qildilar. Ular o'z asarlarida tilning sofliqi, jozibadorligi, ta'sirchanligini saqlab qolish kabi bir qator eng muhim masalalarni ko'tarib chiqdilar.

Nutqning ixchamligi, qisqaligi, soddaligi, ta'sirchanligi kabi xususiyatlarga e'tibor berish bu kishilarning doimo diqqat markazida bo'lib kelinganligi ularning asarlarida sezilib turadi.

Demak, har bir davrda ham nutq madanyatini, jumladan, shifokor nutqi madaniyatini rivojlantirish kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lgan, deyish mumkin.

TIBBIYOT KO'ZGUSI



Tekshirish uchun savollar

Insoniyat tarixida notiqlikning ilk ko'rinishlari dastalab qayerda paydo bo'lgan?

Jahon xalqlari tarixida nutq madaniyati sohasida ilk nazariyotchilar kimlar edi?

O'tmishda yashab ijod etgan allomalarimizning qaysi asarlarida nutq madaniyati masalasiga alohida etibor berilgan?

Alisher Navoiy o'zining qaysi asarlarida notiqlik san'ati, nutq madaniyati to'g'risida keng fikr yuritgan?

¹⁴ Mahmudov N.O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti.Mustaqillik: til va adabiyot.-O'zbek tili va adabiyoti, 2001. 4-son,11-bet.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, notiqlik, shifokor nutqi madaniyatini rivojlantirish va o'rganish bo'yicha qanday yangi qarashlar maydonga keldi?

Adabiyotlar:

1. **Begmatov E. va boshqalar.** *Adabiy norma va nutq madaniyati.* – Toshkent: Fan, 1973.
2. **Begmatov E., Tursunqulov M.** *O'zbek nutqi madaniyati asoslari.* -Toshkent: O'qituvchi, 1991.
3. **Bekmirzaev N.** *O'zbek nutq madaniyati.* –Toshkent, 2007.
4. **Inomxo'jaev S.** *Notiqlik san'ati asoslari.* -Toshkent, 1982.
5. **Jumaniyozov R., Salimov S.** *g'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati.*-Toshkent, 2002.
6. **Mahmudov N.** *O'qituvchi nutq madaniyati.* Toshkent, 2009.-188 b.
7. **Ortiqov A.** *Nutq madaniyati va notiqlik san'ati.* –Toshkent, 2002.
8. **Qudratov T.** *Nutq madaniyati asoslari.* - Toshkent: O'qituvchi, 1993.

ADABIY TIL ME'YORI VA VAZIFAVIY USLUBLAR

O'quv maqsadi

Talabalarda me'yor tushunchasi, adabiy til me'yori, me'yorning turlari va ularning nutq ko'rinishlarida qo'llanishi, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish. Talabalarga uslub tushunchasi, o'zbek adabiy tili vazifaviy uslublarining turlari va ularning nutq ko'rinishlarida qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

Asosiy ma'lumotlar

Ma'lumki, me'yor va uslub tushunchasi bir-birini taqozo etadigan tushunchalar hisoblanadi. Quyida mazkur tushunchalar mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

Adabiy til me'yorlarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, uni ilmiy – nazariy jihatdan asoslash va u bilan bog'liq muammolar echimini topish tilshunoslikning nutq madaniyati sohasi oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki me'yor nutq madaniyatining markaziy tushunchasi hisoblanadi.

Adabiy tilining o'ziga xos jihatlari, uning rivojlanish qonuniyatlari, undagi til birliklarining nutq vaziyatiga mos holda qo'llanish imkoniyatlari tadqiq etilmay turib, madaniy nutq haqida so'zlab bo'lmaydi. “Tilning, nutqning normal ekanligi aniq. Ammo mana shu normalarni belgilash,

ularning to'g'riligi, maqbulligini aniqlash, baholash oson ish emas. Chunki hozirga qadar tillarning, jumladan o'zbek tilining normalari, maqsadga muvofiqligi, har bir nutqiy qolat, vaziyat, nutqiy uslub talablari nuqtai nazardan qanchalik yo'q hamda nufuzli ekanliga yetarli ravishda o'rganilgan emas. Bu masalani o'rganish, o'z navbatida, til normasi nazariyasi, lisoniy norma haqidaga ta'limot bilan boqlanadi. Bunday ta'limot mavjud. Ammo hozirgi qadar til normasi tushunchasi, uni tushunish, talqin qilish, konkret normani belgilash va baholashning ko'pgina tomonlari ilmiy jihatdan munozarali yoki noaniqdir. Shu jihatdan normani, jumladan adabiy norma haqida hozirgi davr tilshunosligida mavjud bo'lgan fikrlarni tahlil qilish va ma'lum xulosalar chiqarish o'zbek tilshunosligining lisoniy norma nazariyasini rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasiz.¹⁵

Tilshunoslikda me'yor tushunchasiga nisbatan namuna, andaza, norma, qoida kabi turli atamalar qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ular mazmunan yagona maqsad yo'lida xizmat qiladi. Bu holat tilshunoslikka oid lug'atlarda berilayotgan ta'riflarda ham ko'zga tashlanadi.

Darslik va qo'llanmalarda berilayotgan izohlar turli-tumanligidan qat'iy nazar, "Yuqoridagi aytilgan fikrlar asosida normaning mohiyatini quyidagicha ta'riflash mumkin: bir tomondan, bu ma'lum kommunikativ vazifaga va ma'lum insoniy-nutqiy vaziyatga muvofiq so'zlovchi yoki yozuvchi uchun normal variantlarni xatosiz tanlab o'z imkoniyatini beruvchi qonun-qoida, ko'nikma, malaka, mexanizm bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'sha so'zlovchi yoki yozuvchi konkret nutqni muloqotda ishlatish uchun tanlab olingan til vositalari, ya'ni amalga tatbiq qilingan imkoniyatlardir¹⁶".

Adabiy til tinimsiz taraqqiyotda ekan, nutq madaniyatiga bag'ishlangan har bir asarda adabiy til me'yorlari muammosi asosiy masala sifatida qaraladi. Ularda to'g'ri ta'kidlanganidek, "Til normasi katta ijtimoiy ahamiyatga ega. U tilda doimo sodir bo'lib turadigan o'zgarishlarga bardosh berib, uni buzilishlardan saqlaydi, avlodlar o'rtasidagi aloqani, turli davrlardagi madaniy nutqiy an'analar izchilligini ta'minlaydi".

Adabiy til me'yori, uning mohiyati, adabiy til rivojiga bog'liq holda o'zgarib turishi, taraqqiyot qonuniyatlari nimalarda namoyon bo'ladi, degan savollar o'tgan asrning ikkinchi yarmida asosiy masalalar sifatida kun tartibiga qo'yilgan edi.

¹⁵ Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi.(Adabiy normaning tiplari) 2-qism.Toshkent,1998.B.8.

¹⁶ Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. -Toshkent, 1991, B.39.

Avvalo, til birliklarini to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llaganimizni bilishimiz uchun doimo ma'lum bir o'lchovga ehtiyoj sezamiz. Xuddi ana shu o'lchov me'yor hisoblanadi. Me'yorni o'rganish esa o'zbek nutqi madaniyati muammolarini nazariy jihatdan asoslash, shuningdek, har bir kishining nutq madaniyatini egallashi uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda me'yor tushunchasiga olimlarning bergan ta'riflardan ayrimlarini keltiramiz:

S. I. Ojegov: “ ... me'yor bu ijtimoiy jarayonda birga mavjud bo'lgan, bor bo'lgan, yangi paydo bo'lgan yoki o'tmishning kam ishlatiladigan til unsurlarni (lug'aviy talaffuz, morfologik sintaktik) tanlashning natijasi sifatida shakllangan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali (to'g'ri, ma'qul) til vositalari yig'indisidir, keng ma'noda bu unsurlarni baholashdir”

N. Golovin: “Me'yor bu til birliklarini o'zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli undan foydalanadigan xalq tomonidan yaratilgan, til ko'rinishining amalda bo'lgan xususiyatidir. Aynan mana shu zarurat til tizimining yagonaligiga erishish yo'lida odamlarga biron variantni ma'qul ko'rish, boshqasidan voz kechish istagini tug'diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo'lidagi intilishi bilan birgalikda til me'yori milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko'tarilib, mustaqkamlanib boradi”.

Taniqli tilshunos olimlar H.Ne'matov va R.Rasulovlar sistem leksikologiya asoslari haqida fikr yuritib, ta'kidlaydilarki, «Til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisi sifatida qaraladi.

Nutq tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqish, voqelanish shakli bo'lib, u bevosita kuzatishda berilgan, moddiy (tabiiy, fizik) shaklga egadir.

Me'yor (norma) – til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo'lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir».

Bu kabi ta'riflarni yana ko'plab keltirishimiz mumkin. Lekin tilshunoslikda me'yorga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, bir maqrajga keltirsak, qisqa qilib aytganda, me'yor deganda, tildagi mavjud bo'lgan birliklarning hamma uchun tushunarli bo'lgan, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ko'rinishini qo'llashni tushunamiz.

O'zbek tilshunosligida me'yor masalasi ma'lum darajada tadqiq etilgan. Bu masalaga bag'ishlangan bir qator qo'llanma va turkum

maqolalar e'lon qilingan. Me'yorlarni o'rganish masalasida ham ma'lum tavsiyalar ishlab chiqilgan. O'zbek tilshunos olimi E. Begmatov va boshqalar o'zbek tili doirasidagi me'yorlarni quyidagicha o'rganishni tavsiya qiladilar:

Umumiy norma ma'lum qilingan, masalan, o'zbek tilining barcha ko'rinishlarida qo'llanayotgan normalar sistemasining yig'indisidan iborat. Xususiy norma – umumiy normaning nutq ko'rinishlari, shakllaridagi, tilning shakllardagi aniq ko'rinishlaridir. Yuqoridagi taxlillardan kelib chiqqan holda o'zbek tilining quyidagi xususiy normalari haqida gapirish mumkin:

- 1.O'zbek adabiy tili normasi;
- 2.O'zbek lahja va shevalar normasi (dialektal norma);
- 3.O'zbek so'zlashuv nutqi normasi;
- 4.O'zbek tilining ijtimoiy tarmoqlari, ya'ni “ijtimoiy dialektlar”, “ijtimoiy argolar” normasi (jargon, professional nutq ko'rinishlari, argoning boshqa xillarga xos normalar)¹⁷”.

Bugungi kunda o'zbek adabiy tilining birmuncha ishlangan, ma'lum darajada qolipga solingan me'yorlari quyidagicha ko'rsatiladi:

Leksik-semantik me'yorlar – leksik (so'z qo'llash) me'yorlari;

Talaffuz (orfoepik) me'yorlar;

Aktsentologik (so'z va shakllarda urg'uning to'g'riligi) me'yorlar;

Fonetik me'yorlar;

Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yorlar;

So'z yasash me'yorlari;

Imloviy me'yor;

Yozuv (grafika) me'yorlari;

Punktuatsion me'yorlar;

Uslubiy me'yorlar.

Ko'rinadiki, adabiy tilning mavjud bo'lishi uchun me'yorning bo'lishi shart. Yuqorida qayd etib o'tilgan me'yorlar esa adabiy tilning hamma qirralarini o'zida qamrab oladi. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqiy vaziyatga bog'liq holda me'yorning u yoki bu turiga xos bo'lgan talablarga rioya qilishga majbur. Qachonki, kishi o'z nutqi faoliyati davomida me'yor chegaralaridan chiqsa, natijada me'yor buzilishi yuzaga keladi. Ko'rsatilgan me'yorlar talablariga amal qilsa, adabiy til talablariga amal qilingan hisoblanadi. Me'yorlar adabiy tilni turli xil buzilishlardan asraydi, uning sofliğini saqlab, nazorat qilib turadi. Shuning uchun me'yorsiz

¹⁷ Begmatov E. Va boshq. Adabiy norma va nutq madaniyati. Toshkent:Fan, 1983. B.19.

adabiy til bo'lmaydi. Bunda me'yor bo'lmas ekan, til, adabiy til rivoji, taraqqiyoti haqida ham so'zlab bo'lmaydi.

Demak, me'yoriylik adabiy tilning asosi hisoblanadi. Me'yor shu tilda gaplashuvchi kishilar uchun namuna bo'lib xizmat qiladigan, mazmunan va grammatik jihatdan to'g'ri nutqdir. Xalqning aloqa quroli sifatida xizmat qiladigan adabiy tili ham unga asoslanadi. Adabiy til xalq hayotida bo'layotgan o'zgarishlar, tarixiy taraqqiyotga bog'liq holda o'z lug'aviy tarkibi va grammatik qurilishini o'zgartirib borgani sayin me'yor ham unga moslashib, o'zgarib boradi. Chunki ma'lum bir davrda ko'pchilik tomonidan qo'llangan, muomalada bo'lgan til birligi davr o'tishi bilan eskirishi, qo'llanmay qolishi yoki o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib berishi mumkin. Bu esa me'yorning o'zgarishiga olib keladi. Me'yoriy nutq deganda biz to'g'ri nutqni tushunamiz. To'g'rilik esa nutqning bosh aloqaviy sifati sanaladi. Qachonki nutqning to'g'riligiga amal qilinmas ekan, me'yor buzilgan hisoblanadi. Shuning uchun ham tilda me'yorning mavjudligi til sathlarida, nutqning turli ko'rinishlarida qo'llanuvchi birliklarning muayyan qoidalarga solinishini taqozo qiladi. Endi o'zbek nutqi adabiy me'yoring turli xil ko'rinishlarini qarab o'taylik.

Fonetik me'yor.

Bu me'yor o'zbek tilidagi amaldagi tovushlar tizimi, yangi alifboga o'tish muammolari va ularni bartaraf etish bilan bog'liq.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tili uchun yangi alifboda belgilangan unli va undosh tovushlarning qo'llanishi me'yor hisoblanadi. Kirill yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi tilimizning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida to'la aks ettira olmas edi. Bu masala respublikamiz miqyosida o'rtkazilgan bir necha ilmiy anjumanlarida ham qayd etib o'tilgan edi. Bu anjumanlarda o'zbek alifbosini turkiy xalqlari alifbosiga yaqinlashtirish masalasi o'rta qo'yib kelingan edi. O'tgan davrda kirill alifbosidan foydalanib kelganligimiz og'zaki va yozma nutqda tovushlar tizimimizga ham ta'sir ko'rsatdi. Lekin aytish mumkinki, bu masalalar mustaqilligimizni o'z qo'limizga kiritganimizga qadar o'z echimini topmadi. Bugungi kunda esa yangi alifboga o'tish bilan bog'liq muammolar kun tartibiga ko'tarildi. Bu, albatta, o'qish-o'qitishning turli pog'onalarida yangi alifboga amal qilish, yangi alifboni o'rganish bilan bog'liq darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish, ishlab chiqarish, fan – texnika sohalarida, ish yuritishda bu alifboga o'tish masalalari bo'lib, ular belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda.

Imloviy me'yor.

Bu me'yor mantiqan yuqorida ko'rib o'tgan me'yorimizning davomidir. Fonetik me'yorda tildagi tovushlar bilan bog'liq jihatlarga amal qilsa, imloviy me'yorda tilda ko'pchilik tomonidan ongli ravishda qabul qilingan, o'ziga xos imlo qoidalariga ega bo'lgan me'yor anglashiladi. Tildagi unli va undoshlar imlosi, belgilar imlosi, o'zak va negiz, qo'shimchalar, qo'shma, juft va qishartma so'zlar imlosi, bo'g'in ko'chirish va bosh harflarni yozishda imloviy me'yorga ham o'rgatish masalasi turibdi. "O'tgan yillar davomida yaxshi ishlarimiz bilan birga, xatoliklarga ham yo'l qo'ydik. Alifbo masalasidagi sustkashligimiz bugunning o'zida qanday "Natija" berayotganini bilmoqchi bo'lgan kishi maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarining talabalari yozayotgan bayon va insho matnlarini, amaliyot hisobotlarini o'qib ko'rsin, beparvolik oqibatida yuzaga kelgan yangi sun'iy harflar, birikma va iboralar, qisqartmalarni ko'rsin. Ahvol bir muncha tashvishli desak, mubolag'a bo'lmaydi, ammo bu nuqsonlarga barham berishning imkoni hozircha bor."

Vaholanki, yurtimizda tilimizga Davlat tili maqomining berilganiga chorak asrdan ziyod vaqt o'tgan bo'lsa-da, haligacha bu borada belgilangan ishlarning sust darajada olib borilayotganligi ko'zga tashlanadi. Shuning uchun bu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bir qator chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Talaffuz me'yorlari.

Ma'lumki, yozma nutqda imloviy me'yorlarga amal qilinsa, og'zaki so'zlashuv jarayonida adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilish talab etiladi. Bu haqida fikr yuritganda imloviy me'yorning talaffuz me'yorga nisbatan yaxshi o'zlashtirilib olinganligi seziladi. Talaffuz jarayonida ko'pchilik hollarda talaffuz me'yorlarga amal qilinmasligi qech kimga sir emas. Bu esa o'z navbatida nutq madaniyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir. Bularni bartaraf etish uchun shevalar ta'sirlarini yo'qotish, yosh va keksa kishilar nutqidagi tafovutlarga chek qo'yish, yozma nutq ta'sirida yuzaga keladigan sun'iylikdan qochish, boshqa tillardan kirib kelgan va kirib kelayotgan so'z hamda iboralarni ishlatishda ehtiyotkor bo'lish talab etiladi. Bundan tashqari, talaffuz me'yorlari haqida o'qitishning turli pog'onalarida ma'lum darajada ma'lumot berilgani holda keng xalq ommasiga mo'ljallangan qo'llanmalar yo'q hisobi. Bu masalaga ham jiddiy qarashga to'g'ri keladi.

Grammatik me'yor. O'zbek tilshunosligida grammatik me'yor birmuncha mukammal ishlangan desak, xato bo'lmaydi. Shu vaqtga qadar yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarida og'zaki va yozma nutqda bu me'yorning talablariga unchalik rioya qilinmayotganligi qayd etiladi. Bugungi kunda, ochiq aytish kerak, televidenie va radio nutqida grammatik me'yor talablariga unchalik rioya qilinmay qo'yildi. Bu asosan, kelishik qo'shimchalarini (-ning o'rnida –ni, -da o'rnida –ga ning qo'llanishi) noo'rin qo'llash, ularning adabiy til me'yoriga mosini emas, balki shevaga xos bo'lgan variantlarini ishlatishga harakat qilish kuchli seziladi. Bundan tashqari, sifat yasovchi –li va –qaz qo'shimchalarini, fe'lga xos bo'lgan –kaz va –qaz qo'shimchalarini farqlamasdan qo'llash qollari ham kuzatilayapti. Ma'lumki, tilning qay darajada me'yorga tushganligi uning grammatikasidan, grammatik me'yorlaridan ma'lum bo'ladi. Grammatik me'yorga amal qilish uchun shu tilning grammatik qoidalarini, gap tuzish, so'z va qo'shimchalar orasidagi munosabat, ega va kesim mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning bosh bo'laklarga bog'lanishi yo'llarini, so'z tartibini yaxshi bilib olish lozim. Agar nutq jarayonida ana shularga amal qilmaslik qollari sodir bo'lsa, nutq grammatik jihatdan buziladi, tushunmovchilik, g'alizlik yuzaga keladi. Bu masalalar ilgaridan olimlarimiz e'tiborida bo'lib kelmoqda. Toshkentda "Fan" nashriyoti tomonidan 1973 yilda nashr qilgan "Nutq madaniyatiga oid masalalar" to'plamida bunga doir ko'plab misollar berilgan. Unda jumladan tilshunos olim F. Isoqov o'zining "E'tiqodimiz ham bor, e'tirozlarimiz ham" nomli maqolasida bu masalalar haqida fikr yuritib shunday misollar keltiradi:

Otadek farzandiga kim kuyar axir,

O, naqadar og'ir farzandining dog'i. (Ota)

Misradagi fikrdan farzand otadek bo'lib qolgan degan ma'no chiqadi, yoki

Ega –kesimning moslashmasligi:

Nima yetishmasdi? yetishmasdi faqat,

Mangu bahor olib keluvchi bizlar.

Bu misolda ega, kesim-bizlar yetishmasdi kabilar.

Ko'rinadiki, me'yorga amal qilmaslik, nutqda g'alizlikni keltirib chiqaradi.

Lug'aviy me'yor. So'zlovchi yoki yozuvchi o'z fikrlarni tilning og'zaki yoki yozma shakli orqali tinglovchi yoxud o'quvchiga yetkazar ekan, tilda mavjud bo'lgan birliklardan keraklisini tanlab olib qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi shu tanlash imkoniyatining mavjudligi tilda lug'aviy me'yorni belgilab beradi. Lug'aviy me'yorda sinonimlar

muhim o'rin tutadi. Nutqiy vaziyat uchun mos bo'lmagan sinonimik birlikni qo'llash nutqiy xatolikni keltirib chiqaradi. Masalan, so'zlashuv nutqida poetik asarlar tili uchun xos bo'lgan dudoq, qalb, siyna, ruxsor, ummon, sado, firoq, qayon, samo, nihon singari so'zlarni qo'llash me'yor hisoblanmaydi. Agar ular o'zaro muloqot jarayonida noo'rin qo'llansa, nutqiy g'alizlik yuzaga keladi. Lug'aviy me'yorga so'z tanlashda ularning ma'no va uslubiy qimmatini hisobga olmaslik, shevaga xos unsurlarni qo'llashda e'tiborsizlik, noo'rin tarjimalar fikrga putur etkazadi.

Misollar: qo'zani bachchaligida parvarish qilaylik. Oq xalatli tovuqlar murabbiysi Nazira opa bizni qarshi oldi. Kuni kecha jamiyatimizga ilk bor qadam qo'ygan targ'il buzoqcha...kabilar.¹⁸

Semantik uslubiy me'yor. Tildagi so'zlar bir yoki bir necha ma'noda bo'lishi mumkin. Ularning qay birini qo'llash, ularning o'zgarib turishi, nutq uchun qaysi ma'noning xosligini aniqlashda ma'noviy me'yorga suyaniladi. Bunda tildagi izohli, bir necha tilli, atamalar lug'atlarining ahamiyati katta bo'ladi.

O'zbek tilining uslubiy me'yorlarini belgilash tilshunosligimiz oldidagi eng muhim masalalardan bo'lib turibdi. Tildagi so'zlarni noo'rin qo'llash uslubiy xatolarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi. Til birliklarini qo'llashdagi maqsadiga muvofiqligi uslubiy me'yor bobida bosh o'lchov hisoblanadi. Uslubiy me'yorni belgilashda qo'llanayotgan birlikning umumxalq tomonidan ma'qullanishi lozimligi, uning ko'pchilik tomonidan shu tarzda qo'llanishi qabul qilingan bo'lishi kerakligi hamda tahlil qilinayotgan til birligi haqida hukm chiqarishda uning matnga mosligi kabilar hisobiga olinadi. Nutqning og'zaki yoki yozma ko'rinishida til birliklarini noo'rin, takror ishlatish, so'z qo'llashdagi noaniqliklar turli xil uslubiy xatolar keltirib chiqaradi:

“Yal-yal yongan lola qizg'aldoqlar singari xushbo'y bir qush, bir qo'shiq ...”

Ikrom Otamurodov “Shitir-shitir boshlanar” she'ridan.

Savol tug'iladi. Lolaqizg'aldoq xushbo'y Nahotki?

yoki Go'ro'g'lining g'iroti shamol bo'lib bamisli, yetib kelsada kishnab...” “Ulug'bekning o'limi” she'ridan. G'irotning o'zi asli shamoldan tez deyiladi-ku¹⁹. Og'zaki va yozma nutqda tildagi mavjud so'zlarni pala-partish qo'llash uslubiy g'alizlikni, mantiqiy nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, bu holat bugungi kunda turli ob'ektlarni nomlashda, peshlavhalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. “Katta chorraqada

¹⁸ Nutq madaniyatiag oid masalalar. Toshkent: Fan, 1973. B.120.

¹⁹ Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent: O'zbekiston, 1992. B.102.

“Siz plovni sevasizmi?” deb yozib qo'yilibdi. Boshqa bir joyda xonalarda o'rnatiladigan konditsioner reklama qilinib, “Issiq-sovuq” qilamiz deyilgan. hamma ko'radi, istehzo bilan kuladi, ammo shahar mutasaddilari bu olaquroq jummalarni ko'rishmaydi shekilli, millatning sha'niga dog' bo'lib tushadigan ko'plab xato va g'alizliklar turgan joyida turaveradi. Bunday nuqsonlar bugun u qadar ahamiyatli bo'lib tuyulmasligi mumkin. Ammo ular yosh avlod nutqi va yozuviga ko'chganidan keyin tuzatish qiyin kechadi. Bu – bo'rttirish emas.”²⁰

Tilda sinonimlarni noo'rin ishlatish, tilda mavjud bo'lgan vazifaviy uslublariga oid unsurlarni noo'rin qo'llash ham uslubiy me'yorning buzilishiga olib keladi. Bu o'rinda yozuvchi A. Qaqqorning “Nutq” hikoyasini eslash o'rinlidir. Hikoyaning “o'rtoq xotin” deb boshlanuvchi o'rinlari kitobxonning kulgisini qistaydi. Bu albatda, vazifaviy uslublarga oid so'zlarni pala-partish qo'llash natijasida yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda, kishi o'z fikrlarini ifodalash jarayonida har bir holatda ham adabiy til me'yorlariga rioya qilishi lozim. U me'yor tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy omil ekanligini unutmasligi lozim. Shundagina u o'z nutqining ifodali, ta'sirchan, grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishini ta'minlay oladi. Endi esa me'yor tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan vazifaviy uslublarga to'xtalamiz.

Ma'lumki, so'zlovchi yoki yozuvchi o'z fikrini ifodalash jarayonida tilda mavjud bo'lgan til birliklarining nutqiy vaziyat uchun mos bo'lgan ko'rinishini tanlab olib qo'llashi til birliklarining nutq jarayonida bajaradigan vazifasiga qarab chegaralashni, ma'lum bir guruqlarga ajratishni taqozo qiladi. Alohida olingan bu guruqlarni vazifaviy uslub sifatida qarash mumkin. “Uslub (stil)” atamasining kelib chiqishi olis davrlarga borib taqaladi. Asli uchi o'tkirlashtirib, yozish uchun muljallangan tayoqchaga nisbatan qo'llanilgan “uslub (stil)” so'zi keyinchalik qadimgi Rim va Gretsiyada ishontirish san'ati, hindlarda nutqni bezash vositasi, arablarda kiyim sifatida tushunilgan. Keyingi asrlarda esa u filologik atama sifatida qo'llanila boshlagan.

Keyingi yillarda uslubshunoslik muammolariga bag'ishlangan ko'plab darslik va o'quv qo'llanmalarida vazifaviy uslublar haqida keng fikr yuritilib, u hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy masalalardan biri deb qaralmoqda. Lekin vazifaviy uslublar, tilning tasviriyl ifoda vositalari, sinonimiya masalalarini hal etishda turlicha fikrlar mavjudligi ko'zga

²⁰ Meliboev A. “Milliy tilni yuqotmak millatning ruhini yuqotmakdur” <http://www.adolat.uz/news/milliy-tilni-joqotmak-millatning-ruhini-joqotmakdur>.

tashlanadi. Bu esa vazifaviy uslublarning turlicha tasniflanishiga va bu masalalarga har xil qarashlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Adabiy tilni uslublarga bo'lib o'rganish masalasi o'zining uzoq tarixida ega bo'lib, uning ildizlari antik filosofiyaga borib taqaladi.²¹ Tilning bo'yoqdorlik xususiyatini uslublarni tasniflashda o'zlaricha asos deb bilgan qadimgi hind olimlari 8 ta, ba'zilar 10 ta uslub mavjud degan g'oyani olg'a surganlar²².

Uslublar masalasi bilan shug'ullangan fransuz akademiyasi XVIII asrda tilning ta'sirchanligi va janr xususiyatlariga ko'ra uslublarni quyidagi turlarga ajratganlar: klassik tragediyalar, odalar, oratoriya uslubi – yuqori uslub; roman, povestlar uslubi – zamonaviy uslub; fars va masallar, sodda uslubli komediya yoki folklor uslubi²³.

Rus tilshunosligida uslublar nazaryasi M.V. Lomonosov nomi bilan bog'liq. U rus tilshunosligida birinchi marta o'zining uch uslub (yuqori, o'rta, quyi) to'g'risidagi nazariyasini o'rta tashladi va uslublarning janrlarini ko'rsatib beradi. U oda, qahramonlik poemalari va qo'shiqlari, tragediya va prozaik nutq yuqori uslubga, komediya, hazil qo'shiqlari, kundalik ishning nasriy bayoni, nasriy do'stlik xatlari quyi uslubga tegishli va ular shu uslublar talablari asosida yozilishi lozim deb hisoblangan²⁴.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shu narsa aniq bo'ldiki, olimlar tilning bo'yoqdorligini hisobga olib uslublarni tasniflashda bir yoqlamalikka yo'l qo'yganlar. Bugungi kunda o'zbek tilshunoslari tilning vazifaviy uslublarni quyidagicha tasniflaydilar. Ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

Tursunov U, O'rinboev B. “a) adabiy – badiiy (poetik va prozaik) stil; b) ijtimoiy-publitsistik stil; v) ilmiy bayon stili; g) professional – texnika stili; d) rasmiy qujjatlar stili; e) har xil yozishmalar, kundaliklar va xatlarga xos bo'lgan maktubiy stil.”²⁵

Shomaqsudov A. “ a) ilmiy- texnik stil; b)ilmiy- ommabop stil; v)rasmiy – idoraviy stil; g) ijtimoiy-publitsistik stil d) so'zlashuv stili; e)badiiy adabiyot stili;.”²⁶

G'ulomov A. “ a) so'zlashuv stili; b) badiy stil; v) kitobiy (ilmiy, rasmiy, publisistik,) stil”²⁷.

²¹ Antichno'e teorii yazo'ka i stilya. Moskva,1936. S.173-176.

²² Barannikov A.P.Izobrazitelno'e sredstvo indiyskoy poezii.Leningrad,1947.S.14-15.

²³Pototskaya N.P. Stilistika sovremennogo frantsuzskogo yazo'ka. Moskva,1975.

²⁴ Lomonosov M.V. Poln. Sob. Sochinen. T.7.Moskva, 1952.S. 467.

²⁵ Tursunov U.,O'rinboev B.O'zbek adabiy tili tarixi.Toshkent:O'qituvchi, 1982.

²⁶ Shomaqsudov A.O'zbek adabiy tili stillari haqida.-Filologik tadqiqotlar to'plami.ToshDU ilmiy asarlari.Toshkent, 1970.B.227-240.

Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov T. “ a) so'zlashuv stili; b) ilmiy stil; v) rasmiy ish-qog'ozlari stili; g) publitsistik stil; d) badiiy stil;²⁸”

Mukarramov M. “ a) so'zlashuv stili; b) rasmiy qujjatlar stili; v) ilmiy stil; g) publitsistik stil; d) badiiy stil²⁹”.

E.Begmatov, A.Boboeva, M. Asomiddinova, B.Umurqulovlar uslublarni og'zaki yoki yozma ekanligiga ko'ra ikki – og'zaki nutq uslubi va yozma nutq uslubiga ajratadilar. Ular so'zlashuv uslubini og'zaki nutq uslubiga kiritadilar va uning ikki turi (adabiy so'zlashuv va oddiy so'zlashuv) mavjudligini ko'rsatadilar. Yozma nutq uslubiga esa badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy ish uslublarni kiritib, badiiy uslubining nasriy, poetik, drammatik, ilmiy uslubning ilmiy- texnik, ilmiy- ommabop, publitsistik uslubning gazeta, ijtimoiy-siyosiy, rasmiy ish uslubining rasmiy –idoraviy, rasmiy- axborot uslubi kabi tarmoqlari borligini sxema yordamida ko'rsatadilar³⁰.

A. Shomaqsudov va boshqalar tomonidan yaratilgan “O'zbek tili stilistikasi” (Toshkent, 1983 y.) darsligida o'zbek tili vazifaviy uslublarining beshta turi (so'zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik stil, badiiy stil) mavjudligi ko'rsatib berilgan va bu uslublarning leksik, grammatik xususiyatlari ochib berilgan³¹.

Shu fikr tarafdorlari bo'lgan X. Donyorov va B. Yo'ldoshevlar ham hozirgi o'zbek adabiy tilida vazifaviy uslublarning beshta turi mavjud degan fikrni bildiradilar: “a) ilmiy stil, b) rasmiy ish qog'ozlari stili; v) publitsistik stil; g) og'zaki so'zlashuv stili.³²”

Yana bir tilshunos olim S. Muhamedov vazifaviy uslublarning quyidagi tasnifini taklif etadi:

Rasmiy ish funktsional stili: a) rasmiy qujjatlar uslubi. Bunga qarorlar, qonunlar kabi qujjatlar kiradi; b) rasmiy ish uslubi. Bunga tashkilotlar va shaxslar o'rtasidagi rasmiy ishga taalluqli bo'lgan xatlar, yozishmalar kiradi.

Ilmiy funktsional stilga ilmiy –texnika, ilmiy -ommabop, ilmiy publitsistik hamda ilmiy o'quvga taalluqli tekstlarni kiritish mumkin.

²⁷ O'zbek tili. Toshkent: O'qituvchi, 1977.

²⁸ Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov T. O'zbek tilining funktsional stillari. Samarqand, 1984. B.15.

²⁹ Mukarramov M. Funktsional stillar klassifikatsiyassiga doir. - Aktualno'e problema' filologicheskix nauk. Trudo' TashGPI im. Nizami, tom.195. Tashkent, 1977. S.3.

³⁰ Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent: Fan, 1988. B.80.

³¹ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qung'urov R., Rustamov Q. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, O'qituvchi, 1983. B.13.

³² Donyorov X., Yuldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan, 1985.

Publitsistik stilga asosan, gazeta tekstlari kirib, tematika jihatidan juda kengdir. Bu funktsional stil: a) mamlakat siyosiy va sotsial hayoti (bosh maqolalar, partiya turmushi, ichki siyosat, doklad, nutq va boshqalar); b) chet el xabarlari (siyosiy va iqtisodiy); v) ekonomika (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, uy-joy kommunal xo'jaligi va boshqalar); g) fan va texnika (ilmiy yangiliklar, har xil sohalardagi texnika yutuqlari va hakoza); d) madaniyat va san'at (teatr, kino xabarlari, muzika va rassomchilik asarlariga taqrizlar va boshqalar); e) reportaj, pamflet, ocherk va yakozo; j) fizkultura va sport xabarlaridan iborat³³.

So'zlashuv nutqi bo'yicha kuzatishlar olib borgan tilshunos olim B. O'rinboev hozirgi o'zbek adabiy tilidagi vazifaviy uslublarni quyidagicha tasniflaydi,"

Til uslublari: 1. Kitobiy uslub. Bu uslubga o'z navbatida: a) so'zlashuv nutqi uslubi; b) ilmiy nutq uslubi; v) gazeta publitsistik nutqi uslubi; g) rasmiy ish nutqi uslubi kiradi. 2. Estetik kommunikativ uslub. Bunga badiiy adabiyot nutqi uslubi kiradi.³⁴"

Vazifaviy uslublarni tasnifi masalasida turkiyshunoslikda ham, rus tilshunosligida ham aniq va tugal fikrlar yo'qligi ko'zga tashlanadi. Ularda uslublarning biz yuqorida qayd etib o'tganlarimizdan tashqari yana tantanavor, satirik, intim-erkalatish, hazil-mutoyiba, badiiy belletristik, epistolyar kabi turlari mavjudligi aytiladi.

Ko'rinadiki, ba'zi olimlar tilning kishi faoliyati doirasida ishtirok etishiga qarab ma'lum bir turlarga ajratsalar, boshqalari uning fikrni ifodalash shakli-og'zaki yoki yozma ekanligiga qarab tasniflaydilar. Uchinchi bir guruhi olimlar esa uning kishi ruhiyati, hissiyotiga ta'sir qilishiga, ta'sirchanligiga qarab uslubning satirik, hazil-mutoyiba, tantanavor kabi turlarini ko'rsatadilar. Kishining ifodalamoqchi bo'lgan fikri, albatta, og'zaki va yozma nutq vositasida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ular vazifaviy uslublarni tizimidan mustaqil uslublarni sifatida emas, balki tildan foydalanishning ikki shakli sifatida qaralishi kerak. Vazifaviy uslublarni tasniflashda bo'yoqdorlik-ta'sirchanlik, janrlar printsiplarga asoslangan olimlarning fikrlarini ham uncha asosli deb bo'lmaydi. Agar bu printsiplarga suyanib tasnif qilinadigan bo'lsa, u holda uslublarni soni nihoyatda ko'payib ketgan bo'lar edi.

Akademik V.V. Vinogradov tilning eng muhim uch xil ijtimoiy vazifasiga (aloqa, xabar, ta'sir etish) asoslanib, vazifaviy uslublarning

³³ Muhamedov S.O'zbek tili funktsional stillarini belgilash to'g'risida mulohazalar. O'zbek tili va adabiyoti, №4, B.54-58.

³⁴ O'rinboev B.Funktsional uslubiyat va uning mohiyati.Toshkent:Fan, 1992.B. 32-33.

odatdagi muomala uslubi aloqa vazifasiga, odatdagi rasmiy, rasmiy qujjat va ilmiy uslublar xabar vazifasiga, publitsistik va badiiy uslub ta'sir vazifasiga xoslanganligini ko'rsatib beradi³⁵.

Tilning ana shu vazifalari hisobga olinib, keyingi vaqtda uslublarga nisbatan ham “vazifaviy (funktional) uslub” atamasi qo'llana boshladi. “hozirgi vaqtda tilshunoslikda til stillari klassifikatsiyasida funktsional stillar (bu termin o'rnida ba'zan “tilning – stilning kommunikativ tiplari termini ishlatiladi) tan olinadi. Stillarni bu xil klassifikatsiya qilishda ham yangi ma'noda janrlar asosga olingan deyilar. Bunda insonlar munosabati, aloqalariga mos ravishda maydonga kelgan janrlar nazarda tutiladi. Til kishi faoliyatining hamma sohasiga xizmat qiladi. har bir alohida olingan sohasida bir xil so'z, ibora, oborot va konstruksiyalar ko'proq ishlatiladi, ikkinchi bir xillari kamroq, uchinchi esa ishlatilmaydi. har bir mustaqil funktsional stil unda qo'llanadigan til vositalarining umumiy stilistik bo'yog'i bilan xarakterlanadi. Shu sababli har bir alohida olingan stil (funktional stil) boshqacha stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan boshqa stillar uchun xos bo'lgan til birliklari, sistemalaridan farq qiladigan, ma'lum darajada ular bilan stilistik oppozitsiya hosil qiladigan ma'lum bir sistemaga ega bo'ladi.”³⁶

Yuqoridagi fikrlarda ma'lum bo'ladiki, tilshunoslikda vazifaviy uslublar masalasida, ularni tasniflashda bir xillik yo'qdir. Bu olimlarni vazifaviy uslublarni turlicha nomlashlari va uslublar sonini uchtdan yettitagacha deb ko'rsatganlarida ham seziladi. Ammo keyingi yillarda yaratilgan ishlarning deyarli ko'pchiligida vazifaviy uslublar bajaradigan vazifasi jihatidan besh katta guruqqa ajratilmoqda. Bular quyidagilar: 1) so'zlashuv uslubi; 2) ilmiy uslub; 3) rasmiy ish – qog'ozlari uslubi; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub.

O'zbek tilshunosligida har bir vazifaviy uslub monografik tarzda o'rganilgan hamda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan³⁷.

Endi har bir uslubning o'ziga xos jihatlarini ko'rib o'taylik. Tilimizda bugungi kunda amalda bo'lgan vazifaviy uslublar to'g'risida qisqacha fikr yuritamiz.

³⁵ Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. Moskva, 1963. S.6.

³⁶ Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov T. O'zbek tilining funktsional stillari. Samarqand, 1992.-140 b.

³⁷ O'rinboev B. Vopros sintaksisa uzbekskoy razgovornoy rechi. Avtoref. diss. ...d-ra filol. nauk. Tashkent, 1974; Mukarramov M. Nauchno'y stil sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazo'ka v semantiko-funktionalnom aspekte. Avtoref. diss. ...d-ra filol. nauk. Tashkent, 1985; Kurbanov T. Publitsisticheskiy stil sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazo'ka. Avtoref. diss. ...kand. filol. nauk. Tashkent, 1987; Babaxanova D. Ofitsialno – delovoy stil sovremennogo uzbekskogo yazo'ka. Avtoref. diss. ...kand. filol. nauk. Tashkent, 1979; Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. Samarqand, 1992.-140 b.

So'zlashuv uslubi. So'zlashuv uslubi o'zining lingvistik xususiyatlariga ko'ra boshqa vazifaviy uslublardan ajralib turadi.

So'zlashuv uslubi faqat o'zigagina xos bo'lgan fonetik xususiyatlariga ega. Nutq jarayonida tovushlarning o'zaro uyg'unlashuvi, biri o'rnida ikkinchi tovushning qo'llanishi, o'rni almashishi, tushib qolishi, orttirilishi kabi holatlar shular jumlasidandir. Masalan: daryo-dayro, tuproq-turpoq, zarur-zaril, yigitcha-yigichcha, uch so'm-usso'm, kiosk-kioska, tank-tankka, direktor-diriktir, traktor-traktir, gazeta-gazit kabilar.

So'zlashuv uslubining xususiyatlaridan biri shuki, unda bir necha so'z yoki bo'g'indan tashkil topgan ismlar qisqartirilib, bir so'z yoki bir bo'g'in holiga kelishi mumkin: Muhammadkarim – Mamatkarim – Matkarim. Abdurahim – Rahim, Alibek – Bek kabi.

So'zlashuv uslubida shevaga xos xususiyatlar kuchli bo'ladi. Muloqot jarayonida so'zlovchi mansub bo'lgan shevaga xos birliklar o'z aksini topadi. Ana shunga qarab so'zlovchining qayerdan ekanligini, uning qaysi sheva vakili ekanligini osongina aniqlash mumkin.

Bu uslubda so'zlovchi va tinglovchi munosabatidan kelib chiqib, ijobiy yoki salbiy munosabatni bildiruvchi so'zlar ko'p qo'llanadi. Ijobiy munosabatni ifodalashda sub'ektiv baho shakllari, evfemizmlardan, salbiy munosabat ifodalashda esa dag'al so'z va iboralardan foydalaniladi. So'zlashuv uslubida tor doiradagi ijtimoiy guruqlarga xizmat qiluvchi so'zlar alohida bir qatlamni tashkil etadi. Atoqli yozuvchi Tohir Malikning "Tilla kalamush" asaridan olingan quyidagi parchada so'zlashuv uslubiga xos xususiyatlar o'z aksini topgan:

"Shnaps" masalasi o'rtaga qo'yilganda qishloqning kunchiqar tomonida kolxoz raisi ko'rindi. Uning yonidagi tepakal, ko'zoynakli odam Sobitali darajasida bo'lmasa ham garangroq ahvolda edi. Sobitali ularni ko'rdi-yu Hambaralini bu erda, bu ahvolda kutishdan ma'no yo'qligini anglab, izzati borida sekingina orqaga qaytib, uyiga kirib keta qoldi. Ikki cholning ikki dakang xo'rozday turishini ko'rgan rais esa nima gapligini bilish uchun ularga halal bermay, beriroqda to'xtadi. Ularni sezmagan Tursunali polvon jimib qolgan oshnasini butunlay pachoq qilib tashlash maqsadida hujumini davom ettirdi:

-Shuni bilib qo'y, baqa! Tursunali polvonning sharmandasini chiqaradigan odamning hali katta dadasi ham tug'ilgani yo'q- ha!

-Sen yaxshilikni bilmaydigan mol ekansan. Kim senga "ho'kiz" deb laqab qo'ygan bo'lsa, adashibdi. Eshitdingmi, rayondagi hamma ho'kizlar

yiqilib, raykombuvaga arz qilganmish. Kelib-kelib bizlarni shu nodonga tenglashtirasizlarmi, deyishganmish.

-Hali biz nodon ham bo'ldikmi? qani, hov baqavoy, zo'r bo'lsang qurillamay buyoqqa o't-chi!

-Sen ho'kiz, mahallangda turib olib, o'kiraverma! Kekirdaging uzilib tushmasin tag'in!

-Vey, oyog'imning ostida qurillayvermagin, sen, behos bosib olsam, pachoglanib o'lasan-a! hali men mahallamda turib olib kerilibmanmi? Bilib qo'y: men sen so'tak bilan har qanaqa joyda gaplashaman. O'n ikkita bola tug'dirib qo'ygan erkakman men. Men ho'kiz emas, buqaman! Beshta boladan keyin ispisat qilingan erkakmasman!

Ko'rinadiki, gaplarning grammatik qurilishi, fikr ifodalashdagi erkinlik, gaplarning dialogik xarakterda ekanligi, shevaga xos xususiyatlar matnning so'zlashuv uslubiga xos ekanligidan dalolat beradi. O'tkir Hoshimovning "Telpak" hikoyasidan olingan quyidagi parchada esa so'zlashuv nutqiga xos xususiyatlar yaqqol bo'rtib turadi:

Starshina charchaganmi, uyqudan qolganmi, huzur qilib obdan esnadi. Etak tomondagi liqildoq kursilarga imo qildi. - T-a-ak... - dedi ko'zidan oqqan mo'ldir-mo'ldir yoshlarni artib. — T-a-ak...

-O'rtoq nachalnik... — Botir tag'in gap boshlagan edi, starshina rapidadek kaftini ko'tardi..

- Pastradavshiy kim?

- Manavu! - Botir menga imo qildi. — Yarim soat oldin...

- Minutochku, grajdanin! - dedi starshina anchayin keskin ohangda.

- Pastradavshiyning o'zi gapirsin!

Hammasini aytib berdim. Bir boshdan. qo'rqibgina... Starshina toqat bilan eshitdi. Keyin stol tortmasidan qog'oz oldi.

- T-a-ak, endi boshlaymiz! - dedi tantanavor alfozda.

- Familiyangiz? Aytdim.

- Ismingiz? Aytdim.

- Ish joyingiz? Aytdim.

- «Polingiz?»... ha, tushunarli... Vazifangiz? Aytdim.

- Uy adresingiz? Aytdim.

- Oilaviy ahvolingiz? Unisiniyam aytdim.

- Bobongiz Ulug' Oktyabr revolyutsiyasidan oldin kim bo'lgan?

- Bilmayman, — dedim hayron bo'lib.

- Nega bilmaysiz?

- Unda men yo'q edim.

- Xarasho. Avval sudlanganmisiz?

- Yo'q.

- Chet elda harindoshlaringiz bormi?

- Yo'q.

- Qanday mukofot olgansiz?

- E, ko'p olganmiz! - dedim maktanib. - Bugun ham oldim. O'ttiz uch so'm. Kvartalniy mukofot!

- Unisini so'rayotganim yo'q! - dedi starshina asabiylashib. - Saylanganmisiz?

- Bo'lmasa-chi! Mestkomda kaznacheyman!

- Uf-f! - Starshina qoqoz qirtillataverib charchab ketdi shekilli, kattakon ro'molcha bilan peshanasini artdi. - Itak, nima bo'ldi — dedi ko'zimga tikilib. — Bir boshdan ayting.

Hayron bo'lib goh unga, goh Botirga termildim.

Shunisi xarakterliki, so'zlashuv nutqida erkak va ayol nutqi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Ikki eshik orasi" romanida erkak va ayol nutqi bir-biridan keskin farq qiladi. Ayollar nutqiga xos xususiyatlar, ularning munosabat ifodasi sifatida ko'pincha haqorat ifodalovchi beparda so'zlarni qo'llashi asarda ko'p kuzatiladi. Suhbatdoshlar o'rtasida vaziyat keskinlasha borgani sayin ularning o'zaro munosabati ham shunga moslasha boradi. Shuning uchun ular tomonidan tanlanadigan til birliklari ham shunga mos holda o'zgarib boradi:

Qo'rqib ketdim. Lankani ham tashlab, yig'lab o'tirgan ukamni ko'tarayotgan edim, Abduvalining Mavluda opasi chopib keldi.

— Nega urasan ukamni, basharang qurg'ur!—dedi sariq yuzi qip-qizarib.

Yiqalayotgan Omonni ko'tarib olarkanman, baland keldim.

Nega o'zi ukamni uradi?

Shu sening ukangmi, og'zingdan qoning kelgur! — Mavluda dahdaqa bilan ustimga bostirib keldi. — O'gay ukangga joning shunchalik achidimi, etimcha — etti kulcha! Tur yo'qol!

Omonni ko'targancha ko'chaga yugurdim. Mavluda burnidan qon oqib yiqalayotgan Abduvalining boshiga bordi.

— Shu shumqadamdan boshqa o'rtoq qurib qolganmi, juvonmarg! -deb ukasining boshiga mushtlaganini uzoqdan ko'rib qoldim.

Yuqoridagi dialogda ayollar nutqiga xos xususiyatlar yaqqol o'z aksini topgan. Bunday nutqiy vaziyatlarda nutq ishtirokchilarining o'zaro tanishligi, hamqishloq ekanligi, suhbat mavzusining har ikkalasi uchun

ham birday tushunarli ekanligi nutqiy tejamkorlikni yuzaga keltirgan. Shuning uchun gaplar to'liqsiz shaklda, savol-javob ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Ular tomonidan qo'llangan vulgarizmlar xotin-qizlar nutqiga xos bo'lgan harqish, tinglovchini behurmat qilish ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan.

So'zlashuv nutqida so'zlarni metonimik qo'llashga katta ahamiyat beriladi. Masalan: bir tovoq yedim, ikki stakan ichdim, stadion o'rnidan turdi, ikki kosani simirdi kabi.

So'zlashuv uslubida fikrni ifodalash imkoniyatlari keng. Bunda so'zlovchi birgina til birliklarini qo'llash bilan kifoyalanmay, balki tilning ekstralingvistik faktorlaridan ham foydalanadi. So'zlashuv uslubida fikrlar takrori, tugallanmagan jumlar, inversiya ko'p uchraydi.

Publitsistik uslub.

Tilning vazifaviy uslublari orasida publitsistik uslub inson hayotining, faolyatining deyarli hamma qirralari bilan chambarchas bog'liq ekanligiga ko'ra ajralib turadi. Uning xususiyatlari shu uslubda yozilgan asarlar, ya'ni xabar, reportaj, korrespondentsiya, maqola, ocherk, feleton, pamflet, bosh maqola kabilarning chegaralanishida ham ko'rinadi.

Publitsistik uslub tilning boshqa vazifaviy uslublariga o'xshash va farqli tomonlarga ega. U o'zida qo'llanilgan til birliklarining bo'yoqdorlik, ta'sirchanligiga, obrazlilikni hosil qilishiga ko'ra badiiy uslubga, tahlil usuli, mantiqiyligi, ishontirish kuchiga egaligi, atamalarining mavjudligiga ko'ra ilmiy uslubga o'xshab ketadi. Bu esa uslublarning doimiy aloqada ekanligini ko'rsatadi.

Publitsistik uslubda ravishdosh, sifatdosh oborotlar, fe'l shart mayli shakllari almashib qo'llanishi, ritorik murojaat, undov, bir tarkibli gaplarning qo'llanish darajasi boshqa uslublarga nisbatan ko'proq.

Publistik uslubda uslubda ijtimoiy – siyosiy atamalar keng qo'llanadi. Publistik uslubda nutq monologik xarakterga ega. Unda birgina muallif ishtirok etadi. Publitsistik uslub sintaktik jihatda ham o'ziga xos. Unda so'roq, uyushiq bo'lakli, kirish bo'lakli, kirish qurilmali, shaxsi umumlashgan gaplar ko'p ishlatiladi.

Rasmiy ish qog'ozlari uslubi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ish yuritishda ma'muriy va huquqiy ishlarda rasmiy ish qog'ozlari uslubidan foydalaniladi. Mamlakatimizda turli xil qonunlar, farmonlar, buyruqlar, har xil davlatlar, tashkilotlar va shaxslar o'rtasidagi shartnomalar, majlislar, qujjatlar, ariza, ma'lumotnoma kabilar, rasmiy ish qog'ozlari-bularning hammasi rasmiy ish qog'ozlari uslubida yoziladi.

Rasmiy ish qog'ozlari uslubida so'zlashuv uslubiga xos erkinlik sezilmaydi. Unda qaytariqlar, takrorlar, uzun-yulug' jumlar uchramaydi. So'zlovchining sub'ektiv munosabatini ifodalovchi vositalar qo'llanilmaydi. Bunda so'zlovchi yoki yozuvchi so'z tanlash va qo'llashda rasmiy ish qog'ozlar uslubi talablaridan kelib chiqib, fikr ifodalaydi. Rasmiy mazmundagi yozma matnlarda shu uslubga xos bo'lgan xususiyat, ya'ni fikrlarni ma'lum bir qolipga solib ifodalash kuchli bo'ladi. Fikrlarni bu tarzda ifodalash rasmiy ish qog'ozlari uslubining talablaridan biridir. Fikrlarni sodda, qisqa, aniq va lo'nda ifodalash rasmiy ish qog'ozlari uslubining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Professional terminologiyaning mavjudligi va uning qo'llanishi shart qilib qo'yilganligi bu uslubni boshqa vazifaviy uslublardan ajratib turadi.

Tilning vazifaviy uslublari buyicha kuzatishlar olib borgan tilshunos olim R.Qo'ng'urov va boshqalar rasmiy ish qog'ozlari uslubi haqida fikr yuritir ekanlar, uning bir qator grammatik xususiyatlarini ko'rsatib bergan edilar. Bunda ular bu uslubda tilga olinayotgan kishilar o'z nomi bilan atalmasdan, buning o'rniga ularning belgisini yoki biror harakatini, bir narsaga munosabatini ifodalovchi otlar ishlatilishini (m.:guvoq, davogar kabilar.),noaniqlikka yo'l qo'ymaslik maqsadida, odatda otlarning olmosh bilan almashtirilmasligini, fe'lning ishlatilishi boshqa uslublarga qaraganda farqlanib turishini, bu uslubda uyushiq bo'lakli sodda gaplar keng qo'llanilib, ayrim o'rinlarda ularning soni 8-10 taga yetishi mumkinligini, qo'shma gaplarda, xususan, shart ergash gapli qo'shma gaplardan keng foydalanishini, so'z tartibida hozirgi o'zbek adabiy tilidagi tartibga rioya qilinishini misollar yordamida tushuntirib berganlar.

Ilmiy uslub.

Fan va texnika, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan uslub ilmiy uslub hisoblanadi. Ilmiy uslubda darsliklar va o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, ilmiy referatlar, dissertatsiyalar, ilmiy taqrizlar, ilmiy maqolalar yoziladi. Ilmiy uslub o'ziga xos bo'lgan bir qator xususiyatlari bilan boshqa vazifaviy uslublardan farq qilib turadi. U bir qancha jihatlari bilan rasmiy ish qog'ozlari uslubiga ham o'xshab ketadi. Aniqlik, fikrlarning mantiqiyligi, ob'ektivlik, fikrlarni ilmiy tarzda bayon qilish, leksik jihatdan atamalarga va mavhum ma'noli otlarga, ya'ni so'zlarga asoslanish kabi xususiyatlar bu uslubning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Tilshunos olim R.Qo'ng'urov va boshqalar ilmiy uslubning ikki asosiy leksik qatlami sifatida atamalarni va umumiste'moldagi so'zlarni

ko'rsatadilar hamda o'z navbatida atamalarni yana ikkiga, ya'ni umummilliy atamalar va soha atamalariga ajratadilar³⁸.

Bu olimlar umummilliy atamalar deganda kundalik faoliyatimizda faol qo'llanilayotgan atamalar, ya'ni meditsina, fan va texnikaning turmushimizda ko'p qo'llanuvchi so'zlarini nazarda tutsalar, soha atamalari deganda esa ma'lum bir sohada qo'llanadigan atamalarni e'tiborda tutganlar. Umumiste'mol so'zlariga esa ko'makchilar va yordamchi so'zlarni kiritadilar. Ilmiy uslubga oid ayrim matnlar faqatgina tor doiraga, ya'ni mazkur soha mutaxassislariga mo'ljallangan bo'lib, ularni oddiy o'quvchi tushunishi qiyin. Bunday matnlar gaplarning grammatik qurilishi, ilmiy terminlarga boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, quyidagi matnga e'tibor qilaylik: "Epitelial tish tasmachalari hujayralari guruhlariga bo'linib, har biri bo'lajak jag' sohasida 10 tadan epitelial emal a'zolari (tish kurtaklarining dastlabki holati)ni hosil qiladi. har bir emal a'zosining rivojlanish jarayonida tashqi va ichki qavat hujayralari hosil bo'ladi. hosil bo'lgan tashqi qavat hujayralari kubsimon, ichki qavat hujayralari esa silindr shakliga ega bo'lib, ular ameloblastlar deb yuritiladi. Tashqi va ichki qavat hujayralari yoysimon bo'lib, uchlari bir-biri bilan tutashadi. Natijada, emal a'zosi vujudga keladi. hosil bo'lgan ichki va tashqi hujayralar qavati orasida juda nozik to'rsimon to'qima – emal a'zosining pulpasi, yulduzsimon hujayralar to'plami shakllanadi. Shakllangan emal a'zosining ko'ksi (qadaq bo'shliqi)ga qarama-qarshi tomondan mezenxima to'qimasi o'sib kirib, tish so'rg'ichini hosil qiladi. Keyinchalik mezenxima to'qimasi shakllanib, tish kurtagi atrofini o'rab oladi va umumiy tish qopchig'i – follikulani shakllantiradi. Hosil bo'lgan tish follikulasi o'z ichiga emal a'zosini va tish so'rg'ichini oladi. Rivojlanishning keyingi davrlarida emal a'zosining ichki silindrsimon hujayralar qavatidan (ameloblastlar) – emal, tish so'rg'ichining chetida joylashgan hujayralardan (odontoblastlar) – dentin, markaziy qavat hujayralaridan – tish pulpasi shakllanadi. Epitelial tish tasmasi va kurtaklari homila rivojlanishi davrida oldin pastki, keyin yuqori jag' sohasida paydo bo'ladi. Oldingi tishlar kurtagi pastki jag' sohasida ettinchi haftaning, yuqori jah sohasida esa sakkizinchi haftaning oxirida hosil bo'ladi³⁹".

Ko'rinadiki, ilmiy uslubda so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan xususiyatlar mavjud emas. Unda qo'llanilgan tasviriy vositalar ham

³⁸ Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev .Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1992. B. 81-82.

³⁹ Stomatologiya kursidan o'quv qo'llanma \ Tuzuvchilar: G.R.Shukurova, F.X.Yakubova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.B.6-7

so'zlashuv uslubidagi kabi nutqning obrazlilikini, ifodaliligini ta'minlashga emas, balki aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Unda, asosan, terminlar, o'xshatish va sifatlash ko'p qo'llaniladi. Ilmiy uslubning yana bir xususiyati shuki, unda shartli belgilar ko'p qo'llanilib, bir ma'noni bildiradi.

Badiiy uslub.

Til vazifaviy uslublari tizimida badiiy nutq uslubi ham o'ziga xos alohida lisoniy belgilariga ega. Uning o'ziga xosligini ta'minlovchi omillardan biri uning til bajaradigan eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri bo'lgan ta'sir etishga mo'ljallanganligidir. Badiiy matn uslub talabidan kelib chiqib, tildagi mavjud birliklarni qamrab olish imkoniyatlarining kengligi, ularning turli ma'nolarda qo'llanishi, yozuvchi maqsadiga bog'liq holda qayta ishlanishi kabi xususiyatlari bilan hamma uslublarga xos jihatlarini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega. Nutqning turli ko'rinishlarini o'zida aks ettirgan matnlar til birliklarini qamrab olish doirasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ayniqsa, ular orasida emotsional-ekspressivligi, badiiy-estetik ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lgan badiiy matnlar alohida ajralib turadi. Chunki «Badiiy nutq stilida til obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy nutq o'zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa funktsional stillaridan ajralib turadi⁴⁰». Tilshunos M.Yo'ldoshev badiiy matn haqidagi fikrlarini shunday izohlaydi: «Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funktsional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek, qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi⁴¹».

Badiiy uslubda asar talabi bilan adabiy tilimiz uchun xos bo'lmagan, tor doirada qo'llanuvchi birliklar ham ishlatilishi mumkin. Lekin, ularni qo'llashda yozuvchi ma'lum bir maqsadni ko'zda tutadi. Bunda har bir qo'llangan til birligi ma'lum bir uslubiy vazifani bajarishga xoslangan

⁴⁰ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov X. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 30-b.

⁴¹ Y'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007, 35-bet.

bo'ladi. Badiiy nutq uslubida faol qo'llanadigan leksika bu neytral leksikadir. Bu barcha uslublarda birday qo'llana oluvchi birliklarning o'z vazifaviy tabiatiga ko'ra xabar berishlik xarakterida ekanligidan kelib chiqadi. Badiiy uslubda sinonimlardan foydalanishga alohida ahamiyat beriladi. Asarning mavzu talabidan kelib chiqib, til birligining sheva yoki tarixiy ko'rinishi ishlatilaveradi. Tilimizdagi ajak, -gusi, -qusi, -gali, -gay, -kin, -mish, -na, -on, -gil kabi qo'shimchalar faqat badiiy nutq uslubi uchun xosdir.

Badiiy uslubning o'ziga xos jihatlari uni boshqa uslublar bilan taqqoslaganda aniq ko'zga tashlanadi. Masalan, ilmiy uslubda monologik nutq etakchilik qilsa, badiiy uslubda monologik ham, dialogik nutq ham qo'llanaveradi. Bu uslubda, ayniqsa, poetik nutqda tilning ifoda tasvir vositalari keng ishlatiladi.

U ana shu xususiyatiga ko'ra ham boshqa uslublardan farq qiladi.

Xullas, bugungi kunda o'zbek tilining vazifaviy uslublari imkoniyat darajasida o'rganib chiqilgan. Vazifaviy uslublar o'zbek tilining amaldagi imkoniyatlarini va taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi muhim lingvistik omil hisoblanadi.



Tekshirish uchun savollar

Nima uchun me'yor nutq madaniyati nazariyasining markaziy tushunchasi hisoblanadi?

Me'yorni belgilashdagi asosiy o'lchov nima va me'yorga qanday ta'riflar berilganligini bilasiz?

O'zbek nutqi adabiy me'yoring qanday ko'rinishlarini bilasiz va ularning farqini qanday tushunasiz?

Lug'aviy me'yorga putur etkazuvchi qanday omillar bor?

Uslubiy me'yorni belgilashda qanday shart- sharoitlar hisobga olinadi?

Uslub - "stil" so'zi dastlab qanday ma'nolarni anglatgan?

Uslub tushunchasiga tilshunoslikda qanday ta'riflar berilgan?

Uslub va vazifaviy uslub tushunchalarining farqini qanday tushunasiz?

O'zbek tilshunoslikda vazifaviy uslublar bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan qaysi olimlarni bilasiz?

O'zbek tilshunosligida vazifaviy uslublar qanday tasniflanadi va bu tasniflar har xil ekanligining sababi nimada?

So'zlashuv uslubi qanday uslub va uning o'ziga xos bo'lgan qanday xususiyatlari mavjud?

Ilmiy uslub qo'llanish doirasidan kelib chiqib, o'z navbatida yana qanday ichki qismlarga bo'linadi?

Ommaviy uslubning qanday janrlari bor va uning boshqa uslublarga o'xshash va farqli tomonlari nimad?

O'zbek badiiy nutqi uslubining qanday janr xususiyatlari mavjud va uning adabiy tilning boyib borishidagi ahamiyati nimadan iborat?

“Badiiy adabiyot uslubi” va “yozuvchi uslubi” tushunchalarining o'zaro qanday farqi bor?

Adabiyotlar:

1. **Urinboev B.** *Voprosy sintaksisa uzbekskoy razgovornoy rechi.* Avtoref. diss. ...d-ra filol. nauk. Tashkent, 1974.

2. **Babaxanova D.** *Ofitsialno – delovoy stil sovremennogo uzbekskogo yazo'ka.* Avtoref. diss. ...kand. filol. nauk. Tashkent, 1979.

3. **Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov T.** *O'zbek tilining funktsional stillari.* Samarqand, 1984.

4. **Mahmudov N.** *O'qituvchi nutq madaniyati.* Toshkent, 2009.-188 b.

5. **Mukarramov M.** *Nauchno'y stil sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazo'ka v semantiko-funktsionalnom aspekte.* Avtoref. diss. ...d-ra filol. nauk. Tashkent, 1985.

6. **Kurbanov T.** *Publitsisticheskiy stil sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazo'ka.* Avtoref. diss. ...kand. filol. nauk. Tashkent, 1987.

7. **Karimov S.** *O'zbek tilining badiiy uslubi.* Samarqand, 1992.-140 b.

NUTQNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

O'quv maqsadi

Talabalarga nutqning to'g'rilik, aniqlik, soflik, ifodalilik, o'rinlilik, ta'sirchanlik, mantiqiylik kabi asosiy xususiyatlari to'g'risida ma'lumot berish va nutqning turli ko'rinishlariga xos bo'lgan matnlarni tahlil qilish orqali ma'lum amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

Asosiy ma'lumotlar

Ma'lumki, nutq juda murakkab hodisa sanaladi. U so'zlovchi yoki yozuvchi tjmonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishidir. U til bajaradigan ijtimoiy vazifalarni aks ettiradi va birgina til hodisasi bo'lishi bilan chegaralanmaydi. U o'zida ifodalangan fikrlar mazmuniga ko'ra ruhiyat, nafosat hodisasi hamdir.

Ma'lumki, tildagi etiket ifodalovchi lisoniy vositalar kommunikatsiya jarayonida ma'lum bir uslubiy vazifani bajaradi. Etiket deyilganda jamiyatda, ijtimoiy grupp va sh.k.da qabul qilingan o'zaro muomala qoidalari majmui tushuniladi. Shunga ko'ra muloqotchilarning nutq jarayonida nutq qaratilgan shaxsning jamiyatda egallab turgan ijtimoiy mavqei, oilaviy, kasbiy jihatdan yaqinligi kabi jihatlarni ham hisobga olishi ular tomonidan qo'llanilgan til birliklarining tanlab olib ishlatilishiga, emotsional - ekspressivlik kasb etishiga olib keladi. Suhbatdoshlar o'rtasidagi muloqotning qanday xarakterda ekanligi, muloqot mavzusiga bog'liq holda tilning aloqa, xabar yoki ta'sir etish vazifalari namoyon bo'ladi. Bu vazifalar muloqot jarayonida qo'llaniluvchi lisoniy birliklar vositasida yuzaga chiqadi. Tilda mavjud bo'lgan lisoniy birliklar, xususan, munosabat ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan leksik va frazeologik vositalarning qo'llanilishi, avvalo, nutq ishtirokchilarining milliy xususiyatlari bilan, ya'ni ularning an'analari va urf-odatlar, dunyoqarashi, e'tiqodi, tafakkuri kabi etiket ifodalovchi jihatlar bilan chambarchas bog'liq. Har bir millatga xos bo'lgan etiket ifodalovchi xususiyatlar xotin-qizlar nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Xotin-qizlar nutqiga xos bo'lgan soddalik, shirinso'zlik, xushmuomalalik, ta'sirchanlik kabi jihatlar asrlar davomida puxtalangan, silliqqlangan va qat'iy odat tusiga kirib qolgan xususiyatlar hisoblanadi.

Insonning jamiyatda egallab turgan mavqei, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, odob-axloqi, atrofdagilarga bo'lgan munosabati dastlab uning tilida, qanday til birliklaridan foydalanishida ko'rinadi.

Kommunikatsiya jarayonida dastlab nutq ishtirokchilari o'rtasida aloqani ta'minlash, ma'lum bir voqea-hodisa to'g'risida xabar etkazish ko'zda tutilgan bo'lsa-da, buning zahirida nutq qaratilgan shaxsga ta'sir etish maqsadi yotadi. Shu boisdan muomala kishi nutqiy faoliyatining hamma sohalariga birday aloqador bo'lgan, ularni qamrab oluvchi ijtimoiy kategoriya hisoblanadi.

Kommunikatsiya jarayonini tashkil etuvchi muhim komponentlar so'zlovchi va tinglovchi, ya'ni nutq qaratilgan shaxs hisoblanadi. Muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda kommunikatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi ichki va tashqi birliklar ham asosiy komponentlar sifatida qayd qilinadi.

Tilda mavjud bo'lgan lisoniy vositalarni qo'llashda erkaklar va ayollar nutqi o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Bu haqida fikr yuritganda shuni ham alohida qayd etish lozimki, ayollarning tilda mavjud bo'lgan lisoniy birliklardan foydalanishida ularning kommunikativ maqsadi, nutqiy muloqot jarayonida tutgan mavqei muhim o'rin tutadi. Yozuvchi P.Qodirovning «Ona lochin vidosi» romanida Gavharshodbegimning Ulug'bekka bo'lgan munosabati emotsional-ekspressiv xususiyatga ega bo'lgan bir qator etiket ifodalovchi lisoniy vositalar yordamida ochib berilgan. Asarda Gavharshodbegim va Ulug'bekning uchrashuvi quyidagicha tasvirlangan: Gavharshodbegim ko'pdan beri ko'rmagan o'g'lini bag'riga bosganda ko'zlarida quvonch yoshlari yiltiradi.

– Xush kelibsiz, Hazrati onajon! Samarqandu Buxoro Sizga peshkash! Narigi qirg'oqda Abdulatif yo'lingizga poyandoz to'shab turibdilar!

– Abdulatif ham keldimi?! Xayriyat!...

Kema chayhalib silkinganida Gavharshodbegim barra po'stin kiygan Ulug'bekning baquvvat elkalaridan ushlab muvozanat saqlardi:

– Ulug' o'g'lim, to'ng'ich o'g'lim, suyangan tog'imsiz! – deb Ulug'bekni bolalik paytidagidek erkalatib sizlardi. Narigi qirg'oqda kema to'xtagan joyga chindan ham qip-qizil gilam poyandozlar to'shlagandi. Poyandoz chetida xipcha bo'yli novcha Abdulatif momosini ta'zimu tavoze'lar bilan kutib oldi. Gavharshodbegim uning egilgan boshini qo'llari orasiga olib:

– Momosi o'rgilsin Latifjondan! – deb peshonasidan o'pdi. (P. Qodirov)

Matnda qo'llanilgan «Ulug' o'g'lim, to'ng'ich o'g'lim, suyangan tog'im», «momosi o'rgilsin» kabi erkalash mazmunidagi ijobiy munosabat

ifodalovchi birliklar gapning ayollar nutqiga tegishli ekanligidan dalolat bermoqda.

Kommunikativ vaziyatga bog'liq holda so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabati turli ko'rinishda yuzaga chiqishi mumkin. Yozuvchi Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» asaridan olingan quyidagi parchada qo'llanilgan so'z va birikmalarda so'zlovchi munosabati, uning harakatlari axloqiy mezonlarga mos kelmasligi aks etgan:

O'g'lini boshini quchoqlab olib, qaltiroq tovushda:

- Unday demang! - dedi u zaif va alamli tovushda. Unday deb bolani buzmag. hali tirik ekanman, hech kimga urishga yo'l qo'ymayman, eshityapsizmi?! Yo'l qo'ymayman... hech kimga kaltaklatib ham qo'ymayman... Men o'lganimdan keyin urasiz bularni...

- Oho! - dedi Ne'mat uzunning xotini, butun qishloq eshitsin deganday qo'llarini beliga qo'yib, gavdasini likillatib, battar shanhillay boshladi. - Oho, hali men oppoqman ham dersiz, hali bolani ham sen tug'ding dersiz? Yo'q, nega ham g'arlik qilib, ham baland kelasan... U birdan sensiray boshladi.

- Bolani men emas sen tuqqansan, buzuqlikni sen qilgansan, yana bolangni ham buzasan, birovlarini ur, deb o'rgatasan!.. O'ynash orttirib, qishloqni sharmanda qilganing etmaganday? bolangni ham bosmachilikka o'rgatasan, senga kim qo'yibdi gapirishni? Oldin etagingdagi dog'ni yuvib ol. Keyin gapirasan. Oldin bolalaringni tiyib yur, katta bo'lsa, bularniyam o'ynashlikka o'rgatasan...

-Bas qiling !.. Telbalarday o'kirib o'rnidan turdi Anzirat. Unga oxirgi gap juda o'tib ketgan, u dag'-dag' titrar edi. Ko'zlaridan yosh quyilib oqar, lekin artishni xayoliga ham keltirmasdi.

-Bas qiling, hozir chopib tashlayman! U pechkaning oldida turgan boltaga tashlandi.

- Chopib tashlayman... jonimdan to'yib ketdim. Boltani ko'tarib oldinga yugurdi.

- Tinch qo'yanmi, yo'qmi?! Nega meni uyimga bostirib kirib ayg'oqchilik qilasan.. Nega bolalarimga kun bermaysizlar? Men senlarga nima gunoq qildim, nima ayb qildim...senlarga...arpalaringni xom o'rdimmi? Eringni o'ynash qildimmi?! Nega hammang menga osilasanq!

- Uning vajoqati qo'rqinchli edi. Ko'zlari quturganday qizarib ketgan, ro'moli tushib, oqish sochlari to'zib ketgandi. Lablari qazabdan titrar, qo'llari qaltirar edi.

Hammang meni gap qilasan, hammang alamingni mendan olasan. Nima, o'zlaring oppoqmi?! O'zlaring hech ayb qilmaganmisanlar?!

Aybimni bilmaydi deb o'ylaysizlarmi?! hammangni o'ldiraman...o'ldiraman!...(85-bet)

Yuqoridagi matnda qo'llanilgan “ham g'arlik qilib, ham baland kelmoq”, “buzuqlik qilmoq”, “o'ynash orttirmoq”, “o'ynashlikka o'rgatmoq” kabi birikmalarni nutq jarayonida qo'llash axloqsizlik, nutq madaniyati qoidalariga rioya qilmaslik sanaladi.Ularni qo'llash nutqni nursizlantiradi.

Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanidagi Kumushning Otabekka yozgan xati xalqimizning asrlar davomida shakllangan axloqiy mezonlari xotin-qizlar nutqida qay darajada qat'iylashganligiga misol bo'la oladi:

Begim, garchi achchiqlansangiz ham aytishka majburman: sizda vijdon, insof, rahm, va'da, vafo, yaxshilikni bilish, boring-chi, odamgarchilikdan hech gap yo'q emish. Bil'aks siz: hiylakor bir tulki, og'zi qon bir bo'ri, rahmsiz bir jallod,uyatsiz bir yigit!

Sizni hiylakor dedim: esingizda bormi, sodda otamni, go'l onamni qandoqlar qilib aldadingiz? Yodingizda bormi, sham' yonida meni aldab aytkan so'zlaringiz, bergan va'dalaringiz, «manim orzum» deb qilgan xitoblaringiz, to'kkan ko'z yoshlaringiz?... Bas, bu hiylalar ,bu makrlar sizdan boshqa kimda topilsin?

Sizni og'zi qon bir bo'ri dedim: chunki sizda rahm yo'q. Siz o'zingizning zaharlik tishlaringiz bilan mazlumlar ko'ksini, bayovlar bag'rini chok etasiz; yangi ochilqan gullarni, endi bosh tortqan lolalarni vaqtsiz so'ldirasiz, ochilib bitmay o'ldirasiz!

Sizni uyatsiz dedim: ilgarigi vajohatingiz bilan o'zingizning qaqqingiz bitkanligini bilaturib ham yana uyalmay-qizarmay vijdotsizlar amrini berasiz va uyatsizligingizni yana bir hat ortdirasiz!

Keltirilgan matn tahlilida ayollar nutqining o'ziga xosligini belgilovchi bir qator holatlar oydinlashadi.

Avvalo, sharqona odob-axloq mezonlari, asrlar davomida shakllangan qoidalariga ko'ra o'zbek xotin-qizlari o'z turmush o'rtog'iga murojaat etishda ularning ismini qo'llamaydilar. Shuning uchun Kumushning Otabekka nisbatan « Begim» deb murojaat qilishida uning ana shu an'anaga rioya qilganligi ko'zga tashlanadi.

Sharqona odob-aqloq qoidalariga ko'ra ayollar munosabat ifodalashda, ayniqsa, turmush o'rtog'iga murojaat qilishda nutqiy vaziyat uchun mos bo'lgan lisoniy vositalarni qo'llashga harakat qiladilar. Shu tufayli Kumushning Otabekdan xafaligi, uning xatti-harakatidan noroziligi piylakor, tulki, bo'ri, jallod kabi leksemalar vositasida ifodalangan.

Matnda Kumush nutqida qo'llanilgan «mazlumlar ko'ksi», «bayovlar bag'rini chok etmoq», «bosh tortqan lolalarni vaqtsiz so'ldirmoq, ochilib bitmay o'ldirmoq» kabi frazeologizmlar esa uning ichki kechinmalari, sog'inchi, kuchli emotsional holatini ochib berishga xizmat qilgan.

So'zlovchi ham, yozuvchi ham o'z nutqini til birliklarini tanlab olib, ulardan chegaralangan holda foydalanish bilan shakllantirar ekan, ma'lum maqsadni- ularni qo'llash orqali o'z nutqi qaratilgan shaxsga biror ma'lumot etkazish yoki olishni, u bilan aloqa qilishni yoki unga ta'sir etishni ko'zlaydi. U har bir holatda ham o'z maqsadiga erishish uchun o'z nutqining jozibador, go'zalligini ta'minlashga intiladi. Ana shundan kelib chiqib, nutq oldiga ma'lum bir talablar quyiladi. Bu talablar nutq madaniyatiga oid darslik va qo'llanmalarda nutqning aloqaviy sifatlari tarzida ta'riflanadi. Ana shu talablar asosida tuzilgan nutq madaniy nutq hisoblanadi. Xo'sh, inson nutqining madaniy nutq darajasiga ko'tarilishi uchun qanday sifatlilar lozim? Quyida shular haqida fikr yuritamiz .

Nutqning to'g'riligi

Nutqning bosh aloqaviy sifatlaridan biri uning to'g'ri bo'lishidir. Nutqning to'g'ri bo'lishi so'zlovchi va tinglovchi, yozuvchi va o'quvchining bir- birlarining fikrlarini tushunib olishlarini ta'minlaydi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishidir. Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan ikki me'yorga-urqu va grammatik me'yorga qattiq amal qilishni taqozo qiladi. Bunda o'zbek tili uchun urg'uning asosan, so'zning oxirgi bug'iniga tushishi, qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'uning so'z oxiriga tomon siljib borishi nazarda tutiladi. Ba'zan urg'u noto'g'ri tushsa, so'zning ma'nosi ham o'zgarib ketadi. (qatlama-qatlama, olma- olma, yigitcha kabi). Urg'uni farqlamaslik so'z ma'nosining buzilishiga olib keladi. Bu holat gapdagi ayrim olingan so'zga tushadigan urg'u (mantiqiy urg'u) misolida ham kuzatiladi.

Men ertaga samolyotda Toshkentga uchaman.

Keltirilgan bu misolda urg'uning o'zgarishi bilan gapning ma'nosi butunlay o'zgarib ketadi.

Grammatik me'yorga kelish deganda gap tuzishda, o'zak va qo'shimchalar imlosida, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar mosligini ta'minlash nazarda tutiladi.

Bularga amal qilmaslik esa morfologik - sintaktik me'yorning buzilishiga olib keladi. Natijada nutqning to'g'riligiga putur etadi.

Nutqning aniqligi

Nutqning aloqaviy sifatlaridan biri aniqlikdir. Nutqning aniqligida tildan tashqarida turuvchi holatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu avvalo, til va tafakkur dialektikasidir. “Chunki, aniqlik deyilganda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo’lgan material o’rtasidagi mutanosiblik tushuniladi.” Tabiat va jamiyatda har bir narsa, har bir hodisa o’zining lisoniy ifodasiga ega bo’ladi. Inson ma’lum bir so’zlarni, ya’ni o’sha narsalarning tilidagi ifodasini aytar ekan, boshqalar ongida shu narsa gavdalanadi. Bunda so’zlovchi yoki yozuvchi o’zi aytmoqchi bo’lgan narsaning mohiyatini to’la aks ettiradigan so’zni qo’llashi lozim bo’ladi.

Bu o’rinda A Qahhorning yozuvchi Ma’ruf Hakim hikoyasidan nutqning aniqligiga putur yetgan “qo’lida bomba ushlagan holda ko’chaga yugurdi” degan misolni keltirganligini eslash kifoya. Vaholanki, frantsuzcha “portlatuvchi yoki yondiruvchi snaryad” ma’nosini anglatuvchi bomba⁴² so’zining og’rligi va hajmi katta bo’lgan predmetga nisbatan qo’llanishi, yuqoridagi misolda esa granata so’zi ishlatilishi lozimligi yosh bolaga ham ma’lum.

Nutqning aniqligiga putur etkazuvchi omillardan yana biri sinonimlarni o’z o’rnida qo’llamaslikdir, bu ulardagi ma’no nozikliklarni yaxshi farqlamaslik oqibatida kelib chiqadi. Ma’nolari yaqinday tuyulgan so’z va birikmalarni qo’llashda ko’p ma’noli so’zlardagi ma’no nozikliklarini payqamaslik tufayli ularni ishlatishda nutqda ba’zan qo’pol xatolarga ham yo’l qo’yiladi. Natijada nutqning aniqligiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi g’alizliklar yuzaga keladi. Shuning uchun ba’zan “salqin ichimliklar”, “oxirgi yillar”, “katta bo’yli”, “katta sochli” singari holatlarga duch kelamiz. Shuning uchun har bir holatda ham so’zlovchi yoki yozuvchi shakl va mazmun mosligiga e’tibor qilishi, o’z nutqining tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarga mos kelishini ta’minlashga harakat qilishi lozim.

Nutqning mantiqiyliigi

Nutqning bu sifati yuqorida ko’rib o’tilgan to’g’rilik va aniqlik kabi sifatlar bilan aloqadordir. Boshqacha aytganda, nutqning mantiqiy bo’lishi uchun u to’g’ri va aniq bo’lishi shart. Agar bunday bo’lmasa, nutq mantiqiy jihatdan ham buzilgan bo’ladi. So’zlovchi yoki yozuvchi

⁴² O’zbek tilining izohli lug’ati. Birinchi jild. "O’zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.B.311..

nutqining mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lishi uchun uning nafaqat o'z gapini grammatik va leksik jihatdan to'g'ri shakllantirishi, balki o'zi fikr yuritayotgan mavzuni yaxshi bilishi ham talab etiladi. Quyidagi misolga e'tibor qilaylik:

Kunlardan birida Mahmud Beruniyni sinamoqchi bo'lib, unga savol beribdi: - Ey munajjim! Aytginchi, qur'oni karimda bashoratchilik qoralangan, lekin, ayrim munajjimlar quyosh va oy tutilishini oldindan bashorat qilaman deb da'vo qilishadi, Sen ham shu fikrdamisanq - Men masalaga mantiqan yondashish tarafdorimanq Shunday hodisalar borki, ularning harakatlanishini o'lchab, agar unga tashqi kuch xalaqit bermasa, falon narsa, falon vaqtda, falon joyda bo'ladi, deb bashorat qilish mumkin. Shunday hodisalar borki, ularning holati biz biladigan ta'sirlardan yashiringan bo'ladi, ularning sababini bilmaganimiz uchun bashorat qilib bo'lmaydi. qur'oni karimda ana shunday hodisalarni nazarda tutib soxta bashoratchilik, folbinlik qoralangan. Yolg'onchilardan bizni xudoning o'zi asrasin. Osmon yoritgichlarining harakatlanishi bir tekisda o'zgarishsiz boradi va muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Shu sababli ularni oldindan aytib berish mumkin. Falakkiyot ilmiga tayanib quyosh va oy tutilishini oldindan bashorat qilish mumkin. Mahmud bu fikrni eshitgach, g'azabi qaynaydi va ataylab Beruniyni mulzam qilish niyatida yana savol beradi:

- Ey "bashoratchi", sen hozir men shu binoning qaysi eshigidan chiqishimni o'z ilmingga tayanib topginchi? - deydi. Mahmud shu payt 12 ta ishigi bor aylana shaklidagi binoda majlis qurayotgan edi. Beruniy Mahmudning vajohatini yaxshi anglab etdi va bir qog'ozga bir qancha so'zni yozib, uni Mahmudga uzatdi. Mahmud qog'ozni o'zi o'tirgan o'rindiqlik tagiga bekitib qo'ydi. Mahmud shunda Beruniyga ise'hzoli arab, xizmatkoriga buyurdi: -Zudlik bilan bu erga duradgorni chaqirib kel, mening ro'paramdagi devordan 13-eshikni ochsin! – dedi. Duradgor kelib 13-eshikni o'rnatdi. Mahmud shu eshikdan chiqib ketdi. Bir oz vaqtdan so'ng, hammalari shu joyga yana to'plangach Mahmud Beruniy yozgan qog'ozni bekitilgan joydan oldi. Majlisda guvoq bo'lganlardan biri qog'ozni o'qidi. Qog'ozga shunday so'zlar bitilgan edi: "Hukmdor! Siz bu binodagi 12 ta eshikning birortasidan chiqmaysiz. Ro'parangizdan 13-eshikni ochtirib, o'sha eshikdan tashqariga chiqasiz." Majlis ahli bu holatdan nihoyatda hayratga tushishdi. Mahmudning esa g'azabdan yuzlari qizarib ketdi va amir qildi: - Bu shakkok olimni zindonga tashlanglar! hukm ijro etildi.

E'tibor berilsa, Beruniyning savolga to'g'ri javobni topishiga uning hukmdor Mahmudning imkoniyatlari keng ekanligi, istagan ishini amalga oshirishi mumkinligini, qolaversa, hukmdorning o'yi saroyda bajarilayotgan ishlar doirasida bo'lishini e'tiborga olib, u hech kim kutmagan ishni qilishini sezganligini zukko o'quvchi birdan anglaydi. Aytish mumkinki, Beruniy mazkur holatda mantiq qoidalariga asoslanib, fikr yuritgan va uning javobi mantiqan to'g'ri bo'lgan.

Tilimizda “ovqatga o'tirmoq”, “kuy va raqslar tinglamoq”, “choyga o'tkazmoq” kabi holatlar ham mavjudki, bunga nutqning mantiqiy mezoni buzilgan deb qarash mumkin.

Tilshunos olimlar M.Mirtojiyev va N.Mahmudovlar quyidagi fikrlarni bildiradilar:

“So'zni yetarli qis qilmaslik, o'xshatishlardagi mantiqiy ziddiyat ko'p so'zlik, grammatik jihatdan so'z formulalarining noto'g'ri qo'llanishi kabi nuqsonlar Said Ravshanning “Do'zax” nomli qissasida (“Sharq yulduzi”, 11-son) juda-juda seziladi. Mana bu parchaga e'tibor qilaylik:

“Quduq ichi nam, zax edi. Devorlari sathining u er-bu erida yakkam – dukkam yantoq, tuyatovon, chuchukmiya o'sgan”. Quduqning sathi deganda nima tushuniladi?

Agar quduqdagi suvning sathi deyilmoqchi bo'lsa, u erda yantoq va hokazo qanday o'sadi? Yoki mana bu parcha: “Cho'zilib, bir oz hordiq yoydi, atrofga tikildi”.

Avvalo, to'g'risi “hordiq chiqardi” bo'ladi. Keyingi jumлага kelsak, atrofga tikilib bo'lmaydi, qarash mumkin, chunki “tikilmoq”da qat'iy bir yo'nalish bor, “atrof” esa ko'p yo'nalishli. Shuning uchun “atrofga tikildi” birikmasida ham mantiqiy, ham lingvistik ziddiyat bor. Yoki “bir gazcha balandlikka ko'tarilganida bir “zina” o'pirilib, u qaytib pastga qulab tushdi”. Avvalo, “gaz” eskirgan so'z (0,71 metrni bildiradi), “metr” so'zini qo'llaganda ham shu o'rinda yozuvchi hech nima yutqizmaydi, balki yutadi, ko'pchilikka tushunarliroq bo'ladi. Mazkur gapning ikkinchi qismida esa “ishlamayotgan”, ortiqcha so'z ko'p. “qulab tushdi” bo'lgandan keyin, tabiiyki, tepaga emas, albatta pastga bo'ladi, “qulab tushdi”ning ichida “qaytib” ma'nosi ham bor. So'z isrofgarchiligi naqd ko'rinib turibdi.

Yozuvchining “Katta, yo'g'on, uzun quvurlar xuddi temir yo'l izidek bir chiziq bo'ylab tashlab ketilgan” qabilidagi o'xshatishlarida mantiqiy ziddlik mana-man deb turibdi. Temir yo'l izining bir chiziq emas, balki ikki chiziqligi ma'lum-ku! Odatda “Suv ichkisi kelganday suv ichdi” jumlası kulgili tuyuladi, chunki tautologiya bor. “Do'zax” qissasida esa shunga

o'xshash “Bosh buxgalter halovati buzilgan odamdek betoqatlandi” tarzidagi o'xshatishlar badiiylik sifatida taqdim etiladi⁴³. Xuddi shunday holatni ommaviy axborot vositalari tilida ham uchratish mumkin. *“Biz bugun bog'larning bog' bo'lishida muhim o'rin tutgan suv masalasida qisqacha to'xtalmoqchimiz”* (“Ma'rifat” gazetasi, “Noyob topilma”, 16.05.2015). *“Ayni kunda televizor beminnat bolani voyaga etkazishda ota-onalarning beminnat yordamchisiga aylangani sir emas”* (“Hurriyat” gazetasi, “qush tilini qush biladi”, 11.02.2015). Gapning mazmuniga e'tibor qiling. Gazeta tilida bu kabi qaytariqlar ifodalanayotgan fikrning mantiqan buzilishiga olib keladi.

Ko'rinadiki, mantiqiylik og'zaki va yozma nutqda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin shu o'rinda ta'kidlash joizki, fikr ifodalashda mantiqsizlik ko'proq she'riy matnlarda kuzatiladi. Ijodkorlar she'r yozishda qofiya, bo'g'in, vazn talablariga rioya qilib, ko'pincha o'zlari sezmagan holda xatolikka yo'l qo'yadilar. Masalan, yosh shoir Ahad Qayumning “Avvalo inson bo'l” nomli she'ridan olingan quyidagi bandni olaylik:

*Omad ostonangda turganda gullab,
Lazzatning tamidan hidlagin o'ylab,
O'zingdan pastlarni atayin qiynab,
Jonini og'ritma, darmon malham bo'l,
Avvalo inson bo'l, avval odam bo'l!*

She'rdagi o'quvchining tasavvur qilishi qiyin bo'lgan omadning gullashi, lazzat ta'midan hidlash kabi voqelikka mos kelmaydigan ifodalar g'alizlikni, mantiqiy nomuvofiqlikni yuzaga keltirgan. Bu kabi g'aliz jumlar shoirning “Savol” she'r “Savol” she'rida “Umidlar kuyini kuyolmayapman”, “Onamga xat” “Musofirda yursam duosiz” “Koyimang, sen kinga ketding deb”, “Tortmang dilni g'ashga, onajon” tarzida uchraydiki, bu kabi ifodalar asarning mantiqiylikiga putur etkazgan. Bu kabi holatlar boshqa ijodkorlar asarlarida ham uchraydi.

Nutqning tozaligi

Madaniy nutqning, ya'ni adabiy til talablariga mos kelmaydigan g'ayri me'yoriy unsurlardan holi bo'lgan ideal nutqning yuzaga kelishini ta'minlovchi omillardan biri nutqning tozaligidir. Ideal nutq masalasi bugungi kunda o'qish-o'qitish xodimlari, shoir va yozuvchilar, xullas, har bir ziyoli kishi oldida turgan muammolaridan biridir. Tilimizda mavjud bo'lgan dialektizimlar, varvarizmlar, vulgarizmlar, parazit so'zlar nutqning tozaligiga salbiy ta'sir etuvchi unsurlar hisoblanadi. Tilshunoslikda

⁴³ Mirtojjeva M, Mahmudov N. Til va madaniyat. T: O'zbekiston, 1992, 108-b.

vulgarizmlar deb ataluvchi haqorat so'zlarda o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda temalari juda ochiq ko'rinib turgan bo'ladi. Haqorat so'zlari, varvarizmlar badiiy asarlarda, asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan varvarizmlar, vulgarizmlarni kimning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqei, yoshi kabilari) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo'llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo'ladi.

Ma'lumki, qayerda til birliklarini qo'llashda tanlash imkoniyati mavjud bo'lsa, o'sha yerdan uslubiyat boshlanadi. Shoir va yozuvchilarimiz tomonidan yaratilgan har bir asar kitobxonga ma'lumot beruvchi manba bo'libgina qolmay, balki ta'sir etish vositasi ham hisoblanadi. Shunday ekan, ijodkordan so'z tanlashda juda ehtiyotkorlik talab qilinadi. Hozirgi davr o'zbek adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, turli janrda yaratilgan badiiy asarlarda tor doirada qo'llanuvchi so'zlaridan foydalanishda intilishning kuchli ekanligi seziladi. Bu esa o'z navbatida badiiy asarlar tilining quruq, ta'sirsiz bo'lishiga olib kelmoqda.

Nutqning ta'sirchanligi

Yaxshi nutqni shakllantirishdan asosiy maqsad uning ta'sirchan bo'lishini ta'minlashdir. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqining yuzaga chiqishidan maqsad tinglovchi yoki o'quvchi ongiga ta'sir qilishdir. Bunga erishish esa qanday til birliklarining tanlanishi va o'rinli qo'llanishiga bog'liq. Yuqorida nutqning aloqaviy sifatlari haqida fikr yuritgan edik. Ana shu sifatlarning nutqda mavjud bo'lishi ham o'z navbatida nutqning ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi. Nutqning ta'sirchanligi haqida gapirganida quyidagi parchani keltirish o'rinlidir.

“...Kecha oydin, qabriston tip-tinch, uzoqroqdan qur'on tovushi eshitilar edi. Ikki tup chinor butoqlarida qo'nib o'tirgan uch-to'rtta boyqushlar, qabr yoniga tizlangan Otabek va yuqori, quyi do'mbaygan qabrlar bu tilovatga somi kabi edilar. Qur'on oyatlari qabriston ichida og'r ohangda oqar edi. Qabr yonida tiz cho'kkan yigitning ko'z yoshlari ham qur'on oyatlariga qo'shib oqar edi. Biror soatdan keyin tilovat to'xtadi. Otabek holsizlanib oyoq uzra turdi va orqasidagi yarim yalang'och ko'lagani ko'rib, bir necha qadam qabr tomonga tislandi... Ko'laga yalingansimon unga yaqin yurib keldi...

-Kim bu?

-Men Kumush...

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

-Ket mundan.

-Men Kumush... -dedi yana Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki, dunyodagi eng yaqin kishisi unga "Ket" amrini bergan edi. Zaynab orqasiga qaray-qaray Otabekdan uzoqlashdi".

Bu parchani o'qigandanoq uning naqadar ta'sirchan ekanligini sezamiz. Unda ifodalangan holat ko'z o'ngimizda to'lasincha namoyon bo'ladi. Yozuvchi tomonidan tanlangan har bir so'z o'rinli bo'lib, ular nutqning ta'sirchan bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan. Zaynabning orzu-armonlari, ruhiy holati birgina "Men Kumush..." degandayoq aks etgan. Bu esa o'z navbatida badiiy asar tilining ta'sirchanligini oshirgan. Shuningdek, «til o'z tabiatiga ko'ra kishilar o'rtasida xabar va aloqani ta'minlashdan tashqari tinglovchi yoki o'quvchiga estetik ta'sir etish vazifasini ham bajaradi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, ta'sir quvvatini namoyon etadi».

Nutqning ta'sirchanligi haqida gap ketganda beixtiyor O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" kitobidagi "Iltijo" deb nomlangan qism yodimizga tushadi:

Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim... qarang, oyi tag'in ko'klam kirdi. Esingizdami, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, ko'm-ko'k maysalarni ko'rib quvonardingiz. Esingizdami, nevaralaringiz terib kelgan boychechaklarni ko'zingizga surtib, Dunyoning ishlari (qissa). (O'tkir Hoshimov www.ziyouz.com kutubxonasi 105) «omonliq-somonliq» qilardingiz... Bugun... o'zingizning ustingizdan boychechak o'sib chiqibdi... Yo'q, yo'q, oyijon... Yig'layotganim yo'q. Bilaman, men yig'lasam, siz bezovta bo'lasiz. Hozir... hozir o'tib ketadi. Mana, bo'ldi... Ertalab-chi, oyi, yomg'ir yog'di. Qattiq yomqir yoqdi. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi... Esingizdami, siz menga oftob to'g'risida cho'pchak aytib bergan edingiz. O'sha oftob charaqlab yotibdi... Ko'ryapsizmi... Esingizdami, oyi, siz ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo'lib uxlab qolardim. O'sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qo'ysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana... Yo'q, yo'q, yig'layotganim yo'q. Hozir, hozir o'tib ketadi. Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, o'shandayam hazillashib: «Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim», degandingiz. Men: «Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?» degan edim. Xafa bo'lmang, men

hazillashgan edim. Mana, o'sha kitob. Yo'q, uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xoxlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi Sizga o'xshashini xoxlayman.

Nazarimizda matnda nutqning ta'sirchanlik kuchi qay darajada aks etganligini ta'riflashga hojat bo'lmasa kerak. Nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda yuqorida qayd etilganlardan tashqari tilning ifoda tasvir vositalaridan ham foydalanish yaxshi natija berishi mumkin. Bu o'rinda G'afur G'ulomning "Sen etim emassan" she'rini eslash kifoya. Bu she'rda qo'llanilgan tasviriy vositalar kishi ruhiyatida eng nozik his- tuyg'ularni uyg'otishga qodirdir.

Xullas, kishining tafakkuri, madaniy-ma'naviy saviyasi dastlab uning nutqida aks etadi. Shuning uchun ideal nutq masalasi doimo kun tartibida eng muhim muammo sifatida turadi. Shunday ekan, har bir kishidan og'zaki va yozma tarzda fikr ifodalashda nutqning aloqaviy sifatlariga jiddiy e'tibor berish talab etiladi.



Tekshirish uchun savollar

Madaniy nutq deb qanday nutqqa aytiladi?

Nutq oldiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

Nutqning adabiy tilga mos holda to'g'ri bo'lishida nimalar asosiy me'yor hisoblanadi?

Tilimizda nutqning aniqligiga salbiy ta'sir etuvchi qanday unsurlar mavjud?

Ideal nutq deganda qanday nutqni tushunasiz?

Yaxshi nutqni shakllantirishdan asosiy maqsad nima?

Adabiy til talablariga mos kelmaydigan g'ayri me'yoriy unsurlar deganda nimalarni tushunasiz?

Nutqning ta'sirchanligini oshirishda yumor, badiiy vositalarning o'rni qanday?

Adabiyotlar:

1. **Yo'ldoshev B.** *Badiiy nutq stilistikasi*, Samarqand, SamDU nashri, 1982.- 81 b.

2. **Yo'ldoshev M.** *Cho'lpon so'zining sirlari*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 80 b.

- 3.Yo'ldoshev M. *Badiiy matn lingvopoetikasi*. –Toshkent: Fan, 2008. - 159 b.
- 4.Karimov S.A. *O'zbek tilining badiiy uslubi*, Samarqand, "Zarafshon" nashriyoti, 1992. – 140 b.
- 5.Mahmudov N. *O'qituvchi nutq madaniyati*. Toshkent, 2009.-188 b.
- 6.Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov Q. *O'zbek tili stilistikasi*, Toshkent, O'qituvchi, 1983. – 248 b.
- 7.O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. *Badiiy matnning lingvistik taqlili*, Toshkent, O'qituvchi, 1990. – 216 b.

TILNING IFODA-TASVIR VOSITALARI VA SHIFOKOR NUTQI MADANIYATI

O'quv maqsadi

Talabalarga o'zbek tilining ifoda-tasvir vositalari deb yuritiluvchi troplar va uslubiy figuralar, ularning badiiy asar tilida badiiy-estetik ta'sirchanlikni yuzaga keltirishi to'g'risida ma'lumot berish.

Asosiy ma'lumotlar

Ma'lumki, tinglovchi yoki o'quvchiga aytilmoqchi bo'lgan fikrni tushunarli va obrazli tarzda etkazish uchun nutqning jozibador, ta'sirchan bo'lishi talab etiladi. Bu talab bevosita bemorlar bilan kundalik muloqotga kirishuvchi shifokorlarga ham taalluqlidir. Til aloqa jarayonida doimo qisqalikka, ixchamlikka intiladi. So'zlovchi yoki yozuvchi o'z fikrini ifodalashda uzundan- uzun jumlar tuzilishidan qochib, o'z fikrlarini ixcham tarzda, tildagi o'xshatish, sifatlash, ironiya kabi turli-tuman vositalardan foydalanadi. Ana shu qayd etilgan vositalar tilimizda ifoda-tasvir vositalari deb yuritiladi. Bu vositalardan foydalanish notiq nutqining ta'sirchan, ifodali bo'lishini ta'minlaydi. Notiq tomonidan o'rinli qo'llangan tasviriy vosita hikoya qilinayotgan narsa va voqea-hodisa to'g'risida tinglovchida aniq tasavvur uyg'otadi. Shu bilan birga notiqning vaqti ham ma'lum darajada tejaladi. Badiiy adabiyotda uslubiy maqsadda qo'llanilgan vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Til birliklarini nutqning turli ko'rinishlarida bajaradigan vazifasi eng avvalo, so'zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadiga bog'liq bo'ladi. Bunda nutq yo'naltirilgan shaxsga birgina ma'lumot etkazishgina emas, balki unga ta'sir etish, voqelik faktlariga nisbatan sub'ektiv munosabat uyg'otish ham ko'zda tutiladi. Ifoda-tasvir vositalari fikrlarning emotsional-ekspressiv tarzda ifodalanishini ta'minlash vazifasini bajaradi. Tilimizda qo'llaniluvchi ifoda-tasvir vositalari troplar va sintaktik figuralar

kabi turlarga ajratiladi. Ifoda-tasvir vositalarining o'ziga xos xususiyatlari ijodkor tili va uslubini o'rganishda, asar g'oyasini ochishga xizmat qiluvchi badiiy obraz yaratishda, turli ma'no nozikliklarini ifodalay olishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Troplar obrazlarni hosil qilishda bevosita ishtirok etadilar, uslubiy figuralar ijodkor fikrlarining to'g'ri va aniq, obrazli va ta'sirchan tarzda etkazilishiga xizmat qiladi.

“Stilistikaga oid adabiyotlarda sintaktik figuralarga tasviriylikning turli usullari kiritiladi. Bular dastlab poeziya doirasida, keyinchalik proza doirasida qarala boshlandi. Keyingi yillarda nashr qilingan adabiyotlarda esa sintaktik figuralar boshqa uslublar doirasida ham o'rganilyapti.

Sintaktik figuralar muzika va takrorlanuvchi muzikal frazalar kabi nutqni ohangdor, ta'sirchan va jozibador qilish, shu yo'l bilan uning tinglovchi tomonidan osonlik bilan qabul qilinishida muhim stilistik vositadir. Mana shuning uchun ham sintaktik figuralarni ma'lum darajada nutq muzikasi deb atash mumkin⁴⁴”.

Badiiy asarlar tahlilida uslubiy vazifa bajarishga xoslangan birliklarning ijodkor kommunikativ maqsadining amalga oshishiga ko'maklashuvchi keng qamrovli vositalar ekanligi, ularning milliy kolorit yaratishda, o'ziga xos badiiy obrazlar tasvirini berishda hamda har bir ijodkor uslubining individualligini ta'minlashda turli ma'no qirralari namoyon bo'ladi. Tilimizda badiiy adabiyotning eng muhim unsurlari hisoblangan hamda badiiy asar tilining emotsional-ekspressivligi, obrazlilikini ta'minlashga xizmat qiluvchi bunday vositalarga nisbatan “ifoda-tasvir vositalari”, “lingvopoetik vositalar”, “troplar”, “uslubiy vositalar”, “stilistik figuralar” kabi turli atamalar qo'llaniladi.

Tilimizda troplar va uslubiy figuralar ifoda- tasvir vositalari hisoblanadi. Tilshunoslikda ifoda tasvir vositalari uslubiy jihatdan tekshirilgan va ular haqida ilmiy ishlar e'lon qilingan⁴⁵.

Tilning ifoda-tasvir vositalaridan bo'lib hisoblangan troplar so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan aytilgan fikrning ta'sirchan, ifodali va tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida kinoya, ramz bilan qo'llangan so'z va iboralardir. Boshqacha qilib aytganda, “Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning

⁴⁴ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov Q. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983, .B.232. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov Q. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983, .B.232.

⁴⁵ Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent: Fan., 1977, -152 b.; Karimov S.A. Badiiy uslubning ifoda-tasvir vositalari. Samarqand, 1992.

nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi trop deyiladi⁴⁶”.

Tilshunos olim N.Mahmudov shunday fikrlarni bildiradi: “Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar (yoki troplar) nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylilik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Shuning uchun ham ko'chimlar o'ziga xos tasviriyl vositalar sifatida nutqning ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.⁴⁷” Olimning bu fikrlari tilshunos S.Karimov tomonidan yanada izchil davom ettirilgan. Olim badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bo'yicha kuzatish jarayonida ifoda-tasvir vositalarining qo'llanishini tahlil qilar ekan, shunday fikrlarni bildiradi: “Ularning troplar deb ataluvchi qismi obraz yaratishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi bir qismi – uslubiy figuralar esa, garchi obraz yaratmasa-da, ana shu obrazlarning shakllanishiga, barkamol, pishiq bo'lishiga, o'quvchining matnni to'g'ri va tez tushunib olishiga ko'maklashadi. Ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan, obraz yaratayotgan til birliklari darajasida bo'lmasa ham, ular vaziyatga qarab qo'shimcha ma'no ifodalaydi, tasvir ob'ektiga ijodkor bahosini beradi, yuksak emotsionallikni yuzaga keltiradi. O'quvchi yoki tinglovchidagi hissiyotlarning junbushga kelishida tezlashtiruvchi vosita rolini – katalizatorlik vazifasini bajaradi, yozuvchiga ko'makdosh bo'ladi. Badiiy ijodning qiyinchiligi ham shundaki, yozuvchi his-tuyg'ularni o'zi qanoatlanadigan darajada ifodalay oladigan til birligini axtaradi. Ularni bir-birlariga chog'ishtiradi, qarama-qarshi qo'yadi, yonma-yon qo'llaydi, takror ishlatadi va hokazo. Zero, troplarning o'zi so'zlarni asl ma'nolaridan ko'ra ko'proq ko'chma ma'noda qo'llashga intilishning natijasidir.”⁴⁸

Kishilar muloqot jarayonida doimo ta'sirli va ifodali so'zlashga intiladilar. Buning uchun ular muloqot jarayonida o'z kommunikativ maqsadlarining samarali tarzda amalga oshishlarini ta'minlovchi jimjimador, bo'yoqdor so'zlarni axtaradilar. Shu bois tildagi so'zlar ham o'z funktsional-semantik tabiatiga ko'ra nutqning u yoki bu ko'rinishi uchun xoslangan bo'ladi. Ularning ayrimlari ifodali bo'lib, obrazlilik kasb etsa, boshqalari esa nutqqa turli qo'shimcha ma'nolar kiritishga xizmat

⁴⁶ Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriyl vositalari. Toshkent: Fan, 1977, B.23.

⁴⁷ Mahmudov N. Nutq madaniyati va tilning estetik vazifasi // Filologiya masalalari. 2006, N2(11). B.68.

⁴⁸ Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda-tasvir vositalari. Samarqand, 1992. B.5., N2(11). B.68.

qiladi. Tilshunoslikda ma'no ko'chishi asosida yuzaga kelgan birliklar troplar deb, qo'shimcha ma'no ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar esa uslubiy figuralar deb yuritiladi. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish tamoyillari haqida fikr yuritgan tilshunos olimlar B.O'rinboev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovlar troplarning badiiy matndagi o'rni haqida fikr yuritib, ularni quyidagicha tasniflashni ma'qul ko'radilar:

1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozi.

2. So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya.

Tarixda so'z ma'nosi ko'chishiga asoslangan bunday vositalarning yuzdan ortiq turi shakllanganligi va sharq adabiyotida ma'naviy va lafziy san'atlar sifatida ulug'langanligi manbalarda qayd etilgan.

Metafora - ko'chma ma'no asosida yuzaga keluvchi vositalardan biri. Tilshunoslik, umuman notqlik tarixida fikr ifodalashning eng qulay vositalaridan biri, nutq bezagi sifatida qarab kelindi va shunga xos tarzda turlicha talqin izohlar yuzaga keldi. Masalaning ana shu jihatlarini inobatga olgan A.Hojiev bu hodisaga nolingvistik jarayon sifatida qarab, metafora uchun asos bo'lgan so'z ma'nosida biror bir o'zgarish bo'lmaganligiga, balki bu hodisa nom ko'chish asosida yuzaga kelishiga asoslanadi.

”Metafora asosida nom ko'chishi, -deb yozadi u, -narsa, belgi yoki harakatga xos atamaning (so'zning) o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa belgi, narsa, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo'llanishi, shu tushunchaning ham nomiga o'tishi (aylanishi)dir.⁴⁹” Metaforik fikr qiyoslash orqali rivojlantiriladi va tilda metafora hodisasi yuzaga keladi. Tilshunos B.Umurqulovning ko'rsatishicha, «til metaforasi badiiy metaforadan o'xshashlikning formasiga ko'ra farqlanadi: til metaforasi ikki predmet orasidagi bevosita yoki ochiq o'xshashlikka asoslangan ko'chimdir. Masalan: bosh so'zining asosiy leksik ma'nosi «bosh qism» bo'lib, tog'ning boshi, yo'lning boshi, ish boshi, jo'raboshi kabi ko'chma ma'nolarga ega. Badiiy metaforada predmetlar orasidagi o'xshashlik asosida badiiy bo'yoq, obrazlilik yotadi. Demak, badiiy metafora til metaforasidan, dastlab, fikrni obrazli ifodalashi bilan ajralib turadi. Badiiy metaforada o'xshashlik yashiringan holda bo'ladi». S. Usmonov tilda metaforaning yuzaga kelish sabablarini axtarar ekan, uning lingvistik va badiiy metafora kabi turlarini o'zaro farqlaydi: «Badiiy adabiyotda metafora o'xshatishning qisqargan formasi bo'lib, predmetning nomi

⁴⁹ O'zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: «Fan», 1981. B.221.

vazifasini bajarmaydi. Chunki bunda so'z shu nutqiy parchada ilgari hech qanday anglanmagan predmet yoki hodisani anglatadi. Metafora predmetning doimiy nomi bo'lib qolgandagina tilshunoslik fani tekshiradigan hodisa hisoblanadi. Chunki bunday metafora umumxalq tiliga xos, badiiy metafora esa, yozuvchining individual priyomiga xosdir». Shu o'rinda badiiy ijodda yozuvchining o'zi ifodalagan fikrlari yordamida kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etishni maqsad qilib olishi va bu ko'proq she'riy asarlar tilida faol ekanligini hisobga olgan S.Karimov ularni an'anaviy va poetik metaforalarga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'radi hamda bunday bo'lishga imkoniyat beradigan vosita matn ekanligini ta'kidlaydi⁵⁰.

Ko'rinadiki, metaforaga qarashlar turlicha bo'lsa-da, uning voqelanish shakli va imkoniyatlari matnga bog'liq ekanligiga e'tirozlar yo'q.

Tilimizda narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi.

Metafora- grekcha so'z bo'lib, ko'chirish degan ma'noni bildiradi. Metafora so'zning ma'nosi kengayishida ishtirok etuvchi muhim omil bo'lib, narsa va hodisalarning o'zaro o'xshashlik tomonlariga asoslanib, so'z va iboralarni ko'chma ma'noda qo'llash natijasida vujudga keladi. Tuzilishiga ko'ra sodda va kengaygan shaklda bo'luvchi metaforalarning nutqimizda ishlatilish imkoniyatlari juda keng. Sodda shakldagi metaforalar birgina so'zdan iborat bo'ladi. Masalan: tulki (makkor), ilon (shum, ayyor), gumbaz (osmon) kabilar. Kengaygan metaforalar ikki yoki undan ortiq so'zlardan tuziladi. Masalan: shaxmat-aql gimnastikasi, paxta-oq oltin, gaz-zangori olov, traktor- dehqoning qanoti, archa-o'rmon malikasi kabilar. Metafora adabiyotshunoslikda istiora deb ham yuritiladi. Metafora obrazlilik hosil qiluvchi muhim vosita sifatida o'zining uzoq tarixiga ega. Badiiy uslub bo'yicha kuzatish olib borgan S. Karimov bu haqida shunday fikrlarni bildiradi: Antik dunyo mutafakkirlari ham metaforaga o'z munosabatlarini bildirganlar. Masalan, Aristotel ko'chma ma'noda qo'llangan har qanday so'zni metafora deb qaragan va uni umuman troplar bilan tenglashtirib qo'ygan. Kvintilian esa uni hamma birday foydalanaveradigan tabiat ehsoni deydi. Uningcha, metafora nutqqa alohida jilo beradigan, boyitadigan qisqargan o'xshatishdir va tavakkal qilib, dadil qo'llangan metaforalargina nutqqa alohida ko'tarinkilik bag'ishlashi mumkin. Sitseron ham metaforalarni qisqartirilgan o'xshatish deb qaraydi va aytadiki, olingan ikki ob'ekt o'rtasida o'zaro moslik

⁵⁰ Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda-tasvir vositalari. -Samarqand, 1994. B.17.

bo'lmasa, til bunday metaforalarni inkor qiladi. Bu xususta Demetriyning fikri diqqatga sazovordir: Metafora nutqqa yoqimlilik va ulug'vorlik bag'ishlaydi, ammo undan hadeb foydalanaverish kerak emas, aks holda yozilgan narsa prozaga emas, madhiya (difiramb)ga aylanib qoladi⁵¹.

Metafora bir predmetni boshqasi bilan o'xshatish, qiyoslashga hamda ularning umumiy belgilarini alohida ajratish asosida yuzaga keluvchi vositadir. Shu sababli ayrim adabiyotlarda metaforaga yashirin o'xshatish deb ham qaraladi. O'xshatishdan farqli ravishda metafora barqaror va turg'un o'xshashliklarni ifodalaydi. Tilshunos M.Yo'ldoshev metafora va o'xshatish orasida quyidagi farqlar mavjudligini ko'rsatadi:

1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi.

2. O'xshatishda ikki komponent – o'xshatiluvchi ob'ekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi.

3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap patto abzats darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi.

4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: -dek, -day, -simon, -larcha, -kabi, -singari, o'xshamoq va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: Karim tulkiday ayyor odam. O'xshatish konstruktsiya. Bunda Karim – o'xshatish sub'ekti, tulki – o'xshatish etaloni, ayyor – o'xshatish asosi, -day – o'xshatishning shakli ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. Karim tulki. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-ey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda). Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanayapti. Butunlay qayta nomlanayapti".

Shuni ham qayd etish lozimki, ifoda-tasvir vositalari taqliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda metaforalar lingvistik va badiiy metaforalarga ajratib tasnif qilinadi. Lingvistik metaforalar avvalo, muomala jarayonida ko'p qo'llanilganligi bois o'zining dastlabki obrazlilikini, ta'sirchanlik xususiyatini deyarli yo'qotib ulgurgan. hozirda ular tushunish mumkin bo'lgan bevosita ma'nolar sifatida qabul qilinadi. Badiiy metaforalar kutilmagan, yangilik bo'yog'iga ega bo'lib, qandaydir g'ayriodatiy, obrazli ko'chimga asoslangan holda qo'llaniladi. Bunday metaforalar badiiy adabiyotda, xususan, she'riyatda keng qo'llaniladi va shu sababli ularga nisbatan poetik metaforalar atamasi ham qo'llaniladi.

⁵¹ Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda-tasvir vositalari. -Samarqand, 1994. -B.16 -17.

Sodda metafora tarkibiga ko'ra birgina so'zdan tashkil topadi. Bunga tilimizdagi gumbaz, yig'ilmoq so'zlarini misol keltirish mumkin. Bu so'zlar nutqda ko'pincha metaforik ma'no ifodalaydi. Gumbaz deyilganda osmon ma'nosi tushunilsa, yig'ilmoq fe'li esa metaforik ma'no ifodalaganda jismoniy harakatni ifodalamay, balki biror sinov, imtihondan yoki suhbatdan o'ta olmaganligi, qoniqarli baho ololmaganlikni bildiradi. Bunday metaforalar ta'sirchanlik xususiyatini deyarli yo'qotgan. Ular kundalik nutqda faol qo'llanadi. Kengaygan metaforalar esa shaklan birdan ortiq so'zdan iborat bo'ladi. Ularning paydo bo'lishi va badiiy matnda qo'llanishi ijodkorning individual uslubiga ham bog'liq. Metafora nutqda qanchalik faol bo'lsa, u shunchalik ta'sirchanligini yo'qota boradi.

Ma'lumki, ma'noning o'xshashlik asosida ko'chishi metaforaning muhim xususiyatidir. Metaforalar asosida obrazlilik yotadi. Obrazlilik esa har qanday metaforik qo'llashga xos hodisa sifatida badiiy nutqda muhim unsur sanaladi: "Badiiy nutq obrazli nutqdir. Badiiy nutqning obrazliliigi so'zlardan, grammatik formalardan o'z va ko'chma ma'nolarida maqsadga mos foydalanish, nutqda obrazli vositalarni, stilistik usullarni o'rinli qo'llash natijasida kuchayadi. Shunga ko'ra badiiy nutqda obrazlilikni ta'minlovchi ham lingvistik, ham stilistik faktorlar mavjud. Nutqiy obrazlilikni ta'minlovchi lingvistik faktor bevosita so'z qo'llash bilan bog'liq. Bu jarayon tilning so'z boyligidan (sinonim, antonim, omonim, paronim so'zlardan, frazeologizmlardan, so'z birikmalaridan) nutqqa mos qo'llash natijasida yuzaga keladi. Stilistik faktor bevosita obrazli vositalar, stilistik usullardan foydalanish natijasida vujudga keladi."

O'zaro muloqot jarayonida nutq qaratilgan yoki nazarda tutilgan shaxsga nisbatan munosabat ifodalash maqsadida hayvon, gazanda, qush va shu kabilarni, shuningdek ularning xatti-harakatlarini anglatuvchi so'zlar metaforik ma'noda qo'llaniladi. Nutq qaratilgan shaxsga nisbatan qo'llanilgan bunday birliklar ijobiy yoki salbiy ma'no ifodalash xususiyatiga ega bo'lib, baholash vazifasini bajaradi. Tilimizda g'ayriaxloqiy so'zlarning ham ma'lum qismi ana shunday so'zlardan tashkil topgan. Baho ifodalashga xizmat qiluvchi metafora sifatida qo'llana oluvchi bunday so'zlar haqida prof.E.Qilichev shunday fikrlaydi: g'ayriaxloqiy so'zlarning turlari, ma'nosi va ularning badiiy adabiyotdagi o'rni hamda vazifasini o'rganish uslubshunoslikda muhim ahamiyatga ega. G'ayriaxloqiy so'zlar o'z xarakteriga ko'ra so'kish, haqorat va qarqish so'zlariga bo'linadi. Ikkinchidan, ular erkaklar va ayollar nutqiga xosligi bilan ham farqlanib qo'llaniladi.

So'kish, haqorat so'zlarni semantik uslubiy jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

A) axloq madaniyati (haromi, la'nati, muttaham);

B) hayvon nomlari (it, eshak, cho'chqa);

V) hashorat nomlari (chivin, chayon, g'o'nda);

G) qush nomlari (boyo'g'li, qarg'a, chittak) va hokazolar bilan bog'liq bo'lgan g'azab nafratni ifodalovchi so'zlar.

Badiiy asarlarda g'ayriaxloqiy so'zlar salbiy qahramonlarning nutqini individuallash, ularga xos salbiy tomonlarni yanada bo'rttirish uchun ishlatiladi. Ayrim hollarda ijobiy qahramonlar nutqida ham bunday so'zlar ishlatilishi mumkin. Bunda ular shu personajning o'ta hayajonlanganligi yoki g'azablanganligi, o'zini tuta olmasligi oqibatini haqqoniy aks ettirish uchun qo'llanadi⁵².

Poetik matnlarda bunday so'zlar baholashning muhim vositasi hisoblanadi.

Nutq qaratilgan shaxsga nisbatan "gul" so'zining qo'llanishida ijobiy munosabat mavjud. Lekin shuni qayd etish lozimki, bu so'z ko'pincha qiz yoki ayolga nisbatan qo'llaniladi. Bu esa metaforalarda gender jihatlar ham aks etishini ko'rsatadi. Zamonaviy o'zbek shoirlar ijodiga mansub poetik matnlarda bu holat ko'p kuzatiladi. Usmon Azim shunday yozadi:

... Gulim, sovuq boqma, qo'rqaman,

qo'rqaman boz bo'ladi paydo —

Olti qit'a, to'rt bag'ri ulkan,

guvillagan dahshatli fazo...

Agar tasodif bo'lib,

Anov shofyorning qo'li,

Ozgina qaltirasa,

Olamda yo'qman, gulim... (U.Azim)

Mazkur misolda qo'llanilgan metaforaning yuzaga kelishida gul va Vatan go'zalligining o'zaro bog'liqligi, beg'uborligi kabi o'xshash jihatlar asos bo'lgan.

Vatan! Pok dillarning bo'stonlarida

Bir alvon chechaksan, bitta qizil gul!

Sen xazon bilmassan, jon-jonlarida

Parvarish etadir har bitta ko'ngil! (Muhammad Ali)

She'rning keyingi misralarida "gul" leksemasidan anglashilgan semantik maydon kengayib borayotganligi seziladi:

⁵² Qilichev E., Rahimov A., Qo'shshaeva N. Nutqda g'ayriaxloqiy so'zlarning ham o'z o'rni bor. Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari. Toshkent: Sharq, 1999. B.225- 226.

*Sira ko'z oldimdan o'sha gul ketmas,
Katta yozmoq ishq qo'ymas meni tinch.
Qaydadir, qaydadir She'r kezadi mast...*

Qayda ul Buyuk sher, parvosiz sevinch? (Muhammad Ali)

Ko'rinadiki, badiiy adabiyotda tilimizdagi poetik ta'sirchan, obrazli so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash muallifning kommunikativ maqsadiga xizmat qiladi. Metaforalarning qo'llanishi asar tilining shirali, ifodali, obrazli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Metonimiya.

Metonimiya—grekcha metonymia so'zidan olingan bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. Metonimiya hodisasi ham so'zlarning ko'chma ma'nosi bilan bog'liq. Ammo bu erda asosan biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Bu predmet yoki voqea-hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi.

Bunda ichki yoki tashqi tomondan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisaning nomi boshqa biror narsa yoki hodisaga ko'chiriladi.

1.Narsa ichidagi narsaning ma'nosi o'sha narsaga ko'chiriladi: Bir choynak ichdim. Bir kosa edim.

2.Muallif nomi asar nomi o'rnida keladi: Navoiyni oldim qo'limga... (H.Olimjon)

3.Harakat yoki uning natijasi shu harakat quroli bilan almashtiriladi: Uning qalami o'tkir. Bu uning qalamiga tegishli.

4.Kishilar ma'nosi hududga ko'chiriladi: Anjumanga butun fakultet qatnashdi.

5.Aniq tushuncha nomi o'rnida mavhum ma'noli ot keladi: Kafedra rektoratga minnatdorchilik bildiradi. Usmon Azim ijodidan olingan "Suflyor monologi" she'ridagi quyidagi misollar metonimiyalarning lingvopoetik imkoniyatlari shoir asarlarida yorqin namoyon bo'lishini yana bir bor tasdiqlaydi:

*Sen buyuk aktyorsan. Besarhad. Ulkan.
Jumla jahonni zabt etmog'ing mumkin.
Zal kuldi, yig'ladi mahoratingdan,*

Men ham burchagimda yig'ladim, kuldim. ..
Mana, sahna uzra bir moviy falak.
Bir dala. Bitta sen. Bir navnihol qiz.
Unga «sevaman», deb aytishing kerak,
So'ng tomosha tugar. Zal cho'kadi tiz...
«Sevaman» desang-chi, «sevaman» degin!...
Zal ham jo'r bo'ladi:
«Sevaman de, ayt!»
Sendan so'rayapti — men aniq sezdim —
Bittagina so'zni zal mana shu payt.

Sinekdoxa

da narsalarning son yoki butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi:

1. Butun o'rinda qism: Uchta qorako'zim bor. Orqamdan jigarlarim yig'lab qoldi.

2. Qism o'rnida butun: Osh so'zi ilgari ovqatning hamma turiga nisbatan qo'llangan bo'lsa, hozir u faqat palov ma'nosida ko'proq ishlatiladi.

3. Ko'plik o'rnida birlik: Talaba, intizomli bo'l!

4. Jins o'rnida tur: Olma o'rnida meva, konfet o'rnida shirinlik. Sinekdoxaning qahramonlar hatti-harakatini ko'rsatishda muhim vosita ekanligi quyidagi parchada ham ko'zga tashlanadi:

«U sevgisin sotdi», qichqirar

Bir ayolning qasoskor ko'zi.

Tiz cho'kaman: «Singlim, muharrar

Buyuk nomzod o'limga o'zim!» (U.Azim)

Umuman olganda, .“Misollar tahlili sinekdoxaning katta umumlashtiruvchilik imkoniyati borligini ko'rsatadi va unda badiiylik hamma vaqt ham ko'zga tashlanavermaydi. Garchand umumlashtirish qisqalikning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, badiiy adabiyot tili uchun nihoyatda zarur sanalsa-da, bu xususiyat uning boshqa funktsional uslublarda ham bemalol ishlatilaverishiga to'siqlik qilmaydi. Bundan tashqari u takrordan qochishga, yaqinlik ma'nosini ifodalashga, ayrim ma'nolarni ta'kidlashga xizmat qilishi mumkin.⁵³”

⁵³ Karimov S.A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. O'quv qo'llanmasi. — Samarqand: SamDU nashriyoti. 1994. B.

Sifatlash(epitet).

O'zbek badiiy adabiyotida ifoda-tasvir vositalari tizimida sifatlash ham fikr ifodalashning o'ziga xos usuli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Epitet (sifatlash). Grekcha—epiteton so'zidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinsa, izohlovchi degan ma'noni beradi. Ammo u doimiy aniqlovchilardan o'zining ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi. Epitet –poetik aniqlovchi. U narsa yoki hodisaning biror tomoni, biror xususiyati yoki belgisini alohida ta'riflab ko'rsatish, alohida baholash uchun predmet, voqea nomini bildiruvchi so'z oldidan qo'shimcha ravishda keltiriladigan so'zdir. Tilshunoslikka doir adabiyotlarda epitetning an'anaviy, individual, poetik tasviriy, lirik, liro-epik, doimiy (an'anaviy), metaforik, baholovchi, bezak, kuchaytiruv kabi turlari mavjudligi qayd etiladi.

Individual epitetlarni badiiy matnlarda qo'llash zamirida ehtiyoj yotadi. Badiiy matnlarda sifatlashdan foydalanishda mallif ma'lum bir maqsadni – matndagi badiiy estetik ta'sirchanlikni oshirishni ko'zda tutadi. Sifatlash poetik matnlarda muallif yoki asar ishtirokchisi tomonidan tasvirlayotgan shaxslar, narsa yoki hodisaning o'zi muhim deb hisoblagan sifatini bo'rttirib ko'rsatish orqali kitobxon e'tiborini jalb etishga xizmat qiladi. Sifatlashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u muallif tasvirga olgan belgini ta'riflash orqali nutq ob'ektining o'zi bilan ham tanishtiradi, uning poetik ta'rifini beradi hamda shu orqali kitobxonda ular to'g'risida muayyan tasavvur uyg'otadi. Epitet (sifatlash) izohlovchi ma'nosini beradi. Epitet she'riy asarlar tilida ko'proq qo'llaniladi. U ta'sirchanlikni yuzaga keltiruvchi vosita hisoblanadi. “Sifatlashlarning poetik nutqdagi vazifasi nutqning aniqligi, rang-barangligini ta'minlashdan iborat bo'lib, odatda narsa va hodisaning biror xususiyatini, belgisini ajratib ko'rsatish maqsadida narsa va hodisa nomini bildiruvchi so'zdan oldin qo'llaniladi. Darhaqiqat, sifatlashlar predmet narsa yoki hodisaning belgisini konkretlashtiradi, shu jarayonda fikrning emotsional bo'yoqdorligini oshiradi. Sifatlash tasvir etilayotgan voqea-hodisaning xarakterli tomonlarini, boshqa voqea-hodisadan ajralib turuvchi belgilarini konkretlashtirib, ta'kidlab ko'rsatadi.⁵⁴”

Tadqiqotlarda predmetning belgisini bildirishga xoslangan sifatlashlar quyidagicha turlarga ajratiladi:

⁵⁴ Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. Toshkent: ЎzbSSR “FAN” nashriyoti, 1990, B 66-67.

a) predmetning belgi-xususiyatini ko'rsatuvchi sifatlashlar: payvasta qosh, tig'iz kiprik, bodomgul do'ppi, baxmalday mayin mo'ylov, tiniq, jozibali yuz, ko'm—ko'k suv, moviy osmon, tiniq ko'l va boshqalar.

b) predmetning holatini ifodalovchi sifatlashlar: o'tkir qarash, qovjiragan o't, jimjit sahro, ma'yus yuz, ma'yus chehra va boshqalar.

v) predmet, narsa yoki hodisaning shakl-ko'rinishini belgi sifatida ko'rsatadigan sifatlashlar: kirtaygan ko'z, taqir bosh, shirmoy yuz, yo'g'on bo'yin, novcha bo'y va boshqalar.

g) predmetning rang-tusini belgi sifatida ko'rsatadigan sifatlashlar: tilla rang sharob, kumush rang barkash, ko'k movut adyol, zangori osmon, moviy dara va boshqalar.

d) predmet, narsa yoki hodisaning mazasi – ta'mini, hidini belgi sifatida ko'rsatuvchi sifatlashlar: xushbo'y hid, nordon so'z, bemaza gap, achchiq iztirob va boshqalar.

e) predmet, narsa yoki hodisaning hajmini, o'lchovini belgi sifatida ko'rsatuvchi sifatlashlar: keng xona, uzun yo'l, katta xarsang, og'ir turmush, keng peshona va boshqalar⁵⁵.

Sifatlashning vazifasi shaxslarga, narsalarga xos belgilarni ko'rsatishdan iborat. Uning oddiy sifat so'zlardan farqi shundaki, oddiy sifatlar faqat belgi haqida ma'lumot berish bilan cheklanadi, sifatlash esa belgi haqidagi ma'lumotni obrazli tarzda etkazish bilan uning alohida bir sifatini bo'rttirib ko'rsatish bilan o'quvchi yoki tinglovchi e'tiborini unga qaratishga, unga ta'sir etishga xizmat qiladi. "Badiiy nutqda uchraydigan barcha sifatlashlar emotsional obrazlilikning ta'minlash ko'lami jihatidan bir xil emas.

Chunki badiiy nutqda qora tun, qizil gul, yashil vodiy, metin iroda, kuchli qo'l, oppoq yuz, qora ko'z kabi umumnutq sifatlashlari ham uchrab, nutqning badiiy ta'sirchanligini kuchaytirishga yordamlashadi. Badiiy nutqda uchraydigan individual sifatlashlar esa kuchli nutqiy obrazlilikni ifodalashi hamda publitsistik va ilmiy nutqda uchramasligi bilan ajralib turadi. Shunday ekan sifatlashning bu nutqiy turi, badiiy nutqning obrazli - ta'sirchanligini oshiruvchi nutqiy omillardan biri hisoblanadi⁵⁶".

Badiiy adabiyotda qo'llanilgan har bir sifatlash matnga bog'liq holda ma'lum bir ma'no nozikliklariga ishora qiladi. Masalan, quyidagi parchaga diqqat qilaylik:

Aytalarki, sovuq, g'amli qora qish,

⁵⁵ Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent: Fan, 1988, B.95.

⁵⁶ Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent: ЎzbSSR "FAN" nashriyoti, 1988, B.96.

*O'tib ketib, kelmish chiroylik bahor.
Gulga oshiq bo'lib sayrar emish qush,
Gul ham oshiq qushga nozlanib qarar.
(Cho'lpon)*

Yuqoridagi parchada qo'llanilgan sovuq, g'amli, qora sifatlari qishga xos belgi-xususiyatlarni anglatib, undan anglashilgan ma'noni yanada kuchaytirib, bo'rttirib tasvirlashga xizmat qilgan. Umuman olganda, "qora" leksemasi o'zida nafaqat salbiy munosabatni, balki ijobiy jihatlarni ham aks ettiradi. Rang-tus bildiruvchi sifatlarning badiiy-estetik xususiyatlari "O'tkan kunlar" romanidagi Kumush tasvirida ham kuzatiladi. Abdulla Qodiriy uni shunday badiiy bo'yoqlar bilan shunday tasvirlaydi:

Biz bular bilan tanishishni shu erda qoldirib ayvonning chap tarafidagi daricha orqalik uyga kiramiz, ham uyning to'riga solingan atlas ko'rpa, par yostiq quchog'ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg'oq yotqan bir qizni ko'ramiz. Uning qora zulfi par yostiqlarning turlik tomoniga tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jinggila kiprak ostidaqi timqora ko'zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lgan oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqqa aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabi'atning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o'lturdi. Sariq rupoq atlas ko'ynakning ustidan uning o'rtacha ko'kragi bir oz ko'tarilib turmoqda edi. Turib o'lturgach boshini bir silkitdi-da, ijirg'anib qo'ydi.

Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'iyan soch tolalari o'rab olib jonso'z bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi — Kumushbibi edi.

Abdulla Qodiriy Kumushbibi go'zalligini rang-tus bildiruvchi sifatlar yordamida yuksak mahorat bilan tasvirlagan.

Muhammad Yusuf ijodidan olingan quyidagi parchada qo'llanilgan "qora er" birikmasida o'lim ma'nosi ifodalangan:

*O'lim nima? Bu ham bitta
Sayr, Ona.
O'g'ling qaro erga ketdi,
Xayr ona...*

She'rdagi poetik ta'sirchanlik shu darajada kuchliki, uni o'qish bilan kitobxonda faxrlanish, g'ururlanish tuyg'ulari uyg'onadi. Badiiy matnning

qay darajada bo'yoqdorligi uning tiliga, xususan, sifat so'zlarga ham bog'liqdir.

Xullas, badiiy matnlarda lingvopoetik vositalar, xususan, sifatlashlar muallif munosabatini ko'rsatishda, lirik qahramonlarning betakror tasviri, ichki qiyofalarini ochib erishda muhim ahamiyatga ega.

O'xshatish.

O'xshatish narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini ochib berishdir. U to'rt qismdan tashkil topadi: Bular - o'xshatilgan narsa, o'xshatiladigan narsa, o'xshatish asosiy belgisi, o'xshatish asosiy vositasi. O'xshatish deb «ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalash»ga aytiladi⁵⁷.

Ijodkor badiiy asar tilining bo'yoqdor va ta'sirchan bo'lishida, obrazlilik hosil qilishda ko'pchilik hollarda o'xshatishdan foydalanishga harakat qiladi. Bunda o'xshatish muallif tomonidan tasvirlangan voqea-hodisa, narsalarni kitobxon ko'z o'ngida aniq gavdalantirish vazifasini bajaradi. O'rinli qo'llanilgan, matn mazmuniga mos keluvchi o'xshatishlar kitobxonga badiiy-estetik ta'sir ko'rsatadi. O'xshatishlar so'zlovchi mansub bo'lgan xalqning milliy-ma'naviy xususiyatlari, ijtimoiy turmush tarzi va dunyoqarashi, e'tiqodi, an'analari va urf-odatlari bilan bog'liq jihatlarni ham o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari ruhiy holat, o'y-kechinmalar ifodalashda ham o'xshatishlar muhim vosita hisoblanadi.

Badiiy nutqda shoir tomonidan hosil qilingan o'xshatishlar asarning badiiy-estetik qimmatini belgilab beradi. Bu haqida N.Mahmudov "Badiiy nutqning ifodaliligi nuqtai nazaridan qaralganda, o'xshatishlarning musichadek beozor (odam), ayiqday qo'pol (yigit), toshday qattiq (narsa), muzday sovuq (suv), qorday oppoq (rang) kabi qo'llanishi an'anaga kirib qolgan, hammaga ma'lum bo'lgan turlaridan ko'ra nutq tuzuvchining, ijodkorning o'zi tomonidan yaratilgan, ya'ni xususiy-muallif o'xshatishlari ahamiyatliroqdir. To'g'ri, mazkur an'anaviy o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligi uchun ma'lum darajada xizmat qiladi. Masalan, musichadek beozor odam birikmasi beozor odam birikmasiga nisbatan, ayiqday qo'pol yigit birikmasi qo'pol yigit birikmasiga nisbatan, tosh-day qattiq narsa birikmasi qattiq narsa birikmasiga nisbatan ifodaliroq, ekspressivroq ekanligi ko'rinib turibdi.

⁵⁷ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov Q. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983. B.239.

Shuning uchun odatdagi nutqning ifodaliligini ta'minlash uchun ulardan ham foydalanish lozim. Ammo nutqning, ayniqsa, badiiy nutqning ifodaliligini kuchaytirish uchun xususiy-muallif o'xshatishlari alohida ahamiyatga molikdir. Ijodkorning bevosita o'zi yaratgan, uning o'tkir ko'zi, ko'lamli tasavvuri va bepoyon taxayyuli, ziyrak kuzatishlari mahsuli sifatida yuzaga kelgan va o'z o'rnida qo'llangan o'xshatishlar betakror obrazlarning go'zal ifodachilariga aylanadi, haqqoniy ta'sirli tasvir uchun xizmat qiladi" deb yozadi⁵⁸. Quyidagi she'rda –dek, kabi, misol leksik va grammatik vositalardan mohirona foydalanish bilan o'ziga xos poetik tasvir yuzaga kelgan:

*She'rimga hassadek suyanib olib,
Seni tafting qolgan qo'llarim bilan
Bo'shliqlarni ko'r kabi paypaslab, silab...
Tushun, yer sharida osilib turibman!
Qancha yopishmayin hayotga, she'rga,
Sen meni tashlama, quchog'imda tur,
Hayotning bo'yniga chirmashib ketsin,
Ikkala qo'lim ham chirmovuq misol! (U. Azim)*

Muhammad Alining "Tong" she'rida jonlantirish va o'xshatish o'zaro qorishib, betakror manzara hosil bo'lgan:

*Tog;da tunagan tuman tog' boshidan o'rgilib,
Yonbag'irdan sirg'anib erga qo'ndi og'ista.
Ufqda osilib qoldi nozikkina oq bulut,
Dengiz bo'yiga chiqqan oppoq durrali qizday...(M.Ali)*

O'xshatishlar va ularning badiiy matndagi o'rni haqida fikr yuritganda tilshunos olim R.Qo'ng'urovning o'xshatish hosil qiluvchi to'rt komponent mavjud bo'lishi to'g'risidagi fikrlari asosli ekanligi ma'lum bo'ladi. Olim bu komponentlarni qayd qilar ekan, shunday misollarni keltiradi: "Shoirning qo'shiqlaridan ilg'omlangan o'zbek yigitlari frontga borib, sherday jang qildilar" (H. Olimjon. «O'zbek xalqining adabiyoti», 1948, III).

*Tog'lardagi qip-qizil lo'l a bo'lib
g o' yo yoqut p i yo l a
Buloqlardan uzatadi suv
El ko'zidan qochadi uyqu. (H. Olimjon).*

Keltirilgan misollarning birinchisida o'xshatilgan predmet yigitlar (1), o'xshatiladigan predmet sher (2), jang o'xshatish asosi (belgi) (3), - day esa o'xshatish vositasi (4) hisoblanadi. Ikkinchi misolda o'xshatilgan

⁵⁸ Mahmudov N. O'qtuvchi nutqining madaniyati. Toshkent: b.171.

predmet (1) lola, o'xshatiladigan predmet 2) piyola, asos (3) yoqut va o'xshatish vositasi (4) go'yo dir .

O'xshatishni unga yaqin va aloqador boshqa tasviriylar vositalardan (xususan, metafora, epitet, jonlantirish kabi) farqlashda mana shu a'zolarining bo'lishini hisobga olish katta ahamiyatga ega⁵⁹.

Badiiy ijodni, xususan, poetik nutqni lingvopoetik vositalarsiz tasavvur etish qiyin. Poetik matnlar tilining emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri o'xshatishdir. O'xshatish lingvopoetik vosita sifatida poetik matnlarda bir qator vazifalarni bajaradi. Avvalo, o'rinli qo'llanilgan o'xshatish vositasida ma'lum bir voqea-hodisa, narsalar o'quvchi ko'z o'ngida aniq gavdalantiriladi. Muallif fikrlari obrazli tarzda o'quvchiga etkaziladi va muallifning asosiy maqsadi – kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish amalga oshiriladi. O'xshatishlarning poetik matnlardagi vazifasi bu bilan cheklanmaydi. Ular vositasida asar tilining emotsional-ekspressivligi ta'minlanadi, muallif individual uslubi, u mansub bo'lgan xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlari, hayot tarzi va dunyoqarashi, e'tiqodi, asrlar davomida shakllangan an'analari va urf-odatlar bilan bog'liq jihatlar ham o'z poetik tasviriga ega bo'ladi. Illokutiv aktning yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etuvchi o'xshatishlar poetik matnlarda bundan tashqari tasvirlanayotgan shaxsning, lirik qahramonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari tasvirini berishning ham eng qulay vositasidir. Muallif kommunikativ maqsadining qanday ekanligi nominativ xarakterdagi lisoniy birlikni poetik matnda badiiy-estetik ta'sirchanlikni ta'minlovchi lingvopoetik vositaga aylantiradi va uning mazmun mundarijasini belgilab beradi. Ana shundan kelib chiqib, o'xshatish deganda «ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkritroq, bo'rttiribroq ifodalash» tushuniladi⁶⁰.

Ma'lumki, insonning ijodiy faoliyati mahsuli bo'lgan badiiy matnlar lingvopoetik tahlil uchun material vazifasini o'taydi. Tabiiyki, matndan tashqarida, alohida belgilab olingan so'z yoki iborani tahlilga tortish orqali ijodkorning boshqalardan ajralib turadigan o'ziga xos bo'lgan uslubi, u tomonidan yaratilgan poetik matnda ishtirok etgan lirik qahramonlar yoki personajlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun poetik matnning deyarli hamma ko'rinishlarida u yoki bu darajada namoyon bo'luvchi o'xshatish hodisasini yuzaga keltirishda ishtirok

⁵⁹ Qo'ng'urov R.?. Tanlangan asarlar. Samarand: SamDU nashri, 2008. B.337.

⁶⁰ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov Q. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983. B.239.

etuvchi birliklarning matndagi mavqeini, o'xshatish etalonining badiiy-estetik ta'sirchanlikni ta'minlashdagi rolini aniqlash mazkur hodisaning lingvopoetik xususiyatlarini belgilashga imkon beradi. O'xshatishlarning hosil bo'lishi zahirida muallifning kommunikativ maqsadi, uning voqelik faktlariga bo'lgan munosabati, ularni lisoniy va nolisoniy omillarga tayangan holda baholashga intilishi yotadi. Tilimizda nutqning turli ko'rinishlarida, xususan, og'zaki so'zlashuvda va badiiy nutqda, qisman publististik matnlarda ham tez-tez uchrab turadigan "muzday suv", "qo'yday yuvosh", toshday qattiq", "paxtaday yumshoq", "cho'chqaday semiz", "tulkiday ayyor", "terakday uzun" kabi bir qator o'xshatishlar nutqimizda ko'p qo'llanilganligi, tasvir obektining ma'lum bir sifatining izohlash bilan cheklanib qolganligi uchun obrazlilik, ta'sirchanlik xususiyatini deyarli yo'qotgan. Ular bugungi kunda an'anaviy o'xshatishlar hisoblanadi. Badiiy matnlar esa kutilmagan, kitobxon ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi, obrazlilik hosil qiluvchi vositalar hisobiga poetik qimmat kasb etadi. Tilimizda "O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni:

1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va

2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorlilik bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi⁶¹".

Ma'lumki, tilimizda o'xshatish hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar bor. Leksik vositalar kabi, singari, qadar, yangliq, bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand, xuddi, naq, go'yo, teng, o'xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo'lmoq, bir, aynan, o'zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki va boshqalar kirsas, grammatik vositalarga – day (-dek) -dak -(tak) -daq (-doq) -dayin, -dan, -dir, -namo, -simon,-ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, -chalik, -chasiga) kabilar kiradi. Badiiy adabiyotda –day qo'shimachining faolligi seziladi:

*Oy yuzlik desam seni oyning ham dog'i borday,
Ko'rkamlilikda jamoling oftobdan beg'uborday.
Tabiatning hamisha ko'lankasiz bahorday,
Umringni kuzi, qishi yo'qligi barqarorday.
Kunda o'ylasam seni,*

⁶¹ Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli. O'zbek tili va adabiyoti, 2011, 3-son.

Tunda o'ylasam seni,

Ko'z o'ngimda tiniq osmon yaralmish. (T.Sulaymon)

Tasviriylilik hosil qiluvchi birliklarning badiiy matnda qay darajada qo'llanishi, poetik ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida ishtirok etishi ma'lum darajada ijodkor individual uslubini belgilab beradi. Masalan, shoir To'ra Sulaymon "Umr o'tmoqdadir daryo misoli" she'rida o'xshatish ma'nosini berishda "misoli" so'zini qo'llaydi:

Esiz, bolalikni qoldirib ortda,

Umr o'tmoqdadir daryo misoli.

Qoldirib-qoldirmay iz bu hayotda,

Umr o'tmoqdadir daryo misoli.

Shoir o'zining "O'xshar" she'rida esa shu vazifani "o'xshar" so'zi zimmasiga yuklaydi:

Kuyga-kuy ulanur bazm oqshomi,

Yeru ko'k xazonsiz faslga o'xshar.

Bazm oqshomi, bu-nazm oqshomi,

To'yxona bahoriy saylga o'xshar.

"Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so'z tanlash san'ati bilan belgilanadi. Bu o'z o'rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, ya'ni badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati – lingvistik mahoratini namoyon etadi.⁶²". Yuqorida keltirilgan o'xshatish hosil qiluvchi vositalar yordamida hosil qilingan betakror tasvir "Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan⁶³" badiiy matnning lingvopoetik imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi.

Mubolag'a va kichraytirish. Mubolag'a deganda behad bo'rttirib tasvirlash, kichraytirish deganda esa uning aksini tushunamiz. Badiiy adabiyotda bunga misollarni ko'plab topish mumkin. Masalan:

To'rt yuz to'qson quloq qo'lda hassasi,

Sarhovuzdan katta edi kosasi. ("Alpomish")

Kichraytirishga misol:

Chingiz olatovga baxsh etdi yurak,

Mirzo g'azalidan kuldi Badaxshon...

Men yurtimni yozsam bo'lmog'i kerak

⁶² Hasanov A.A. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta'minlovchi leksik-stilistik vositalar. Filol.fanlari nomz...diss.avtoref. Toshkent, 2010. B.8.

⁶³ Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili. T. 2007. B.35.

Osmon oq qog'oz-u dengiz siyohdon. (E.Vohidov.)

Yoki

Pomir cho'qqilari bir yuksalarkan,

Etik poshnasiday kichik poyadir.

Sahro quyunlari bir qo'zg'alarkan,

Yelpig'ichday, bo'sh shabbodadir. (G'.G'ulom.)

Jonlantirish

metaforaning maxsus bir turi bo'lib, unda jonsiz predmetlar kishilarday harakat qiladi, fikrlaydi, so'zlaydi. Jonlantirishlarda jonli narsa nomi bilan jonsiz narsa yoki voqelikni, umuman jonli narsaga xos belgi, harakat yoki holat nomi bilan jonsiz narsaga xos belgi, harakat yoki holatni atash va bunda o'xshatishga asoslanish orqali mazkur nomda hosila ma'no yuzaga keltirishdir. Bu hodisa ayrim tilshunoslikka oid asarlarda personifikatsiya deb ham ataladi". "Jonlantirish metaforaning maxsus bir turi sifatida og'zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham, o'xshatishlar kabi juda qadimdan ishlatilib keladi. Bu shunday priyomki, unda kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari; so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chiriladi. Boshqacha qilib, aytganda, jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan so'zlaydigan qilib tasvirlash jonlantirish deyiladi."

Tilshunoslikda ifoda-tasvir vositalari tahliliga bag'ishlangan ishlarda metaforalarning mazmuniy tomoniga alohida e'tibor beriladi. T.Boboev, Z.Boboevalar badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi vositalardan biri jonlantirish ekanini alohida ta'kidlaydi. Ularning ko'rsatishicha, "jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usulidir. Olimlar mazkur hodisa mohiyatini ochib berar ekanlar, "jonlantirish metaforaning maxsus turi sifatida og'zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham o'xshatishlar kabi juda qadimdan ishlatilib kelinadi. Bu shunday priyomki, unda kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz premetlarga ko'chiriladi. Boshqacha qilib aytganda, jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlash jonlantirish deyiladi" deb ta'riflaydilar.

Badiiy adabiyotda jonsiz predmetlarni, mavhum tushunchalarni harakatlantirish, so'zlatish orqali muallifning ularga bo'lgan munosabati, ijobiylik yoki salbiylik nuqtai nazaridan bahosi ifoda etiladi. A'zam O'ktamning "Ibodot" she'ri jonlantirishga misol bo'la oladi:

*Tog'lar some' bo'lib o'tirishar jim,
Takbir aytgan chog'i guldurab samo.
U yanglig' munojot qila olur kim,
Yomg'ir bu pichirlab qilingan duo.
El yig'lar yer tirnab. tuproq seskanar,
Maysalar qaltirab qilurlar sajda.
Duolar ijobat bo'lgan sanalar,
Kun nurlari bundan keltirar mujda.*

Badiiy matnlarning emotsional-ekspressivligini oshirishda jonlantirishdan ham foydalaniladi. Jonlantirish muallif fikrlarining o'quvchiga tez va aniq etkazilishini ta'minlashda qulay vosita sifatida lingvopoetik vositalar tizimida muhim o'rin egallaydi. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatini lingvopoetik jihatdan o'rganishga harakat qilgan G.Muhammadjonova jonlantirish yo'nalishlari va uning farqli xususiyatlarini quyidagicha tasniflaydi:

“Jumladan, jonlantirish jonlantirilayotgan obektni hisobga olgan holda 4 xil yo'nalishda bo'lishi mumkin:

- a) jonsiz predmetni jonlantirish;
- b) jonli mavjudotlarga insonga xos xususiyatlarni taqish;
- v) tabiat hodisalarini jonlantirish;
- g) hissiyotlarni (yoki mavhum otlarni) jonlantirish.

Jonlantirish jonlantirilayotgan obektga insonning qaysi xususiyatlarini ko'chishi hisobidan ham farqlanadi:

- a) harakat-holatning ko'chishi; b) nutqiy qobiliyatning ko'chishi.

Jonlantirish badiiy asarda o'ziga xos muayyan funktsiyalarni bajaradi:

a) jonli tasvir inson ruhiyati olamini, uning ichki hissiyot, dardlarini kashf qiladi. Bunda jonlantirilayotgan obekt ruhiyati qahramon holatiga uyg'un aks etadi.

b) yorqin, obrazli badiiy tasvir yaratadi;

v) majoziy fikr ifodalashning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, jonlantirilayotgan obekt nutq qobiliyatiga ega bo'lsa.⁶⁴

Jonlantirishning inson ruhiyatining betakror manzaralarini, ichiga sig'dira olmaydigan go'zal pisiyotlarini o'quvchiga turli poetik obrazlar orqali etkazib, uni ham shu tuyg'ular og'ushiga olishini Cho'lponning “Go'zal” she'rida uchratamiz. Jonlantirish hodisasining mohiyatini yanada teranroq anglash maqsadida she'rga kengroq to'xtalamiz:

⁶⁴ Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. NDA.- Toshkent, 2004. B.14.

*Qoronqu kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen.
Tushimda ko'ramen, shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!.."*

She'rdagi oshiq ijodkorning o'zi bo'lib, u o'zining sog'inchi, yorga bo'lgan muhabbatini to'g'ridan to'g'ri tasvirlaganda fikrlar quruq, ta'sirsiz bo'lib qolar edi. Muallif ana shu holatning oldini olish maqsadida jonlantirishga murojaat qiladi. Endi yor tasvirini berish vazifasi jonsiz predmet -yulduzga yuklatiladi. Yulduz tomonidan yorga berilgan ta'rif keyingi bandlarda navbatdagi jonlantirishga yo'l ochadi. Endi oy tilga kiradi:

*Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqqa,
Boshlayman oydan-da seni so'rmoqqa,
Ul-da aytadirki: "qizil yong'oqqa
Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.
Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!.."*

Yulduz va oydan yorning go'zalligini badiiy-estetik jihatdan baholovchi javob olingandan so'ng muloqot doirasiga yangi obrazlar - tong shamoli va kun kirib keladi:

*Erta tong shamoli sochlarin yozib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir: "Bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog'u toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni - shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!.."
Ul ketgach kun chiqar yorug'liq sochib,
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda.
Ul-da uyatidan berkinib, qochib,
Aytadir: "Bir ko'rdim, tushdamas o'ngda.
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir... mendan-da go'zal!.."*

She'r oxirida oshiq holati, ruhiyati, ichki kechinma va tuyg'ular o'zaro birlashib, kitobxon ko'z o'ngida chorasiz, umidsizlik va umid oralig'ida turgan yigit qiyofasini gavdalantiradi:

*Men yo'qsil na bo'lub uni suyibmen?!
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen.*

*Boshimni zo'r ishga berib qo'yubmen,
Men suyub...men suyub...kimni suyubmen?
Men suygan "suyukli" shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!!!"*

Zotan, "Muhabbat bu-bilishning mahsuli bo'lib, inson bilgan, anglagan narsasiga o'zini butkul bag'ishlashi va undan lazzatlanishidir. Go'zallik kabi muhabbatning mohiyatida ham lazzat yotadi. Shu bois muhabbat go'zallik barobarida ulug'lanadi." She'rda oshiq ruhiyati tasvirini berishda aslida jonsiz bo'lgan "yulduz", "shamol", "kun" kabi narsa va predmetlarga, hodisalar ishtirok etadi. Bu esa o'z barobarida tilning informativlik, aloqa vazifalaridan tashqari ta'sir etish vazifasini yetakchi darajaga chiqaradi. Jonlantirish muhim vosita sifatida shoirga fikr ifodalashda qulaylik tug'diradi, lirik qahramon ruhiyati. Ichki kechinmalari, atrofdagilarga munosabatini ko'rsatish bilan birga she'rlardagi poetik ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Lingvopoetik vosita sifatida jonlantirishning o'ziga xos jihati shundaki, ijodkor u orqali kutilmagan narsa va predmetlar, holatlar tasvirini chizadi.

Antiteza

qarama-qarshi qo'yish degan ma'noni bildiradi. Antiteza ifodalilikni kuchaytirish uchun qarama-qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, narsalarni, shaxslarni, xarakterlarni qiyoslash orqali yuzaga keladi:

*Maishatman kayfu safo bir yog'da
Mehnat bilan jabru jafu bir yog'da.* (E.Jumanbulbul)

Antiteza grekcha so'z bo'lib, qarama-qarshi qo'yish degan ma'noni bildiradi. Tilshunoslikka doir tadqiqotlarda antiteza poetik sintaksis doirasida qaraladi. R.Qo'ng'urov antiteza haqida fikr yuritir ekan, "Antiteza poetik sintaksisning bir ko'rinishi hisoblanadi, u nutqda ifodalilikni kuchaytirish uchun logik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, predmetlarni va shaxslar xarakterlarini qiyoslash yoki birgina predmet yoki hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlashdir," deb yozadi. Olimning fikricha, "Antiteza orqali ifodalangan ma'noni tushunishda bir-biriga keskin qarama-qarshi hodisalarga nisbatan bizning reaksiyamizning ham ahamiyati bor. Masalan, issiq-sovuq, baland-past, ulug' va pastkash, jasur va qo'rqqoq, saxiy va xasis, haqiqat va yolg'on, tun va kun, yoruq va qorong'i kabi antonimik so'zlar har biri o'ziga xos reaksiya uyg'otadi. Ma'lum hodisa yoki hodisalar tasvirlanayotganda ularni ana shu kabi antonim so'zlar vositasida birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yib qiyoslanadi va shoir

ularga nisbatan o'zining munosabatini bildiradi yoki bir hodisani turli tomondan tasvirlash orqali o'quvchida unga ijobiy yoki salbiy munosabat uyg'otadi". Badiiy adabiyotda personajlar nutqini individuallashtirishda ishtirok etuvchi vositalardan biri antiteza hisoblanadi. Bu hodisa asosida antonimlar yotadi. Badiiy adabiyotda zid ma'noga ega bo'lgan so'zlarning mavjudligi personajlar nutqining individualligini, asar qahramonlari nutqining aniq, ta'sirchan, ifodali bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. "O'zbek tili stilistikasi" kitobida yozilishicha, "Antonimlar tilning kuchli stilistik vositalaridan biridir. Yozuvchilar voqelikni, narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlaridagi farqni ko'rsatishda, bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda—kontrastlar hosil qilishda antonimlardan foydalanadilar." Narsa va tushunchalar, belgilar o'rtasidagi zidlik munosabati asosida yuzaga keluvchi bu hodisa antiteza deb ham yuritiladi. "Aytish lozimki, lisoniy zid ma'nolilik badiiy nutqda muayyan ta'sirchanlik, ifodalilikning yuzaga kelishiga ko'maklashadi, ammo bunday juftliklar baribir, tilda avvaldan bor bo'lganligi uchun kitobxon nazdida kutilmagan emas, kutilgan vositalardir.

Demakki, lisoniy zid ma'nolilik yozuvchining o'zi badiiy niyatiga uyg'un holda asar matnida yaratadigan, ya'ni kontekstual zid ma'nolilikka qaraganda ohorli bo'lmaydi, ta'sirchanligi, ekspressivligi ham shunga yarasha bo'ladi." Antiteza hodisasi nasriy asarlar tilida personajlar munosabati, voqelik faktlariga bo'lgan qarashlarini ifodalashga ham xizmat qiladi. Usmon Azim «Saylanma»sining so'nggi qismini erk haqidagi she'rlar tashkil etgan. Shu turkumning beshinchi she'ri bunday boshlanmaga ega:

*Bir nafasim - bahor, bittasi kuzdir,
Bir manzirim tog'dir, bittasi tuzdir,
Bir onam olovdir, bir onam muzdir,
Toshlarning ichida soyday sarsonman.*

*Bir qadamim - umid, bittasi - armon,
Bir yonim makondir, bir yonim - zamon,
Bir yo'lim zamindir, bir yo'lim - osmon,
Osmonning ichida oyday sarsonman....*

Antitezaning hosil qilinishida muallifning jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan axloqiy mezonlarga tayanib munosabatda bo'lishi muhim rol o'ynaydi. "So'z va u ifodalagan predmet o'rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko'pincha ochiq va to'g'ridan-to'g'ri bo'lmaydi. Badiiy nutq o'zining ta'sir etishdan iborat asosiy maqsadiga

erishish uchun so'zning turlicha qo'llanishi, tovlanishi, turlanishi, xilma-xil ma'nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi”.

Tildagi mavjud birliklarni personajlar nutqida zidlik ifodalash maqsadida qo'llash badiiy asar tilining estetik ta'sir quvvatini oshirishga xizmat qiladi.

Shoir she'rlarida qo'llanilgan antitezalar lirik qahramon ichki olamining, hissiyotlarining o'ziga xos betakror badiiy manzarasini aks ettiruvchi vositalar sifatida kitobxon xotirasida muhrlanib qoladi. Antitezaning go'zal ko'rinishini Usmon Azimning “grafika” she'rida ko'rish mumkin:

*Ko'zing qaro sening, qoshlaring qaro,
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq.
Qo'lingdagi ta'na toshlaring qaro,
Menga g'amgin boqib turishlaring oq.*

*Unutishing — qaro, hijroning qaro,
Sog'inching oppoqdir, xatlaring — oppoq.
Qarodir yurganing o'ch-mehr aro,
Menga tashlab ketgan dardlaring — oppoq.*

*Shommi, yo saharimi — vaqtimdir qaro,
Sen deb to'kayotgan yoshlarim oppoq.
Sening ham, mening ham baxtimdir qaro,
O'ttiz to'rt yoshingda sochlaring oppoq.*

*Ishon, yurak oqdir, qarodir taqdir,
Oq-qora bo'yoqlar bizning bog'larda...
Men milyon bo'yoqni bilardim, axir,
Ikkimiz baxtiyor bo'lgan chog'larda.*

Ko'rinadiki, she'r boshdan-oyoq antiteza asosiga qurilgan. She'rda oq va qora sifatining o'zaro qarshilantirilishi lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalarini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

“Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli ham bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarni beradigan so'zlarni, iboralarni bayonda yonmayon qo'llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir.” Ular har bir holatda ham shoir individual uslubining betakror ekanligidan dalolat berib turadi.

Gradatsiya

lotincha so'z bo'lib, zinapoya ma'nosini bildiradi.

Gradatsiya narsa, belgi-xususiyat yoki harakatni biridan ikkinchisini kuchliroq yoki kuchsizroq ma'no ottenkali sinonimik yoki bir xildagi so'zlar vositasida kuchaytirib yoki kamaytirib borish orqali tasvirlashdir.

Navbatdagi so'z oldingi so'zning ma'nosini kuchaytirib borsa, klimaks, susaytirib borsa, antiklimaks deyiladi.

Bong uring

hammani

uyg'oting,

Bong uring,

shaharu

qishloqda.

hayajon

ko'taring,

to'p oting,

o't ketdi

hammayoq

yonmoqda,

Ovozlar boricha

baqiring,

Odamlar!

Yo hayot,

yo mamot! (E. Vohidov.)

Ritorik so'roq.

Ritorik xitob. Ritorik so'roq ma'lum bir kishiga berilmaydi. Bunday so'roqlar javob talab qilmaydi. Masalan: "Onani kim sevmaydi!" yoki "Shu aziz va boy vatanimizda nimalar yo'q!" kabilar. Ritorik so'roqda javob shu so'roqning o'zidan anglashilib turadi. Ritorik so'roq mazmunida tuzilgan gaplar shaklan so'roq gap shaklida bo'lsa-da, mazmunan tasdiq ma'nosi sezilib turadi. Ritorik so'roq gaplar. Cho'lpon ijodida ifoda-tasvir vositalaridan bo'lgan ritorik so'roq ham muhim uslubiy vosita sifatida ishtirok etgan. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda muallif nutq ta'sirchanligini oshirish maqsadida o'ziga o'zi savol berishi usulidan keng foydalanadi.

Lekin, turar, jajji vatanim,

Ko'z o'ngimda shundayin bir qol:

Bu dunyoning ertasini o'ylab,

*Cho 'zilarkan bizning bastu bo'y,
Safarlardan sog'ichni kuylab
Kuch qaytarmiz doim, Ona uy!
Yuzimizga solmaysan aslo,
harshilaysan jimgina, zotan —
Bizlar bola — betashvishnamo,
Sen, tashvishli onasan, Vatan! (Muhammad Ali)
Ritorik so'roqni shoirning "Irmoq" she'rida ham uchratamiz:
Irmoq, sen emasmi, u chopqir irmoq,
Ezgu niyatini kuylagan umr?
Bedavo dasht aro ko'ringan mayoq,
Zulmatlar bag'rida miltillagan nurq
qo'ng'iroq hislaring sarhadsiz muncha,
Muncha keng bo'lmasa sening olaming? (Muhammad Ali)*

Badiiy ijodda uslubiy maqsadda qo'llanilgan ritorik so'roq gaplar ijodkorning voqelik faktlariga qanday munosabatda bo'lganligini, ularga bo'lgan sub'ektiv munosabatini ifodalashga yordam beradi. Shunga ko'ra ritorik so'roq gaplarni ikkiga ajratish mumkin bo'ladi: a) ijobiy munosabatni ifodalovchi ritorik so'roq gaplar; b) salbiy munosabatni ifodalovchi ritorik so'roq gaplar.

Ritorik so'roqning go'zal namunalarini To'ra Sulaymon ijodida uchratamiz.

*Qilmishi qing'ir zotga davr qayda, davron qayda?
Vatangado kimsaga beminnat makon qayda?
Yolg'iz otga olamda nom qayda, nishon qayda?
Bahor, sensiz sahroyu tog'u toshga jon qanda?
Ketma, Bahor, mening bog'imdan.*

Shoir she'riyatida qo'llanilgan ritorik so'roq gaplar quyidagi usullar orqali ifodalangan:

a) so'roq olmoshlari ishtirokida:

*Har ko'rganda bo'yingni ko'zim qamashsa netay,
Quvonchlarim qalbimda dengizday toshsa netay?
Tanda jonim joningga zimdan tutashsa netay?
Toleying, iqbolimga bu qol yarashsa netay?
Baxtim, bayotim uchun,
Porloq hayotim uchun
Sen kabi ko'zlari Cho'lpon yaralmish (T.Sulaymon)*

Qahramon o'z ruhiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar sababini, o'ziga yaqin bo'lgan kishilar hatti-harakati, ularning maqsadini bilishni istaydi. Shuning uchun qahramon o'ziga noma'lum bo'lgan narsalar va

shaxslarning nomini tilga olmaydi, balki gap tarkibida so'roq olmoshlarini qo'llash bilan mazmunni kuchaytirga erishadi.

b) So'roq yuklamalari yordamida:

Ohimning o'tidan chiqqan shu'lalar,

Sharqning ko'ragida bir topmasmi?

Ko'ksimdan qisilib chiqqan na'ralar,

Uxlagan dillarga kulib boqmasmu?

(Cho'lpon "Amalning o'limi")

Cho'lpon ijodida qo'llanilgan bunday so'roq gaplar ketma-ket kelib, aniq javob talab qilmaydi. Ular faqat asar qahramonlarining ichki kechinmalarini, munosabati va bahosini ifodalashga xizmat qiladi.

Jim qolish.

So'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirishi jim qolish deyiladi. Bunda fikr oxirigacha aytilmaydi, tinglovchi o'ylashga majbur qilinadi. Jim qolishning kommunikatsiya jarayonidagi o'rni haqida S.Mo'minov shunday yozadi: "O'ta serqirra va murakkab jarayon bo'lgan kommunikatsiya (aloqa aralashuv)da hatto sukut (jim turish, gapirmaslik) ham noverbal informatsiya vositasi, uslubiy figura sifatida ishtirok etadi va situativ, ijtimoiy hamda psixologik omillar bilan bog'liq holda o'ziga xos kommunikativ mazmun ifodalaydi. Albatta, sukut so'z yoki gaplardan farq qilib, kommunikativ aktdan tashqarida (masalan, uyqu, yolg'izlik va shu kabi holatlarda) kommunikativ mazmun ifoda etmasligi mumkin⁶⁵." Misol:

Mana qog'oz qalam yozgin ariza,

o'z xohishim bilan bo'shayman degin.

hozircha... bo'lmaylik izza,

Boshqa ishga o'zim joylayman keyin. (S.Ahmad.)

quyida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan Otabek va Kumush o'rtasida sodir bo'lgan bahsdan parcha keltiramiz:

Bu nima degan so'zingiz tag'in?

– *Ya'ni hamrohim bor deganim – mendan qo'rqmang, deganim...*

Otabek yana tushunmadi...

– *hamrohingiz...*

Hamrohimi? – dedi Kumush, – hamrohim birovning xayoli, birovning fikri. Bas, bundan ham yaxshi rafiq bormi? Ba'zi vaqtlarda bu yo'ldosh uyqudan ham shirin.

Otabek hamrohga tushundi va yotib Kumushning yuzidan o'pdi:

– *Lekin bu so'zingizga ishonmayman.*

– *Nega ishonmaysiz?*

⁶⁵ Mo'minov S. Sukut va kommunikativ mazmun \ O'zbek tili va adabiyoti. -1998. 1-son. –B.69.

–*Negaki, siz anovi... kechasi hamrohsiz edingiz... Pish-pish uxlar edingiz...*

Kumush Otabekning elkasiga qo'lini tashladi:

– *O'shal vaqtlarda hamrohsiz uxlag'anim to'g'ri, – dedi, – chunki birovlardan butunlay umidim kesilgan, hamrohim menga hamisha umidsizlikgina berar, dahshatimnigina ortdirar edi. Ammo o'sha kunlarda uyqu menga juda shirin bir narsa bo'lib qolg'an, men uyqudag'ina birovlarni ko'rar va kunduzlari uyqu qidirar edim. Endi bo'lsa yana yo'ldoshim xayol... Tag'in nima deysiz?*

Yuqoridagi misolda “hamrohingiz...” so'zi ellipsisga uchraganligi seziladi. Suhbat jarayonida buning sababi oydinlashgan.

Tilshunoslik bo'yicha yaratilgan asarlarda jim qolish va ellipsis hodisasini farqlamaslik, jim qolishni ellipsisning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinishi kuzatiladi. Ularda jim qolishga berilgan ta'riflar deyarli bir-biridan farq qilmaydi: “So'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishi jim qolish deyiladi. U ellipsisning bir ko'rinishi sifatida qaralishi mumkin.” “...jim qolish ham ellipsisning bir turi sifatida qaraladi. Badiiy uslubda ruhiy iztiroblarni, psixologik holatni ifodalaydigan jim qolishlar bir muncha faol. Bu usul yordamida yozuvchi va o'quvchi o'rtasida mustahkam psixologik aloqa o'rnatiladi, o'quvchi beixtiyor ijodkor hissiyotlariga sherik bo'ladi: O'ylarim kezadi Shohimardonda... hozir: bir quchoq gul, dilda ehtirom (Zulfiya). Bu usul lirik qahramonning tabiatdan, voqea-hodisalardan ta'sirlanish, xususan, zavq olish holatini berishda juda qo'l keladi.”

Bu holat adabiyotshunoslik bo'yicha yaratilgan lug'atlarda ham ko'zga tashlanadi: “Jim qolish. Stilistik figuralardan biri: jonli yoki badiiy nutq oxirida so'z yoki so'zlar gruppasining tushirib qoldirilishidan iborat usul. Bunda fikr tugallanmay qoladi, atayin fikr yashiriladi, lekin kitobxon yoki tinglovchi uni osongina anglay oladi. Shu jihatdan jim qolish usuli ham ellipsisning bir ko'rinishidan iboratdir.”

Muloqot jarayonida yoki badiiy nutq oxirida so'z yoki so'zlar guruhining tushirib qoldirilishi tildagi tejamkorlik tamoyili bilan bog'liq bo'lsa, badiiy adabiyotda jim qolishdan foydalanishda ma'lum bir uslubiy maqsad ko'zda tutiladi. Masalan: *Dasturxon yonida Kumushbibining latif bilagiga Otabek oltin uzuk solar ekan, ul erg'a qarag'an holda edi.*

–Men sizga hech narsa ham hozirlamag'on edim.

–hozirlamag'aningiz uchun o'kinasizmi?

–...

–O'kinmangiz, – dedi bek. –Sizdan bir narsa so'rasam ayamassiz.

–Ayamayman... (A.Qodiriy, “O'tkan kunlar”)

Albatta, yuqoridagi ta'riflarni bu holatga tatbiq qilib bo'lmaydi.

Umuman olganda, tilshunos olimlar F.Ibragimovning ellipsis va jim qolish hodisalarining bir-biridan farq qilishi va ular alohida-alohida, mustaqil hodisalar sifatida baholanishi lozimligi to'g'risidagi fikrlariga to'liq qo'shilish mumkin.

Takror.

Ilmiy adabiyotlarda takrorning ko'plab turlari mavjudligi, ularning badiiy matnlarda muhim ahamiyat kasb etishi qayd qilinadi. "Darhaqiqat, ijodkorlar nutqiy jozibadorlik uchun tinimsiz izlanishda bo'ladilar. Ularni ifodalashning yangi-yangi vositalarini izlab topishga harakat qiladilar. Ana shuning natijasi sifatida badiiy adabiyot tilidagi uslubiy figuralarning soni birmuncha ko'p va badiiy ta'sirchanlikning yuzaga kelishidagi salmog'i kattadir. Ilmiy adabiyotlardagi dalillarni ko'zdan kechirish bu figuralarning antiteza, amfiteza, akroteza, apokopa, asindeton (bog'lovchisizlik), assonans, gradasiya (klimaks, antiklimaks), diateza, zevgma, tovushga taqlid, oksyumoron, padistola, paronomaziya, poliptoton (poliptot), parallelizm, polisenditon (ko'pbog'lovchilik), sanash, ritorik murojaat, ustunlar tengligi, tenglik, sinoykoza, sillepsis, segmentasiya, uch ustunlik, kichraytirish, jim qolish, xiazm, ellipsis, inversiya kabi turlari bo'lganliklarini va ularning ko'plari hozirgi zamon poeziyasida, jumladan o'zbek poeziyasida ham yashab kelayotganligini ko'rsatadi. Birgina takrorning o'ttizga yaqin, masalan, alliterasiya, anafora, akromonogramma (epanalipsis, epanafora, anadiplozis), antistrofa, antanaklasa, antonomaziya, antimetabola, metabola, naqorat, monorim, pleonazm, rifma, tautologiya, sharq, epifora, epistrofa, epanod, epanasgrofa, qurshab olish, qaytalanish, halqa, bog'lam kabi turlarining mavjudligi badiiy uslubda ifoda-tasvir imkoniyatlarining naqadar kengligidan dalolat beradi.

Keltirilgan uslubiy figuralarning hammasi ham o'zbek tili badiiy uslubida maqsuldor sanalmaydi. Buning ustiga ularning ko'pchiligi shu paytga qadar faqatgina adabiyotshunosligimizda lafziy san'atlar sifatida o'rganilib kelinayotgan tasviriy vositalarning aynan o'zidir".

Ilmiy adabiyotlarda alliteratsiya, anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans, konsonans, monorim, pleonazm, tautologiya, naqorat kabi badiiy takrorning turli xil ko'rinishlari mavjudligi qayd qilinadi. Agar gap tarkibdagi so'zlarda bir xil unli tovush takrorlansa, u assonans deyiladi. Assonans unli tovushlarning takrorlanishidir. Assonans matnda unlilar uyg'unligini hosil qiladi:

*Bir tutam sochlaring mening qo'limda,
G'ijimlab o'paymi, yo tarab ochay?
Sir deb saqlaganing mening qo'ynimda,
Sir deb saqlayinmi, yo elga sochay?*

*Sochilgan sochingday sochilsa siring,
Anor yuzlaringni kimga tutasanq
O'zing-ku: «Alarda vafo yo 'q!» - deding,
Nimaga ularni tag'in kutasan?
(Cho'lpon)*

*Ko 'm-ko 'k, ko 'm-ko 'k,
Ko 'klam quyoshidan,
Ko 'kargan qirlar
Po 'lat yag 'rinlarin*

Ko 'targan erlar ko 'm- ko 'k. (H.Olimjon.)

Badiiy adabiyotda takrorning alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabi turlari ham faol qo'llaniladi. Alliteratsiya deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi.

*Qaro ko 'zing qaro tunlar
Qaroriday qaro bo 'lsin,
Qaro menga, qaro ko 'zdan
Ko 'ngil jannatsaro bo 'lsin (Muhammad Ali)*

So'zlar oxirida unli yoki undosh tovushlarning takrorlanishi epifora deyiladi.

*Uyda, oilada, dalada qirda,
Oppoq paxta bitgan serunum erda. (H.Olimjon.)*

Usmon Azim ona so'zini takror qo'llash bilan inson turmush tarzi, farzandning ona oldidagi burchi, unga munosabati kabi jiddiy masalalarga kitobxon e'tiborini haratadi:

*Ona, kelganingizda
Ko 'ylak olib bermadim...
Pulim yo 'k edi, ona.*

*Ona, kelganingizda,
Ochilib gaplashmadim...
Vaqtim yo 'q edi, ona.*

*Ona, kelganingizda
Kulib-kulib yurmadim...
Baxtim yo 'q edi, ona.*

*Ona, kelganingizda
Yig 'lamadim o 'ksinib...
haqqim yo 'q edi, ona.*

Shoirning "Sarbadorlar qo'shig'i" she'rida takrorning yana bir ko'rinishi uchraydi. Bu ko'rinishda she'r beshlik misralardan tashkil topib, to'rtinchi misra beshinchi misrada aynan takrorlanadi.

*Bizning dilimiz — yorda.
Bizning qo 'limiz — korda,*

*Koru Yordan ayrilar —
 Torting boshimiz dorga!
 Torting boshimiz dorga
 Dilga bog'liq so'zimiz,
 Yor yo'lida ko'zimiz.
 Yo'lu dildan ayrilar,
 Qarang, dorda o'zimiz,
 Qarang, dorda o'zimiz,
 «qayt» dedingiz, «qalb» dedik,
 «Ayt» dedingiz, «haq» dedik.
 Boshimiz dorda turib
 «Jon» demadik, «xalq» dedik.
 «Jon» demadik, «xalq» dedik. (Sarbadorlar qo'shig'i)*

Akromonogramma.

Akromonogramma takrorning ko'rinishlaridan biri bo'lib, unda bir to'rtlik yoki bayt qaysi gap bilan tugasa, ikkinchisi shu birlik bilan boshlanadi. Uning badiiy adabiyotdagi boshqa ko'rinishlarida ham so'z, so'z birikmalari shu tartibda takrorlanadi. O'zbek mumtoz adabiyotida takrorning bu ko'rinishi tashbehul-atrof deb yuritiladi va unga she'riy matnda qo'llaniluvchi san'at turi sifatida qaraladi. Takrorning bu ko'rinishi hozirgi o'zbek she'riyatida ham ma'lum darajada uchrab turadi. Uni qo'llash ijodkorning poetik mahoratiga bog'liq bo'lib, unda misralardagi ma'noni kuchaytirish ko'zda tutiladi. She'rda birinchi misraning oxirida qo'llangan so'z yoki so'z birikmasi ikkinchi misra boshida takroran qo'llanilishi bilan misralar o'rtasidagi o'zaro mazmuniiy aloqadorlik ta'minlanadi.

Cho'lponning "Xazon" she'riga murojaat qilamiz:
 So'z birikmasi takrori:

*Kuz chog'i... tuproqlar gezarib qoldilar,
 Gezarib qoldilar kuz chog'i tuproqlar.
 So'ng damda yaproqlar qizarib yondilar,
 Qizarib yondilar so'ng damda yaproqlar.*

Dastlab o'qilganda kitobxon ko'z o'ngida kuz, sarg'ayib barg to'kayotgan daraxtlar, barglarning qizg'ish tusga kirganligi namoyon bo'ladi. Bu misra boshidayoq anglashiladigan holat. O'quvchi tasvirni idrok qilish barobarida muallifning ichki holatini botiniy anglay boshlaydi. Tuproqlarning gezarib qolishi, yaproqlarning qizarib yonishi takrorning shu ko'rinishi vositasida qahramon ruhiyati bilan uyg'unlashib ketganligi sezila boradi. O'zbek badiiy adabiyotida qo'shimcha, so'z birikmasi, gap, she'riy misra yoki bandning matnda yoki she'r misralarida grammatik takrorlarning qo'llanishi ko'p uchrashi ham mazkur vositaning mahsuldor

ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, takrorning turli ko'rinishlardan mohirona foydalanish ijodkorlar poetik uslubining tobora sayqallashib, yangidan-yangi ma'no qirralari bilan boyib borayotganligini ko'rsatadi. She'riyatda morfologik va sintaktik takrorlar ko'p qo'llaniladi. Morfologik takrorda, asosan, qo'shimchalarning takror kelishi, sintaktik takrorda, asosan, so'z birikmasi, gap yoki gap shakllarining takroran qo'llanishi kuzatiladi. Muhammad Yusufning "Sevgi sadosi" she'rida takrorning bir misra doirasida qo'llanishi kuzatiladi.

*Devona oshiqman, men bir devona,
Ayting, sizdan bo'lak kimim bor yana?..
Siz yo'q chog'imdagi dunyom begona,
Siz yo'q bog'imdagi gullar yoqimsiz.*

Yoki

*Siz achchiq qismatim, siz iztirobim,
Siz shirin dardimsiz, shirin azobim,
Siz mening ko'klardan topgan oftobim,
Erlarda yo'qotgan ko'zmunchog'imsiz.*

Yuqorida bir misra doirasida "devona" so'zining takror qo'llanishi yuz bergan. Takrorning bu ko'rinishini biz Cho'lponning "Xalq" she'rida uchratamiz. Unda birinchi gapda qo'llangan so'zlarning va affikslarning shu misra tarkibida yoki keyingi komponentlar tarkibida takroran qo'llanishi orqali ta'kidlash ma'nosi bo'rttirilgan:

*Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...
Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,
Xalq istadi: toj va taxtlar yiqildi...
Bir qo'zg'olur, bir ko'pirar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar.*

Keltirilgan misolda e'tibor berilsa, xalq va bir so'zlari hamda –dir qo'shimchasi takroran qo'llanilmoqda. Bu bilan ijodkor xalqning har qanday to'siqni engib o'ta oladigan katta kuch ekanligi, bir so'zi orqali esa jamiyat hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy bo'hronlarga ishora qilmoqda. Muallif fikrlarining takror vositasida bu tarzda berilishi bilan nutqning ta'sirchanligi ortgan.

A'zam O'ktamning "Aylana" she'rida qo'llanilgan takror usuli boshqa shoirlar ijodida deyarli uchramaydi. She'rda dastlabki bandda qo'llanilgan misra she'rning keyingi bandlarida gap bo'laklari o'zni o'zgartirilgan holda takrorlanadi. Bu holat she'r oxiriga qadar davom etib takrorning go'zal namunasi yaratilgan:

*Girdobiga tortar o'jar savollar
asli nega keldim*

*ketmayman nechun
qayoqqa borardim ketganda
ne qilib yuribman
Men kimman o'zi
o'zi kimman men
yuribman ne qilib
ketganda borardim qayoqqa
nechun ketmayman
keldim nega asli
o'jar savollar tortar girdobiga.*

Anafora

deganda so'z yoki so'z birikmalarining she'riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi. Bunda shoir tomonidan tanlangan so'z yoki birikmalarning misralar boshidagi takrorlanishi ma'lum bir uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Bu takrorlar oddiy tovush takroridan tortib gaplar takrorigacha qamrab oladi.

Tilshunos olim A.Hojiev o'zining "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" asarida anaforaga quyidagicha ta'rif bergan: "Anafora (yun. anapqora - yuqoriga chiqarish). Parallel tuzilgan nutq parchalari (mas, misralar) boshida aynan bir unurning takrorlanishidan iborat uslubiy qo'llanish. Zid. Epifora Anafora Muhammad Yusufning "Muhabbat, sen chiroyli" she'rida takrorning bir ko'rinishi sifatida ta'kid ma'nosini kuchaytirib kelgan:

*Muhqabbat, sen chiroyli,
Muhabbat, sen go'zalsan.
Tag'in bir zum turaylik,
Gapirmayman, uyalsang...*

Badiiy adabiyotda takrorning yana bir ko'rinishi, o'z xususiyatlariga ko'ra anaforaga zid turuvchi epifora ham faol qo'llaniladi. Epiforada misralar oxiridagi so'z yoki qo'shimchalarning takrorlanishi nazarda tutiladi. Epiforaning qo'llanishi she'rning kompozitsion yaxlitligini ta'minlaydi:

*Oh, mening ortimdan ovvora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Bir bolani ko'rib yorug' dunyoda,
Toshkanni ko'rmagan bechora onam,
Bolang bo'lib bir bor boshlab keldimmi,
Endi men ham senga o'g'il bo'ldimmi!..(Muhammad Yusuf)*

Badiiy adabiyotda so'z yoki jumla, gapga alohida urg'u berish bilan o'quvchi e'tibori jalb etiladi va fikrdagi ta'kid ma'nosi ifodalanadi.

Masalan, Muhammad Yusuf she'riyatida yurtga bo'lgan muhabbat, ichki kechinmalar uning har bir she'rida ufurib turadi va kitobxonni oshiqning sirli olamiga tomon etaklaydi.

*Ota desam, bag'ri-dilim yonaverar,
Kunim yonar, oyu yilim yonaverar,
Mozoriga qo'ygan gulim yonaverar,
Tutunlarga to'lib ketgan osmonim bor.*
(Muhammad Yusuf)

Epifora

takrorning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, u misrada qayerda kelish o'rniga ko'ra anaforaqa qarama-qarshi turuvchi hodisadir.

Chunki, anafora misra boshidagi so'z yoki birikmasi takrori bo'lsa, epifora - misra oxiridagi til birligi takrori hisoblanadi. Shuningdek, anaforada misralar boshida ohangning ko'tarilishi kuzatilsa, epiforada buning aksi, ya'ni misralar oxiriga urg'u beriladi yoki ohangning ko'tarilishi yuzaga keladi. Natijada epiforada misra oxiriga tomon ma'lum darajada ohangning ko'tarilishi yuzaga kelib, fikrlarning tinglovchi yoki o'quvchiga tushunarli bo'lishini ta'minlovchi mantiqiy urg'u ham shu takrorlanuvchi birlikka tushadi. To'ra Sulaymonning "Tebratar" she'rida epifora vositasida yirik falsafiy ma'no ifodalangan. She'rdan inson va tabiat uyg'unligi, tabiatdagi barcha narsalar inson uchun yaratilganligi, borliq hayoti uchun xizmat qilishi, tabiat va jamiyatda sodir bo'luvchi barcha hodisalar, harakatlar markazida inson turishi ma'nosi matn mazmuniga singdirib yuborilgan:

*Shamol shamolni tebratar.
Shamol bulutni tebratar.
Bulut yomg'irni tebratar.
Yomg'ir tuproqni tebratar.
Tuproq maysani tebratar,
Maysa biyani tebratar.
Biya qimizni tebratar.
Qimiz yigitni tebratar.
Yigit suluvni tebratar.
Suluv beshikni tebratar.
Beshik bolani tebratar.
Bola dunyoni tebratar.*

Takror

muhim uslubiy vosita. Poetik matnlarda uning turli ko'rinishlarini qo'llashda muallifning aniq bir maqsadi namoyon bo'ladi.

Takrorning ajoyib namunasini Cho'lponning "Barg" she'rida uchratamiz:

*Shu chog'da, shu bog'da har narsa yumshoqdir,
Har narsa ko'kargan, har narsa yashnaydir,
Shu bog'da, shu chog'da har narsa oppoqdir:
Quyosh-da nurini hovuchlab tashlaydir.*

Yuqoridagi to'rtlikda "shu chog'da" birikmasi to'rtlikning birinchi va uchinchi misralarida takror qo'llanilgan bo'lsa, "shu bog'da" birikmasi birinchi va uchinchi misralarda, "har narsa" birikmasi esa birinchi, ikkinchi va uchinchi misralarda keltirilgan. Shu bilan o'quvchining she'rda ifodalangan poetik tasvirni tushunishi ta'minlangan.

She'riyatida qo'llanilgan takrorlar badiiy-estetik ta'sirchan vosita sifatida asar tilining shirali va ifodali bo'lishini ta'minlashga yordam beradi.

Xullas, badiiy asar tilining go'zal va jozibador bo'lishida, shuningdek, notiq nutqining obrazli, ta'sirchan bo'lishini ta'minlashda tilda mavjud bo'lgan ifoda -tasvir vositalarining roli juda katta. Ularni alohida guruh sifatida o'rganish, badiiy adabiyotdagi yangidan yangi ko'rinishlarni aniqlash tilshunosligimiz uchun katta ahamiyatga ega.



Tekshirish uchun savollar

*Tilning maxsus ifoda- tasvir vositalari deganda nimani tushunasiz?
Notiqning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishida bu tasviriy vositalarning qanday ahamiyati bor?*

Trop deb nimaga aytiladi?

Tilimizda troplarning qanday turlari bor?

Uslubiy figura deganda nimani tushunasiz?

Uslubiy figuraning qanday ko'rinishlarini bilasiz?

Tropning qaysi ko'rinishlari nasriy asarlar tilida mahsuldor qo'llaniladi?

O'zbek she'riyatida tasviriy vositalarning qaysi turlari uslubiy vosita sifatida ko'p uchraydi?

So'zlovchi yoki yozuvchining ifoda-tasvir vositalarini qo'llashda qanday shart- sharoitlar talab qilinadi?

O'zbek tilshunosligida tilning maxsus ifoda-tasvir vositalarini o'rganishga bag'ishlangan qanday asarlar mavjud va ular kimlar tomonidan yozilgan?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Aliqulov Z.** Sotsiumlar nutqining sotsial tabaqalanishi haqida \\
Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari \\
Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi materiallari.-Samarqand: SamDChTI nashri, 2009.-B.77.
2. **Ahmedova Sh.N.** Said Ahmad hajviyotida badiiy mahorat, NDA, Toshkent: 1994. – 29 b.
3. **Babadjanov F.K.** O'zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari (Behbudiy va Avloniy dramalari asosida), NDA, Samarqand, 2002.–23b.
4. **Boymirzaeva S.O'.** Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi, NDA, Samarqand: 2004. – 23 b.
5. **Doniyorov X., Yo'ldoshev B.** Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent: Fan, 1988. - 208 b.
6. **Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref.** –Samarqand.1993.-27 b.
7. **Islomjonova X.** Shaxsni stereotip va sub'ektiv ifodalash usullari \\
O'zbek tili va adabiyoti,2000. -№3.-B.1.
8. **Yo'ldoshev B.** Badiiy asar tili va uslubini o'rganish \\
O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to'plami), Samarqand, SamDU nashri, 1980, 42-56-b.
9. **Yo'ldoshev B., Pardaev Z., Bobojonov F.** Badiiy asar tili masalalari, Navoiy, Navoiy DPI nashri, 2001.- 49 b.
10. **Yo'ldoshev B.** Badiiy nutq stilistikasi, Samarqand, SamDU nashri, 1982.- 81 b.
11. **Yo'ldoshev M.** Cho'lponning badiiy til mahorati (“Kecha va kunduz” romani misolida). – NDA, Toshkent: 2000. – 26 b.
12. **Yo'ldoshev M.** Cho'lpon so'zining sirlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 80 b.
13. **Yo'ldoshev M.** Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent: Fan, 2008. - 159 b.
14. **Karimov S.A.** O'zbek tilining badiiy uslubi, Samarqand, “Zarafshon” nashriyoti, 1992. – 140 b.
15. **Karimov S.A.** O'zbek tilining badiiy uslubi. – DDA, Toshkent: 1993, 23-bet.
16. **Karimov S.** Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari.- Samarqand: SamDU nashri,1994.-50 b.

17. Karimov S., Jo'raev T. O'zbek tili uslubiylati va nutq madaniylati (bibliografik ko'rsatkich). – Samarqand: SamDU nashri, 2001. – 61 b.

18. Karimov S. Shoir lingvopoetikasi xususida \\\ Muhiddinov M., Karimov S. G'afur G'ulomning poetik mahorati, Samarqand, SamDU nashri, 2003, 36-100-betlar.

19. Mamajanov A., Ibragimova E. Kinoya – sub'ektiv munosabat ifodalash usullaridan biri \\\ O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2000. -№ 4. –B.14-16.

20. Mahmudov N. Oybek she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopoetikasi \\\ O'zbek tili va adabiyoti, 1985, 6-son, 51-bet.

21. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniylati. Toshkent, 2009.- 188 b.

22. Mirzaev I. Lingvistik poetika va uning filologik tahlildagi o'rni \\\ Tilshunoslikning dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to'plami), - Toshkent: "Universitet" nashriyoti. 2002. – B. 20-23.b

23. Mirzaev I.K. Problemo` lingvopoeticheskoy interpretatsii stixotvornogo teksta (na materiale sovremennoy uzbekskoy poezii), Avtoref. dis... doktora filol. nauk, Tashkent, 1992. – 40 s.

24. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi, NDA, Toshkent: 2004. – 25 b.

25. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dok. ...dissertatsiyasi. – Toshkent. 2001. -235 b.

26. Ne'matov Q. So'z, uning til va nutqdagi o'rni \\\ O'zbek tili va adabiyoti, 1988, № 6. - 38-43-b.

27. Ne'matov Q., Bozorov O. Til va nutq. - Toshkent: O'qituvchi, 1993. - 32 b.

28. Nurmonov A. Nutqiy faoliyat va so'zlovchi shaxs \\\ Rahmatulla Qo'ng'urovning ilmiy merosi va o'zbek tilshunosligi masalalari.– Samarqand. 2008. –B.10-13.

29. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jild. –Toshkent, 2012. 245 b.

30. Nurmonov A. Lingvistik ta'limotning yangi bosqichi \\\ O'zbek tili va adabiyoti. №6.-Toshkent, 2008.-B.53.

31. Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi, DDA, Toshkent: 2002. – 49 b.

32. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov Q. O'zbek tili stilistikasi, Toshkent, O'qituvchi, 1983. – 248 b.

33. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy matnning lingvistik tahlili, Toshkent, O'qituvchi, 1990. – 216 b.

34.Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. - Toshkent: Fan, 1982. – 88 b.

35.Qodirov P. Til va el (Temuriylar davridagi mumtoz adabiy tilimiz muammolari). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. – 248 b.

36.Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 112 b.

37.Qo'ng'urov R., Karimov S. O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati (bibliografik ko'rsatkich). – Samarqand: SamDU nashri, 1981. – 100 b.

38.Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, Toshkent, O'qituvchi, 1992. – 110 b.

39.G'oyibov S. Metafora – emotsional-ekspressiv munosabat ifodalash vositasi sifatida. O'zbek tili va adabiyoti. №4.1979.-B.40.

40. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. dok. diss... -Toshkent, 2008.-B.244. b

LUG'ATLAR:

41.Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -Toshkent: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, 2002. – 168 b.

42.O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildlik, 1-jild. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

43.O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildlik, 2-jild. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

44.O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildlik, 3-jild. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

45.O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildlik, 4-jild. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

46.O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildlik, 5-jild. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	3
“NUTQ MADANIYATI” KURSINING MUNDARIJASI, MAQSADI VA VAZIFALARI.	6
NUTQ MADANIYATI TARIXIDAN.....	17
ADABIY TIL ME'YORI VA VAZIFAVIY USLUBLAR.....	35
NUTQNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	57
TILNING IFODA-TASVIR VOSITALARI VA SHIFOKOR NUTQI MADANIYATI	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	104
LUG'ATLAR:	106
MUNDARIJA.....	107

TIBBIYOT KO'ZGUSI

JO'RAEV T.T., HALIMOV S.G'.

NUTQ MADANIYATI

O'quv qo'llanma

“TIBBIYOT KO'ZGUSI” NASHRIYOTI

Mas'ul muharrir — Dildora TURDIYEVA

Musahhih — Olim RAXIMOV

Texnik muharrir — Akmal KELDIYAROV

Dizayner va sahifalovchi — Zarina NUSRATULLAYEVA

Samarqand davlat tibbiyot instituti bosmaxonasida chop etildi.

Pochta indeksi 140100. Samarqand shahar,

Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Bosishga 24.06.2020 ruxsat etildi. Bayonnoma raqami: 9

Bichimi 60x84^{1/16}. “Times New Roman” garniturasida. 6.28 bosma taboq.

Adadi: 500 nusxa. Buyurtma raqami: 201/24.05.2021

Tel/faks: 0(366) 2330766, e-mail: samgmi@mail.ru, www.sammi.uz

